

TILSHUNOSLIKNING METODOLOGIK MASALALARI

Keyingi yillarda o'zbek tilshunosligida substansial tahtil bo'yida qator nomzodlik va doktorlik dissertatsiyalari bajarildi. Ularning muvaffaqiyatli yakunlanishida ilmiy tadqiq metodikasining to'g'ri yo'lga qo'yilishi hal qiluvchi omil bo'ldi.

Monografiya mualliflari bir necha yil mobaynida iqtidorli talabalar, magistrlar, tadqiqotchilar va aspirantlar bilan lingvistik ilmiy tadqiq jarayoni va bosqichlari, metodikasi, metodologik asoslari va metodlari haqida rang-barang suhbatlar o'tkazib, ma'ruzalar o'qib kelishmoqda.

Bu yo'ldagi tajribalar ushbu monografiyada umumlashtirildi.

Hamid He'matov – filologiya fanlari doktori, professor

Baxtiyor Mengliyev – filologiya fanlari doktori, professor

Shahlo Hamroyeva – filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)



Globe
EDIT

Globe
EDIT



Hamid Nematov · Baxtiyor Mengliyev · Shahlo Hamroyeva

TILSHUNOSLIKNING METODOLOGIK MASALALARI

Monografiya

**Hamid Nematov
Baxtiyor Mengliyev
Shahlo Hamroyeva**

TILSHUNOSLIKNING METODOLOGIK MASALALARI

FOR AUTHOR USE ONLY

FOR AUTHOR USE ONLY

**Hamid Nematov
Baxtiyor Mengliyev
Shahlo Hamroyeva**

**TILSHUNOSLIKNING METODOLOGIK
MASALALARI**

Monografiya

FOR AUTHOR USE ONLY

GlobeEdit

Imprint

Any brand names and product names mentioned in this book are subject to trademark, brand or patent protection and are trademarks or registered trademarks of their respective holders. The use of brand names, product names, common names, trade names, product descriptions etc. even without a particular marking in this work is in no way to be construed to mean that such names may be regarded as unrestricted in respect of trademark and brand protection legislation and could thus be used by anyone.

Cover image: www.ingimage.com

Publisher:

GlobeEdit

is a trademark of

International Book Market Service Ltd., member of OmniScriptum Publishing Group

17 Meldrum Street, Beau Bassin 71504, Mauritius

Printed at: see last page

ISBN: 978-620-0-61120-8

Copyright © Hamid Nematov, Baxtiyor Mengliyev, Shahlo Hamroyeva

Copyright © 2020 International Book Market Service Ltd., member of OmniScriptum Publishing Group

FOR AUTHOR USE ONLY

H.NE'MATOV, B.MENGLIYEV, SH.HAMROYEVA

TILSHUNOSLIKNING
METODOLOGIK
MASALALARI

**Hamid Ne'matov
Baxtiyor Mengliyev
SHahlo Hamroyeva**

**TILSHUNOSLIKNING
METODOLOGIK
MASALALARI**

(Monografiya)

FOR AUTHOR USE ONLY

Toshkent – 2020

Keyingi yillarda o'zbek tilshunosligida substansial tahlil bo'yicha qator nomzodlik va doktorlik dissertatsiyalari bajarildi. Ularning muvaffaqiyatli yakunlanishida ilmiy tadqiq metodikasining to'g'ri yo'lga qo'yilishi hal qiluvchi omil bo'ldi.

Monografiya mualliflari bir necha yil mobaynida iqtidorli talabalar, magistrlar, tadqiqotchilar va aspirantlar bilan lingvistik ilmiy tadqiq jarayoni va bosqichlari, metodikasi, metodologik asoslari va metodlari haqida rang-barang suhbatlar o'tkazib, ma'ruzalar o'qib kelishmoqda.

Bu yo'ldagi tajribalar ushbu monografiyada umumlashtirildi.

Mas'ul muharrir

Ibodulla Mirzayev

filologiya fanlari doktori, professor

Taqrizchilar

Saodat Muxamedova

filologiya fanlari doktori

Bashorat Bahriddinova

filologiya fanlari nomzodi, dotsent

SO'ZBOSHI

Alisher Navoiy "Lisonu-t-tayr" masnaviysida talab vodiysini tavsiflar ekan, bunda talabgor (mualliflar nuqtayi nazarida ilmiy tadqiqotga kirishgan izlanuvchi) dagi uch muhim holatni farqlaydi. Birinchisi, tolibi ilmda istak paydo bo'lganda namoyon bo'ladigan ruhiy holat. Tolib ushbu mashaqqatlarni mardonavor yengib o'tgandagina maqsadiga erishadi. Buni mutafakkir shunday talqin qiladi:

*– "Chun Talab vodiysig'a qo'ysang qadam,
Ollingg'a har dam kelur yuz ming alam.*

*Har dam onda yuz malolat yuzlanur,
Har nafas ming sa'b holat yuzlanur.*

*Istamak ranji ko'ngulni zor etar,
Topmomog'lig' ruhni afgor etar.*

*Jonni kuydurmak bo'lub mahrumluq,
Vasning mi'odi noma'lumluq.*

*Ranju ko'shish sanchibon jismingg'a nesh,
Dardi noyob aylabon joningni resh.*

*Istabon topmay duri noyobni,
Mundadur tark aylamak asbobni.*

Ikkinchidan, mashaqqatlarni yengib o'tish uchun talabgordan quyidagilar talab qilinadi:

*Molu mulku har nedur solikka band,
To'rt takbiri fano urmoq baland.*

*Har nekim g'ayri talabdur, tashlamoq,
O'zni maqsad manziliga boshlamoq.*

*Qolmasa olam mato'idin jihot,
O'zga nav' o'lg'ay sanga ul dam sifot.*

Oqibat esa go'zal, ulug'vor va rohatbaxshdir:

*Ganjdin yetkay asar vayroninga,
Zoti nuridin yorug'lug' joninga.*

Ul yorug'luq shavq o'tin tez aylagay –

Kim talab raxshing sabukhez aylagay.

*O'zda topqaysen talabni birga yuz,
Tog'lar bo'lgay sening ollingda tuz.*

*Joningga yetkay talabning rohati,
Qolmag'ay ranju taabning shiddati.*

*Durga topqon soyi ko'nglung xosliq,
Bo'lg'oy osonroq sanga g'avvoslik.*

*Lam'a ko'rgazgon soyi mehri visol,
Aylagay shoming saharga intiqol.*

*Ollingg'a kelsa agar pili domon,
Ko'rgosen pashsha hamonu ul hamon.*

*Gar yo'lungni tutsa yuz sheru palang,
Bo'lgay oldingda nechukkim mo'ri lang.*

*Ajdahodin yetmagay ko'nglungga ranj,
O'yla bo'lmish bo'lg'ay ul mash'uf ganj.*

*Kufr ila iymonga urgaysen ilik,
Bu tama'dinkim ochilg'ay bir eshik.*

*Chun eshik ochildi ne kufru ne din,
Ichkari kirgach qutuldung barchadin.*

*Kufru iymon rohravg'a kesh emas,
Asl yo'lda bandi rohi besh emas.¹*

Tolibi ilmlarga igna bilan quduq qazishdek mashaqqatli, ammo samarasi bebaho ilmiy ishlarida sabr-toqat, kuch-g'ayrat va mutafakkir talqinida zikr etilgan "sharaf me'roji" nasib etishini tilaymiz.

¹Навоий А. Лисону-т-тайр. –Т.: Фафур Фулом номидаги нашриёт-матбаа бирлашмаси, 1991. –Б. 190–191.

Tavsiya etiladigan zaruriy adabiyotlar

Tayanch tushunchalar

metodika, metod, metodologiya, ilmiy tadqiq metodologiyasi, ilmiy tadqiq, tadqiq manbai, tadqiqotchi dunyoqarashi, tadqiqotchi mantig'i, metodologik adabiyotlar, bibliografik ko'rsatkich, tanqidiy yondashish, ilmiy tadqiq jarayoni

Monografiyada bo'lajak tadqiqotchilarni ilmiy tadqiq *metodikasi, metodlari va metodologiyasi* tushunchalari bilan tanishtirishni, ularni mustaqil ilmiy izlanish olib borishga tayyorlash maqsad qilib qo'yilgan. Bunda bir narsaga alohida e'tibor qaratish lozim: ilmiy tadqiqotlarda (hatto jiddiy falsafiy tadqiqotlarda ham) *metodika, metod* va *metodologiya* tushunchalari juda ko'p hollarda aralashtiriladi, biri o'rnida ikkinchisi qo'llab ketilaveradi. Ma'lumki, rasmiy himoyaga chiqishdan oldin dissertatsiyada va uning e'lon qilingan avtoreferatida (OAK talablariga ko'ra) tadqiqotning metodologik asoslari sharhlab va asoslab berilishi lozim. Ammo ularning aksariyatida metodologiya o'rnida tadqiq metodikasi va metodlari izohlanadi, xolos. Metodologiya haqida so'z yuritilgan taqdirda ham uning bilish nazariyasi, dialektik mantiq yoki tasavvufning bilish nazariyasi ekanligi deklarativ ravishda bayon etiladi yoki bayon qilinayotgan ilmiy fikrlarga qanchalik daxldor bo'lishidan qat'iy nazar, ushbu ta'limotlarga oid bir necha tushuncha va kategoriyalar keltiriladi-yu, tadqiqotning metodologik asoslari masalasi osongina hal etib qo'yiladi. Bu esa o'z-o'zidan **avtoreferat muallifi metod va metodika, metodologiya tushunchalarini anglab yetmaganligidan dalolat beradi**. Demak, unda **ongli ilmiylik, mustaqil fikrlash, ijodiylik** yo'q. Ular o'z ilmiy tadqiqotlarini kimlargadir (kimlarningdir tadqiqotiga) ongsizlarcha (ko'r-ko'rona) ergashish, taqlidchilik asosida yaratgan. Zero, ilmiy tadqiq metodikasi, metodlari va metodologiyasi orasidagi farqni uqish, ularning o'zaro aloqadorliklarini anglash mustaqil ilmiy tadqiqotning ibtidosi sanalishi lozim. Shuning uchun bakalavriat va magistratura o'quv rejasida mavhum berilgan "Ilmiy tadqiqot asoslari" va "Ilmiy tadqiqot metodologiyasi" o'quv fanlari nomini "Filologik tadqiqot asoslari" va "Tilshunoslik bo'yicha ilmiy tadqiqot metodikasi, metodologiyasi va metodlari" deb muayyanlashtirish maqsadga muvofiq.

Bunda dastlab:

- a) ilmiy tadqiq metodikasi;
- b) ilmiy tadqiq metodologiyasi;
- d) ilmiy tadqiq metodi

tushunchalarini farqlash lozim bo'ladi.

Monografiya bakalavriat bosqichida tinglangan "Falsafa" va magistratura o'quv rejasidagi "Fanning falsafiy masalalari" o'quv fanlari bilan uzviy bog'liq. Bog'liqlik shu darajadagi, hatto bu monografiyaning ikkinchi tarkibiy qismi ("Ilmiy tadqiq metodologiyasi") "Falsafa"ning

gnoseologiya (bilish nazariyasi) bo'limi bilan aynan. Shuning uchun "Falsafa" fanidan bakalavriat tizimida hosil qilinishi zarur bo'lgan bilim, malaka va ko'nikmalar bu monografiyada yoritilgan fikrlarni o'zlashtirishga asos bo'ladi. Zero, o'quvchi monografiyaning ilk qadamlaridanoq falsafaning o'zagi bo'lmish dialektika, dialektik mantiqqa oid tushunchalarga duch keladi.


"Falsafa" kursidan ma'lumki, ilm (yoki fan) ijtimoiy ongning bir turi bo'lib, *olam, voqelik, uning tarkibiy qismlari orasidagi bog'lanishlar, yashash va taraqqiyot qonunlari haqidagi haqqoniy (obyektiv) bilimlar majmuasi*. **Ilmiy tadqiq** deganda borliqning (voqelikning) ma'lum bir bo'lagi, birligi (elementi) haqida ma'lum bir bilim hosil qilishga qaratilgan insoniy faoliyat tushuniladi. Voqelikdagi istagan katta-kichiklikdagi narsa yoki hodisa **tadqiq manbai** (o'rganish obyekti) bo'la oladi. Chunonchi, "*Tilning ijtimoiy vazifasi*" kabi ulkan mavzu ham, yoki "*O'zbek (ingliz/rus/v.h) tilida [a] fonemasining variantlari*" kabi nisbatan tor masala ham bir xil ilmiy tadqiq manbai hisoblanadi.

Ilmiy tadqiq metodikasi deganda tadqiq (o'rganish) manbai haqida ilmiy bilimlarni hosil qilish usullari (yo'l-yo'riqlari) tushuniladi. Shuning uchun falsafa bo'yicha darsliklarda ham, "*O'zbek tilining izohli lug'ati (O'TIL)*"da ham "*metodika biror ishni bajarish, amalga oshirish, ado etish metodlarining, usullarining yig'indisi*" (O'TIL, I, 461- b.) deb ta'riflanadi.

Ilmiy tadqiq metodikasi bir necha tarkibiy qismlarni o'z ichiga oladi: bunda eng muhim qismlardan biri tadqiqotchining izlanishga qanday yondashishi, o'rganish obyekti qanday tushunishi, unga qaysi nuqtayi nazardan turib munosabatda bo'lishi. Mana shu omillar **ilmiy tadqiqot metodologiyasini** tashkil etadi. Metodologiya tadqiqotchiga narsada (ya'ni o'rganish obyektida) nimalarni izlashi, topishi, izohlashi, ochib berishi lozimligini ko'rsatib turadi. Bu uning yo'lchi yulduzi, qayerga borishi va kelishi lozimligini ko'rsatib turuvchi mayoq.

Tadqiqotchida va izchil tadqiqotda metodologiya hamisha bitta bo'lib, u olimning dunyoqarashini tashkil etadi. Bir tadqiqotda bir paytning o'zida birdan ortiq metodologiyaga tayanish mumkin emas. Buni, masalan, din dunyoqarash ekan, inson bir paytning o'zida ikki dinli bo'lishi mumkin emasligiga qiyoslash mumkin. Shuning uchun juda ko'p hollarda *metodologiya, tadqiqotchining bilish nazariyasi tamoyillari (gnoseologik prinsiplari), tadqiqotchining dunyoqarashi, tadqiqotchi (tadqiqot) mantiqi (logikasi)* kabi shaklan har xil tushunchalar bir xil ma'no va vazifada – sinonimlar sifatida bimalol qo'llanilaveradi va bunda hech qanday xatolik yo'q.

Har qanday tadqiq manbai serqirra. Chunonchi, *Lolaxon* degan ayol



turli kishilarga nisbatan turli mohiyatga ega va har bir mohiyat mustaqil bo'lib, alohida me'yorlar bilan o'lchanadi. Tadqiq manbaining ma'lum bir qirrasini (tomonini) o'rganishga ("o'lchashga") xoslangan usullar (yo'l-yo'riqlar, mezonlar) **tadqiq metodlari** deb aytiladi. Bitta tadqiq manbai minglab qirralarga (tomonlarga) ega bo'lganligi sababli minglab **metodlar** bilan o'rganilishi mumkin. Shuning uchun metod deganda ko'pincha "*Tabiat va jamiyat hodisalarini bilish, tadqiq qilish usuli*" (O'TIL, I, 461- b.), tadqiq manbaining ma'lum bir qirrasini (xususiyati, tomoni)ni o'rganishga xoslangan usullar anglashiladi.² Bu, odatda, O'TILda izohlanganidek tushuniladi va u to'g'ri emas. Chunki bunday talqinda **metod** va **metodika** o'zaro aralashib ketadi. O'TILda berilgan tavsif "*Tabiat va jamiyat hodisalarining ma'lum bir xususiyati (tomonini)ni bilish, tadqiq qilish usuli*" deb muayyanlashtirilishi lozim. O'TILda keltirilgan namunaviy misol ham (*dialektik metod, qiyosiy metod*) izohtalabdir va bu monografiyaning maxsus bo'limida – tadqiq manbaiga yondashish masalasi bilan bog'liq holda – sharhlanadi.

Tadqiq mavzusi, uning tanlanishi, o'rganilish tarixi, mavzuning dolzarbligi, muammolari, yechimlari, farazi, ilmiy va amaliy ahamiyatini asoslash, mavzu bo'yicha material yig'ish, tajriba o'tkazish, natijalarni sistemalashtirish va, nihoyat, ilmiy ishni yozish va xulosalash ham ilmiy tadqiq metodikasining tarkibiy qismlari bo'lib, **tadqiq bosqichlari va jarayonini** belgilaydi.

Bundan xulosa chiqarish mumkinki, ilmiy tadqiq metodikasi uch asosiy tarkibiy qismni o'z ichiga oladi. Bular:

- 1) tadqiq metodologiyasi;
- 2) tadqiq metodlari;
- 3) tadqiq bosqichlari (jarayoni).

Tadqiq metodologiyasi va tadqiq metodlari tadqiqotchining ilmiy-nazariy va falsafiy-metodologik tayyorgarlik darajasi bilan bog'liq bo'lib, shu malaka va ko'nikmalar asosida tadqiqotchi ma'lum bir manba ustida ilmiy o'rganishni amalga oshiradi. Shuning uchun mustaqil ilmiy tadqiqotchi olimdan:

- a) fan asoslari va shu fan bilan bog'liq yondosh fanlarni chuqur o'zlashtirishni;
- b) ilmiy adabiyotlar ustida mustaqil ishlash ko'nikmalariga ega bo'lishni;

² Философия. Наука. Методология. –М.: Наука, 1980. – С. 8.

d) axborot manbalarini, ular ichida o'ziga zarur va mavzuga aloqador ishlarni tez topish yo'llarini egallashni;

g) uqilgan ongllilik va izchillik bilan tatbiq etila olinadigan metodologik tamoyillarga (aniq ilmiy-falsafiy dunyoqarashga) ega bo'lishni talab qiladi. Shunday tayyorgarlikka ega bo'lgan mutaxassisgina o'z faniga doir ma'lum bir mavzu (manba) ustida mustaqil ilmiy tadqiq ishiga kirisha oladi.

Monografiyaga daxldor adabiyotlar haqida. Bu monografiya bo'yicha hozircha maxsus asarlar bo'lmasa-da, uning ayrim-ayrim mavzulari bo'yicha ilmiy tadqiqotlar uchun tavsiyalar ancha. Xususan, ilmiy tadqiq metodologiyasiga bag'ishlab, juda katta va ko'p tarmoqli tadqiqotlar amalga oshirilgan, zeroki, metodologiya, aytilganidek, falsafaning gnoseologiya bo'limi (bilish nazariyasi) bilan to'qnashadi. G.F.Gegel va unga tayanuvchi tadqiqotchilar esa, ko'p hollarada, *dialektika*, *gnoseologiya* va *dialektik mantiqni* ayni bir narsa deb tushunadilar.³ Voqelik hodisa va qonuniyatlar haqida ilmiy tushuncha hosil qilish esa dialektik mantiq tamoyillari bilan amalga oshiriladi⁴. Shuning uchun dialektika, dialektik mantiq (dialektik logika) bilan aloqador har qanday tadqiqot (bunday ishlar esa fanda juda ko'p) ayni zamonda ilmiy tadqiq metodologiyasiga ham aloqador. Shu bilan birga, Frans Bopp, Avgust Shleyxer, Vilhelm Humboldt (XIX asr), Yuriy Apresyan, Vadim Solnsev, Ferdinand de Sossyur, Nikolay Trubeskoy, Roman Yakobson, Viktor Vinogradov, Natalya Shvedova, Valentina Yarseva, Olga Axmanova, Anna Ufimseva kabi g'arb tilshunoslari, turkiy tillar grammatik qurilishining tadqiq metodologiyasi muammolari bilan shug'ullangan Vasiliy Radlov, Platon Melioranskiy, Sergey Ivanov, Viktor Guzev, Dmitriy Nasilov kabi turkiyshunoslar, shuningdek, Ayyub G'ulomov, Hamid Ne'matov, G'anijon Zikrillaev, Odiljon Bozorov, Nizomiddin Mahmudov, Abduhamid Nurmonov, Baxtiyor Mengliev, Shohida Shahobiddinova, Muhabbat Qurbonova kabi o'zbek tilshunoslari tadqiqotlarida falsafiy adabiyotlarga havolalar juda ko'p uchraydi. Bunday havolalar mazkur tilshunoslarning lisoniy hodisalar haqida ilmiy tushuncha hosil qilish tamoyillari bilan (ya'ni til hodisalariga ilmiy-dialektik mantiq talablariga muvofiq ilmiy ta'rif berishga intilish bilan) maxsus shug'ullanganliklari natijasi. Shuning uchun falsafa bo'yicha oddiy darslikdan boshlab, dialektikaning eng chigal jumboqlarigacha bo'lgan chegaradagi falsafiy adabiyotlar ilmiy tadqiq metodologiyasiga (ya'ni monografiyaning shu bo'limiga) aloqador. Quyidagi ro'yxatda ulardan, asosan, umumlashtiruvchilari berildi, xolos. Quyida keltirilgan adabiyotlardagi ilmiy havolalar esa gnoseologiya (dialektika, dialektik

³Кедров Б.М. Единство диалектика, логики и теории познания. –М., 1963; Копнин П.В. Диалектика как логика и теория познания. –М.: Наука, 1973.

⁴Розенталь М.М. Принципы диалектической логики. –М., 1960; Диалектика и логика. Законы мышления. –М., 1962; Диалектика и логика. Формы мышления. –М.: Наука, 1962.

logika, ilmiy tadqiq metodologiyasi)ga bag'ishlangan ilmiy-falsafiy (metodologik) adabiyotlarning cheksiz ummoniga yo'l ochadi.

Metodologik (falsafiy) adabiyotlarni o'rganish jarayonida bir narsaga alohida e'tibor qaratmoq lozim. Bu yerda uni qisman takrorlashga to'g'ri keladi. 1920–1990- yillarda chiqarilgan ilmiy-falsafiy adabiyotlarning barchasi *ateistik-materialistik* nuqtayi nazarda turib yozilgan. Bunday ishlarga ham, *diniy* nuqtayi nazar asosida IX–XIX asrlarda yozilgan diniy-ilmiy adabiyotlarga ham, *ruhoni* (*idealistik*) nuqtayi nazardan talqin beruvchi XVIII–XX asr Yevropa falsafiy adabiyoti (F.Bekon, I.Kant, F.Gegel, Karnap va b. faylasuflar, Bopp, Shleyxer, Humboldt kabi tilshunoslar) asarlariga ham tanqidiy yondashish lozim.

Shunday fikrni diniy-islomiy falsafiy-badiiy (chunonchi, “Mantiqut-tayr”, “Lisonut-tayr” va b.) asarlar haqida ham aytib o'tmoq zarur: har bir muallif ma'lum bir nuqtayi nazarda turadi. Hozirgi zamon tadqiqotchisi turli xildagi talqinlarni bilishi zarur, lekin uning o'zi qanday nuqtayi nazarni ilgari suradi – bu uning ixtiyorida.

Mashhur o'zbek olimi, adabiyotshunos va shoir Shoislom Shomuhammedov Umar Xayyom ruboiylari nashri oxirida bergan o'z ruboysida shunday yozadi:

Xayyomdan o'qigil jahon bahsini,

Undan topajaksan zamon naqshini.

Aqling elagidan o'tkazib bir-bir

O'zing ajratib ol yomon-yaxshini.

Shunga o'xshash turli davrlarda, turli mafkuralar hukmronligi sharoitida yozilgan ilmiy tadqiqotlarni o'qish o'quvchidan zakovatni, asar yozilgan davr mafkurasiga nisbatan tanqidiy yondasha olishni talab qiladi. “Milliy istiqlol g'oyasi”, “Falsafa” o'quv fanlari⁵ va ularga tegishli adabiyotlar, shuningdek, ushbu monografiya shunday yondashish malakalarini hosil qilishga xizmat qiladi.

Lingvistik tadqiq metodlariga bag'ishlab yozilgan adabiyotlar soni ham juda ko'p. “Общее языкознание. Методы лингвистических исследований. Под редакцией Б.А.Серебренникова” (–M.: Наука, 1973) kitobi sizni bu ummonga boshlaydi. Shuningdek, o'z ichida 4338 nomda ilmiy adabiyot sharhini olgan “Общее языкознание. Библиографический указатель литературы. –M.: Наука, 1985” asari, 1849 nomdagi ilmiy adabiyot sharhini qamrab olgan “Библиографический указатель литературы по языкознанию изданий с 1918 по 1957 год. Выпуск I. Книги и сборники на русском языке. – M., 1958” asari, 2875 ilmiy adabiyot sharhini beradigan “Структурное и прикладное языкознание. Библиографический указатель литературы, изданной с 1918 по 1962 г. –M.: Наука, 1965” kitoblari sizni bu yo'nalishdagi ilmiy adabiyotlar bilan tanishtiradi. XX asrning 70- yillaridan

⁵Jumladan, muallif B.Mengliyevning “Ma'rifat” gazetasining 2004- yil 10- mart sonida e'lon qilingan “Falsafa nechanchi o'rinda turadi?” maqolasiga qarang.

keyingi ilmiy adabiyotlar va bu sohadagi eng so'nggi yangiliklarni siz INTERNET hamda INTERNET NEWSdan topasiz.

Ilmiy tadqiq jarayoni bo'yicha adabiyotlardan eng saralari buyuk allomalar Ibn Sino, Forobiy, Beruniy, Muhammad Xorazmiy, Ahmad Farg'oniy, Mirzo Ulug'bek Tarag'ay, Imom Ismoil Buxoriy, Mirzo Bobur, Jaloliddin Rumiy, Alisher Navoiy Navoiy, Mahmud Koshg'ariy, Isaak Nyuton, Galileo Galiley, Nikolay Kopernik, Albert Eynshteyn, Dmitriy Mendeleev, Immanuel Kant, Fridrix Gegel kabi yuzlab olimlar haqidagi ilmiy-badiiy asarlar⁶, shuningdek, olimlarning o'z ilmiy tadqiq, kashfiyotlar va faoliyatlari haqidagi⁷, tadqiqotchilarning ilmiy jarayon haqidagi asarlari⁸ ham bu monografiya mohiyatini va ilmiy tadqiq jarayonini uqishga katta foyda beradi. Shuning uchun quyida tavsiya etiladigan adabiyotlar ro'yxati, asosan, bo'lajak tadqiqotchini bunday ishga yo'naltiruvchi bir ko'rsatkichdir, xolos.

FOR AUTHOR USE ONLY

⁶Radiy Fishning "Jaloliddin Rumiy", K.Soldatzening "Ibn Sino", Oybekning "Navoiy", P.Qodirovning "Bobur", B.Kuznetsovning "Eynshteyn", B.Kedrovning "День великого открытия", A.Guliganing "Gegel", V.Asmusning "Иммануил Кант" biografik-badiiy asarlari.

⁷Qori Niyoziyning "Hayot maktabi"; Eynshteynning "Физика и реальность"; Galileyning "Беседы" asarlari.

⁸В.Библер. Мышление как творчество. –М.: Мысль, 1995; Э.Ильенков. Диалектика абстрактного и конкретного в "Капитале". –М.: Мысль, 1960.

Kirish

ILMIY TADQIQ JARAYONI

Ilmiy tadqiq jarayoni va uning tarkibiy qismlari. Ilmiy tadqiq jarayoni

Tayanch tushunchalar

metodika, metod, metodologiya, ilmiy tadqiq metodologiyasi, ilmiy tadqiq, tadqiq manbai, tadqiqotchi dunyoqarashi, tadqiqotchi mantiqi, metodologik adabiyotlar, bibliografik ko'rsatkich, tanqidiy yondashish, ilmiy tadqiq jarayoni

Avvalgi mavzuda ilmiy tadqiq metodikasi

- a) tadqiq metodologiyasi;
- b) tadqiq metodlari;
- d) tadqiq jarayoni

kabi qismlarni o'z ichiga olishi haqida so'z yuritilgan edi. Unda ta'kidlangan ediki, metodologiya va metodlar tadqiq jarayonidan oldingi bosqich. Aniqrog'i, tadqiqotchi tadqiq jarayonigacha metodologiya va metodlarni tanlagan bo'lishi lozim. Lekin mavzu bayoni birinchi bosqichdan emas, balki uchinchi bosqichdan boshlanmoqda. Buning bir necha sabablari bor.

Birinchidan, ilmiy tadqiq metodikasining obyekti ilmiy tadqiq va uning jarayoni. Shu bois tadqiq manbai – ilmiy tadqiq metodikasi fanining o'rganish obyekti bilan chuqurroq tanishish, uning tarkibiy qismlari haqida yetarli tasavvur hosil qilish lozim. Zeroki, metodologiya va metodlar haqida bahs yuritilganda, ilmiy tadqiqning zaruriy qismlari, tadqiq bosqichlari haqida so'z yuritishga to'g'ri keladi. Shuning uchun bu tushunchalarni (garchi takror bo'lsa-da,) yana bir bor esga olmoq zarur.

Ikkinchidan, ilmiy tadqiq, jumladan, lingvistik ilmiy tadqiq, voqelikdagi biror narsa-hodisa haqida uning bevosita kuzatishda berilgan, hissiy (fahmiy) asosda qabul qilinadigan xususiyliklarini (voqelanishlarini) kuzatish orqali narsa-hodisaning mavjudlik, yashash va rivojlanish qonuniyatlari haqida idrokiy usul bilan umumlashma hosil qilish jarayoni bo'lib, u ijtimoiy, sof insoniy, aqliy faoliyat. Shuning uchun ilmiy tadqiq, bir tomondan, obyektiv, ya'ni tadqiqotchidan tashqarida turgan, unga bog'liq bo'lmagan haqqoniy (real) borliq bilan, ikkinchi tomondan esa, shu borliqning shaxs (subyekt, tadqiqotchi) ongidagi in'ikosi bilan bog'liq bo'lgan subyektivlikka aloqador murakkab jarayon. Uning shaxs, subyektivlik bilan bog'liqligi juda qadimgi, sharqu g'arbda mashhur hikmatli iborada "hamma qaraydi, lekin hamma ham ko'rolmaydi" matalida o'z aksini topgan. Zero, "ko'ra olish" maxsus tayyorgarlikka ega bo'lgan, o'ziga xos tadqiq qurollari (metodologiya bilan) qurollangan,

ulardan foydalanish ko'nikmalariga ega bo'lgan shaxsga, mutaxassisga xos.

Ilmiy tadqiqning muhim tarkibiy qismlaridan biri **tadqiq manbai** (o'rganish obyekti) va **tadqiq predmeti**. Tadqiq manbai deganda ilmiy tadqiqning voqelikda mavjud bo'lgan, o'rganilishi kerak bo'lgan narsa-hodisa, ularning orasidagi munosabat – aloqalar, qonuniyatlarning xilma-xil ko'rinishlarda, shakl va turlarda yuzaga chiqishi tushuniladi. Ilmiy tadqiqot oldiga nimani tavsiflash, aniqlash, sharhlash, ochish maqsad qilib qo'yilgan bo'lsa, o'sha narsa tadqiq manbai. Tilshunoslik fanining tadqiq manbai inson tili, ya'ni fikrni shakllantirish va uni ifodalashning eng asosiy vositasi. Tilning tilshunoslik fanining asosiy tadqiq manbai ekanligi masalasi A.S.Chikobavanning “Проблема языка как предмета языкознания (На материале зарубежного языкознания) –М.: Учпедгиз, 1969. –179 стр.” o'quv qo'llanmasida butun murakkabligida qo'yilgan.

“Umumiy tilshunoslik” kursidan ma'lumki, til juda serqirra, ko'p aspektli ijtimoiy-ruhiy-fiziologik hodisa va jarayon. Bu qirralarning har biri **tadqiq predmeti**. Shuning uchun tilshunoslikning butun tarixi davomida tilning alohida-alohida qirralarini o'rganuvchi tilshunoslikning komparativistika, naturalizm, diaxronik (tarixiy) tilshunoslik, sinxronik (tavsifiy) tilshunoslik, strukturalizm, statistik lingvistika, psixolingvistika, sotsiolingvistika, areal lingvistika, lingvistik tipologiya, amaliy tilshunoslik kabi oqim (maktab, yo'nalish)lari, tilning turli sath birliklarini o'rganishga ixtisoslashgan fonetika, fonologiya, leksikologiya, leksikografiya, grammatika, morfemika, so'z yasalishi (derivatsiya), uslubiyat (stilistika), semantika va h. kabi bo'limlari yonma-yon yashab kelmoqda. Oqim – yo'nalishlar yaxlitlik sifatida olingan serqirra tilning ayrim-ayrim qirralarini chuqurroq o'rganishga xizmat qilsa, tilshunoslik bo'limlari tilning turli xildagi (katta-kichiklikdagi) birliklarini o'rganishga ixtisoslashgan. Tilshunoslikning barcha oqim va yo'nalishlari asosiy tadqiq manbai – til haqidagi bilimlarni (ayrim hollarda ayni bir narsa haqida bir yo'nalishning hukmi ikkinchi oqim xulosasini inkor etsa-da,) muttasil to'ldirib boradi. Shuning uchun lingvistik ilmiy tadqiqotlarda tadqiq manbai va tadqiq predmeti farqlanadi.

Demak, umumiylik sifatida olingan tilshunoslikning tadqiq manbai ijtimoiy aloqa-aralashuv (fikrni shakllantirish, ifodalash va uqish)ning eng asosiy vositasi bo'lmish til bo'lsa, bu fanning har bir oqimida tadqiq predmeti o'zgacha – shu tilning ayrim qirrasasi. Shu bois tilshunoslikning har bir bo'limining shu oqimlarga mos turlari (chunonchi, tarixiy fonetika, statik (tavsifiy) fonetika, psixolingvistik fonetika, tarixiy fonologiya, sinxronik fonologiya, tipologik fonetika va fonologiya va h. kabi yo'nalishlari) mavjud. Har bir turning tadqiq predmeti o'ziga xos bo'lib, ikkinchisidan farq qiladi, har bir tur o'ziga xos metodlardan foydalanadi. Shuning uchun tilning ma'lum bir birligini (hodisasini) o'rganishga kirishgan tadqiqotchi tadqiq manbai va tadqiq predmetini aniq farqlashi

lozim, tadqiq predmetiga mos ravishda tadqiq metodlarini tanlashi zarur. Chunonchi, fonologik-fonetik sathning bitta birligi bo'lgan [a] fonemasiga tilshunos turli tomondan yondashadi va buni jadvalda quyidagicha berish mumkin:

1- jadval

№	[a] fonemasida nimani o'rganadi (tadqiq predmeti)	Tilshunosli kning qaysi bo'limi, yo'nalishlarida o'rganiladi
1.	[a]ning akustik-artikulyatsion (hosil bo'lish o'рни va usuli, tovushning baland-pastligi, cho'ziq-qisqaligi, talaffuzining aniq-noaniqligi v. h.) xususiyatlari	Eksperimental fonetika
2.	[a] so'z tarkibidagi boshqa tovushlarga, so'zdagi boshqa tovushlarning unga ta'siri	Kombinator fonetika
3.	[a]ning kelib chiqishi va tarixiy rivojlanishi	Diaxronik fonetika
4.	[a] tilning hozirgi (yoki ma'lum bir) davrdagi ijtimoiy (ma'no farqlash) vazifasi	Sinxronik fonologiya
5.	[a]ning boshqa fonemalar bilan oppozitsiyalari va paradigmatic aloqalari	Struktural fonologiya
6.	[a]ning tabiatdagi tovushlar yoki narsalar bilan aloqalari	Naturalistik fonetika
7.	Ma'lum bir tildagi [a]ni qarindosh bo'lmagan boshqa tildagi [a] bilan qiyoslash	Tipologik fonetika (fonologiya)
8.	Bir tildagi [a]ni shu til bilan qarindosh bo'lgan boshqa tillar materiallari bilan qiyoslash	Qiyosiy fonetika
9.	[a]ning inson ruhiyatiga ta'siri, uni qabul qilish va hosil qilish xususiyatlari	Psixolingvistika
10.	[a]ning jamiyatga ta'siri, nutq jarayonida o'ziga xosliklari, ularning ijtimoiy ahamiyati	Sotsiolingvistik fonetika
11.	[a]ni turli yoshdagi jamiyat a'zolarining qabul va hosil qilish xususiyatlari	Fiziologik fonetika, fonologiya

O'z-o'zidan anglashiladiki, yuqorida sanab o'tilgan 11 qirra bilan tadqiq predmeti sifatida [a]ning barcha qirralari qamrab olinmaydi, chunki tadqiq manbai ham, tadqiq predmeti ham mohiyatan falsafada talqin etiladigan "narsa" tabiatiga ega. Falsafa esa "narsa"ning qirralari benihoya, o'zga narsalar bilan munosabat, bog'lanish va aloqalari

cheksiz ekanligi haqida ta'lim beradi. Shuning uchun tadqiq predmeti va manbai sifatida [a]ning qirralari ham cheksizdir va davr uning yangidan-yangi qirralarini ochib boraveradi, shu asosda fanda yangi-yangi yo'nalish, oqimlar shakllanaveradi.

Tadqiq manbai va tadqiq predmetining hajmi va ko'lami, tadqiq darajasi rang-barang bo'lishi mumkin. Boshqacha aytganda, **tadqiq manbai** va **tadqiq predmeti** tushunchalari nisbiy. Agar kelishik kategoriyasi tadqiq predmeti sifatida olinsa, tilning grammatik qurilishi tadqiq manbai. Bordi-yu, bosh kelishik tadqiq predmeti sifatida tanlansa, kelishik kategoriyasi tadqiq manbai maqomida bo'ladi. 1- jadvalda bitta lisoniy birlik bo'lgan [a] fonemasining turli tomoni har asosda o'rganilishi mumkinligi ko'rib o'tildi. Tadqiqotchi tadqiq manbai va predmeti sifatida bitta [a]ni emas, ma'lum bir tilning barcha unlilarini (yoki barcha fonemalarini), barcha fonetik vositalarini tanlashi ham mumkin. Shuning uchun eng kichik lisoniy birlik ham, yaxlitlikda olingan tilning ma'lum bir xususiyati ham yoki ma'lum bir hodisa (qonuniyat)ning tilning ma'lum bir sathida voqelanishi ham tadqiq manbai va predmeti bo'la oladi.

Tadqiq manbai va predmetining tanlanishi davrning taraqqiyot xususiyatlari, fanning shu davrdagi holati, tadqiqotchining tayyorgarlik darajasi (ilmiy saviyasi va metodologiyasi), ko'zlangan maqsad, davr, fan va texnikaning imkoniyatlari, tadqiq manbai va predmetining o'rganilganlik darajasi kabi juda ko'p omillar bilan bog'liq. Tadqiq manbai va predmetini to'g'ri tanlash va asoslash ilmiy tadqiqning ilk jiddiy yutug'i. Chunki tadqiq manbai va predmeti omili ilmiy tadqiqning ilk nuqtalari bo'lib, ikki nuqtadan faqat bitta to'g'ri chiziq o'tkazish mumkin – tadqiq manbai va predmeti to'g'ri tanlansa, ilmiy tadqiq ilk qadamdan boshlab to'g'ri yo'ldan boradi. Xususan, yosh tadqiqotchilar uchun tadqiq manbai va predmetini belgilashda ilmiy rahbarga katta mas'uliyat yuklanadi. Ilmiy rahbar tadqiq manbai va predmetini belgilab berar ekan, shogirdiga aniq yo'lni ko'rsatishi ham, uni cheksiz va tubsiz dengizga uloqtirishi ham mumkin. Shuning uchun tadqiqotchi ilmiy tadqiqqa kirishar ekan, tadqiq manbai va predmetini aniq belgilasa va ma'lum bir ilmiy faraz (gipoteza)ga ega bo'lsa, boradigan yo'li aniq, izlanishi maqsadli va, albatta, samarali bo'ladi. Tadqiq manbai va predmeti qancha keng bo'lsa, ilmiy tadqiq shuncha sayoz, yuzaki bo'ladi. Ular qat'iy va aniq chegaralangan bo'lsa, ilmiy tadqiq chuqur va mufassal bo'ladi. Tadqiq manbai va predmeti behad keng bo'lsa, tadqiqotchi fakt (hodisa)lar ummoniga cho'kadi va tadqiqotning asosiy maqsadi – hodisalar tartibsizligida qonuniyatni ochishdan chalg'iydi. Lekin tadqiq manbai va predmeti juda tor bo'lsa ham, ilmiy tadqiq maqsadiga erishmaydi, zero

tadqiqotchi uchun qonuniyatlarni ochishda hodisa (fakt)lar taqchilligi yuzaga keladi.⁹

Tadqiq manbai va predmetining tanlanishi fanning taraqqiyot holati va tadqiqotchi maqsadi bilan belgilanadi. Tadqiqotchi maqsadi ko'p hollarda tilshunoslik fani uchun tashqi omil bo'lgan ijtimoiy zarurat, ehtiyoj¹⁰ bilan belgilansa, fanning taraqqiyot holati tadqiq manbaini qaysi jihatdan va qanday daraja va qamrovda tadqiq qilishni belgilaydi. Fanning (yoki uning yangi tarmoq va yo'nalishlarining) ilk taraqqiyot bosqichlarida tadqiq manbai, odatda, keng, katta va juda ko'p hollarda sof tavsifiy bo'ladi. (Chunonchi, "Tilning fonemalari tavsifi", "Shevaning leksik va fonetik xususiyatlari", "Yodgorliklarining morfologik xususiyatlari" va h). Bunda til birliklarining yaqqol, ko'zga tashlanadigan, yorqin hodisalari fahmiy (hissiy) bilim hosil qilish metodologiyasi asosida tavsiflanadi. Fan taraqqiy etgan sari tadqiq manbai torayib boradi, fan xususiyliklarning juz'iy, aniqlanishi va tavsiflanishi ancha murakkab bo'lgan xususiyatlari tavsifiga, qayd etilgan hodisalarni tartibga solish va sistemalashtirishga o'tadi.

Tadqiq manbai (ya'ni tilning) alohida birliklari tavsifi nihoyasiga yetar-yetmas, fanda tadqiq manbai birliklariaro munosabatlar, aloqadorliklar tadqiqiga qadam qo'yiladi. Bu bosqichda tadqiq manbai va predmeti sifatida oldingi bosqichda tavsiflangan birliklarning zohiriy xususiyatlari asosida ularning o'zaro munosabatlarini, aloqadorliklarini ochish va tavsiflash chiqadi. Ya'ni idrokiy tahlil asosida hodisalar sistemasi, qat'iy qonuniyatlari ochiladi va tavsiflanadi. Bu bosqichda juda ko'p hollarda ma'lum turdagi qonuniyatlar (munosabatlar)ning tadqiq manbaining u yoki bu bo'g'ini birliklarida voqelnishi, yuzaga chiqishi o'rganish va tavsiflash manbai bo'lib keladi. ("Tilda iqtisod (tejamkorlik) tamoyilining voqelanishi", "Fonologik sath birliklarining nutqiy voqelanishida oppozitsiyalarning mo'tadillashuvi", "Tilda privativlik", "Grammatik kategoriyalar tasnifi" va h).

Tadqiq manbaiga turlicha yondashish mumkinligi bois fanda ayni bir tadqiq manbai turli jihatlardan va turli mufassallikda qayta-qayta o'rganilishi lozim va bu **tadqiq mavzusida** o'z aksini topishi zarur.

Ilmiy tadqiq mavzusi (odatda, ilmiy ishning sarlavhasi) tadqiq manbaiga va tadqiq predmetiga ishorani o'z ichiga oladi.

Ilmiy tadqiq mavzusi, odatda, ilmiy tadqiqotning sarlavhasi. Tadqiq jarayonida u juda muhim ahamiyatga ega. Tadqiqotchilar orasida "sarlavha ish muvaffaqiyatining yarmi" degan hikmatli so'zning tarqalganligi bejiz emas. Akademik shoir G'afur G'ulomning iste'dodi, chuqur falsafiy mushohadasi va tafakkuri mahsuli bo'lgan "Vaqt"

⁹Bunday holatda tilshunos boshqa fan tadqiqotchilaridan ancha qulay holatdadir. Chunki til qonuniyatlari (agar tilshunos shu tilda erkin so'zlasha va fikrlay olsa) uning ongida mujassamlashgan bo'ladi va u o'z tilining bilim va ko'nikmalaridan foydalana oladi.

¹⁰Fan shunoslikda bu *ijtimoiy buyurtma* deb ataladi.

she'ring dunyoga kelishi bilan bog'liq qiziq bir hodisa va adibning so'zlari sarlavha ijodiy ishda qanchalik muhim ekanligini ko'rsatadi.

O'zbekiston Qahramoni Said Ahmad shunday eslaydi. U "Qizil O'zbekiston" gazetasi redaktori topshirig'i bilan G'afur G'ulomdan bir she'r undirish ilinjida tayinlangan vaqtda uning uyiga boradi. Biroq "domla o'sha kuni meni kechgacha ovora qildilar. Fe'llarini bilganimdan xalaqit bermadim. Kech bo'ldi. Qorong'i tushdi. Domlaning she'r yozib berish niyati yo'qqa o'xshardi.

– Menga qara, ke, shu ishni ertaga qoldiraylik.

Men ko'nmadim. Ertaga ertalab she'rsiz redaksiyaga borsam, redaktor xafa qilishini aytdim.

– Azonda yozamiz. Bo'ptimi? G'afur G'ulomning gapi bitta bo'ladi. Tamom. Yaxshi she'r yozaman, degan shoir kechqurun palov yeb yotishi kerak. Hozir ikkovimiz osh qilamiz.

Ko'nmay ilojim yo'q edi. Oshdan keyin to yarim kechagacha Bedil o'qib ma'nosini tushuntirib berar, afandi aytib kulardi. Bilib turibman, domla she'r yozish oldidan ruhini yengillatmoqchi, o'ziga yaxshi kayfiyat yaratmoqchi. Yotish oldidan bilagidagi soatni yechib, ko'zoynak taqib qaradi.

– Bo'ldi, – dedi domla, qayta o'rnidan turib, – she'r tayyor. Komil Aliev shunday degan edi: "Sarlavhasi bilan tagiga yoziladigan o'z noming naqd bo'lsa, asaring bitdi deyaver." She'rning nomi bilan tagiga G'afur G'ulom so'zini bitdi.

U kishiga savol bilan qaradim.

– Jiyanim Hamidulla o'tgan kuni shu soatni sovg'a qilgan edi. Shu soatga bag'ishlab she'r yozaman.

Boshqatdan kiyinib o'tirib oldik. Men pastga tushib choy damlab chiqdim. Stolga choynakni qo'ya turib qarasam, she'rning ikki satri yozilib qolibdi:

G'uncha ochilguncha o'tgan fursatni

Kapalak umriga qiyos etgulik.

Xayolini buzmaslik uchun choy quyib, stol qirg'og'iga qo'ydim. Qarab turibman, G'afur aka o'ylayapti. Ko'zi goh shiftga tikilar, goh qoshlari chimirilib xuddi urishmoqchi bo'lgandek, menga yomon qarab qolardi. Bilaman, bunaqa paytda G'afur aka qaragani bilan meni ko'rmaydi. Xayolida yaratayotgan narsanigina ko'radi. Ruchkani siyohdonga zarda bilan botirdi-yu yoza ketdi:

Gohida bir muddat olgulik nafas...

Bu satrni shoshib o'chirdi-yu, boshqatdan yozdi:

Ba'zida bir nafas olgulik muddat.

*Ming yulduz so'nishi uchun etgulik..."*¹¹

¹¹Аҳмад Саид. Йўқотганларим ва топганларим. –Т.: Шарқ, 1998. –Б. 56; Умутов Х, "Вақт" нинг туғилиш жараёни // Фафур Фулом ва давримиз. –Қарши: Насаф, 2003. – Б.117–121.

Bu xotirada olim-adibning: “sarlavhasi. . . naqd bo’lsa, asaring bitdi, deyaver”, degan fikriga alohida e’tibor bermoq zarur.

Ilmiy-ijodiy ishda ham tadqiq manbai va predmeti aniqlanib, tadqiqot, uning asosiy bosqich va hatto, xulosalari olim miyasida pishib yetilgach, ilmiy ishga sarlavha tanlanadi. Sarlavha ishda nima va qanday o’rganilayotgani haqida aniq ma’lumot berishi lozim. Shu nuqtayi nazardan bir necha ilmiy ish sarlavhasini ko’rib o’tamiz.

I guruh:

- a) O’zbek jadid dramalarining lisoniy xususiyatlari;
- b) O’zbek xalq topishmoqlarining leksik-semantik xususiyatlari;
- d) O’zbek tili harbiy terminologiyasining sinxronik tadqiqi.

II guruh:

a) O’zbek tilida “hayvon” arxisemali leksemalar maydonining mazmuniy tahlili;

b) O’zbek tilida privativlik (nofonologik sathlar);

d) Mazmuniy subyekt va uning o’zbek tili sintaksisida ifodalanishi.

Sarlavhalaridan ko’rinib turibdiki, bu ilmiy tadqiqotlarning barchasida bosh tadqiq manbai “o’zbek tili”. Sarlavhalardagi dastlabki so’z yoki birikmalar – “*jadid dramalari*” (1.a), “*xalq topishmoqlari*” (1.b), “*harbiy terminologiya*” (1.d), “*hayvon arxisemali leksemalar*” (2.a), “*nofonologik sathlar*” (2.b), “*sintaksisi*” (2.d) kabi izohlar umumiy tadqiq manbaining alohida birliklarini ifodalab, uni toraytiradi, muayyanlashtiradi, ular muayyanlashgan tadqiq manbalarini ifodalaydi. Ulardagi “*lisoniy xususiyatlar*”, “*leksik-semantik xususiyatlar*”, “*sinxronik tadqiq*”, “*mazmuniy tahlil*”, “*privativlik*”, “*mazmuniy subyekt*” tadqiq predmeti ifodalovchilari.

I guruh sarlavhalaridan ko’rinib turibdiki, ular tildagi bir narsani (tilning ma’lum bir bo’lakchasini) tavsiflashga bag’ishlangan. II guruh mavzulari esa til tizimida (yoki uning ma’lum bir bo’g’inida) biror hodisa – qonuniyatning voqelanishi tavsifiga bag’ishlangan.

Sarlavha qisqa, ixcham va sermazmun va mantiqli bo’lishi lozim. Bunday qisqalik va aniqlik Oliy Attestatsiya Komissiyasi Hay’atining 96-5 raqami ostida 2003- yilning 17- iyulida qabul qilgan “Dissertatsiya va avtoreferatlarga qo’yiladigan talablar”¹²iga mos. Chunki sarlavha qanchalik qisqa, aniq va sermazmun bo’lsa, ilmiy tadqiqotning shunchalik uqilgan va yetilganligiga ishora qilib turadi. Aksincha, uzundan-uzoq sarlavha noqulay va ishning noaniqligidan dalolat beradi. Sarlavhada ortiqcha so’zlar bo’lmasligi kerak. Masalan, “*O’zbek tili mashg’ulotlarida bolalarni savol-javobga o’rgatishning nazariy-metodik asoslari (ta’lim-tarbiya rus tilida olib boriladigan bolalar bog’chalar misolida)*”. Bu nomzodlik dissertatsiyasining mavzusi 19 so’z bilan ifodalangan. Vaholanki, shu mazmunni “*Rusiyabon bog’chalarda bolalarni o’zbek tilida savol-javobga o’rgatish*” sifatida atigi 8 so’z bilan berish mumkin.

¹²Нормативные материалы по оформлению диссертации и автореферата. –Т., 2003. –28 стр.

Mavzuning mantiqiyliги ham muhim ahamiyat kasb etadi. Masalan, rel'yefonimlarni tadqiq qilishga kirishgan tadqiqotchining mavzuni “Yer sathi ko'rinishlarini ifodalovchi leksemalar” ko'rinishida olishida mantiqiy xatolik mavjud. Chunki yer sathi ko'rinishlarini ifodalovchi otlar sirasiga yo'l va uning turlarini ifodalovchi otlar ham kiradi. Holbuki, yo'l rel'yefga kirmaydi. Demak, mavzuni “O'zbek tilida rel'yefonimlar” tarzida olish maqsadga muvofiq. Yoki “Dehqonobod tumani mikrotoponimikasi” mavzusida ham mantiqiy g'alizlik mavjud. Chunki toponimika fan yo'nalishlaridan biridir va mazkur tumanda bu fan alohida ko'rinishda mavjud emas. U “Dehqonobod tumani mikrotoponimiyasi” shaklida bo'lishi lozim.

Mavzuning ixcham va aniqligi uning to'liq uqilganligi nishonasi. Zero, ilm olamida “uqilganni ifodalash oson” degan hikmatli so'z bor. Shuning uchun har bir ilmiy tadqiqot mavzusi ilmiy jamoatchilik orasida (dastlab, tadqiqotchi va uning ilmiy rahbari orasida, so'ngra kafedra, laboratoriya yig'ilishlarida, muassasa ilmiy kengashlarida, dissertatsiya mavzulari esa yana mintaqa va Respublika muvofiqlashtiruvchi kengashlarida) muhokama etilib, ma'qullanishi talab etiladi. O'zR OAK nomzodlik va doktorlik dissertatsiyasi mavzularini “OAK Byulleten”ida e'lon qilib, keng jamoatchilikka havola etishni ham talab qiladi.

Tadqiqot mavzusi, manbai va predmetini to'g'ri belgilash ularning fanda o'rganilish tarixini chuqur bilishni talab etadi. **O'rganilish tarixi** deganda tanlangan mavzu, ya'ni tadqiq manbai fanda kimlar tomonidan qay darajada o'rganilganligi tushuniladi. Tadqiqotchi mavzuning o'rganilish tarixini, ya'ni undan oldin shu masala bo'yicha kimlar nimalar qilganligi, qanday yutuqlarni qo'lga kiritganligi va qaysi muammolarni o'rta qo'yganliklarini tug'al bilmog'i lozim. Busiz tadqiqotchi ilmiy tadqiq ishiga kirishishi, hatto sarlavha belgilashi va asoslashi mumkin emas. Mavzuning o'rganilish tarixi bilan tanishishni shu masalaning o'rta ta'limning turli bosqich va bo'g'in darsliklarida yoritilishi bilan qaytadan tanishishdan boshlab, keyingina oliy ta'lim tizimi darslik va qo'llanmalariga, so'ngra bu qo'llanmalarda shu masalaga oid ko'rsatilgan zaruriy va qo'shimcha ilmiy-tadqiqiy adabiyotlar bilan tanishishga o'tishi zarur. O'rganayotgan (mutolaa qilinayotgan) ilmiy-tadqiqiy asarlardagi ilmiy havolalar tadqiqotchiga yangi-yangi tadqiqotlarni topish va o'rganish uchun yo'llanma.

Mavzuning o'rganilish tarixini bilish uchun har bir fan (jumladan, tilshunoslik va uning bo'limlari) bo'yicha bibliografik ko'rsatkichlar, kutubxonalar va INTERNET tizimida esa sistematik (mavzuviy) katalogdan unumli foydalana olish katta ahamiyatga ega. Sistematik katalogda ilmiy adabiyotlar tadqiq manbai, predmeti va mavzulariga ko'ra “*umumiylikdan xususiylikka*” tamoyili asosida muayyanlashtirib boriladi.

Masalan, “Tilshunoslik” bo’yicha sistematik katalog quyidagi bo’lim va bo’limchalarni o’z ichiga oladi¹³:

Tilshunoslik tarixi
Tilshunoslikning umumiy masalalari
Tilning tadqiq metodlari
Til va jamiyat
Til va tafakkur
Til va nutq
Til tarixi
Til sathlari
Fonetika
Leksikologiya
Leksikografiya
O’quv lug’atlari
Izohli lug’atlar
Soha lug’atlari
Ikki tilli lug’atlar
Ko’p tilli lug’atlar
Grammatika
Umumiy masalalar
Grammatik ta’limotlar
Grammatik ma’no
Grammatik kategoriyalar
Grammatika va leksika
Grammatika va fonetika
Morfologiya
Umumiy masalalar
Morfologiya va sintaksis
Morfologik kategoriyalar
So’z turkumlari
Umumiy masalalar
So’z turkumlari tasnifi tarixi
Ot. . .

Shu tarzda INTERNET, kutubxona, bibliografiya, sistematik katalogda adabiyotlar tadqiq manbai, predmeti, tadqiq metodi va mavzusi, muallifi bo’yicha joylashtirib boriladi.

Kutubxonalarda sistematik katalog УДК (унифицированная десятичная классификация) asosida tuziladi.

Elektron kutubxonalarda ham, INTERNET va INTERNET NEWSda ham adabiyotlar asosan mavzuviy asosda – sistematik katalog tarzida joylashtiriladi.

¹³Bu bo’limlar ham xazinadagi axborot soni va turlarning mavjudligiga ko’ra, 10–30 va, hatto, undan ko’p bo’limchalarga, INTERNET saytlari esa papka va fayllarga bo’linishi mumkin.

Izlanuvchi mavzuning tadqiq tarixini mufassal o'rgansa, o'z tadqiqotini to'g'ri va davr bilan uyg'un ravishda amalga oshirishga, ishining jahon fani, jamiyat ehtiyojlari bilan bog'liqligini (dolzarbligini) ta'minlashga va ilmiy farazini to'g'ri belgilashga muvaffaq bo'ladi.

Aytib o'tilganidek, tadqiq manbai, predmeti va **ilmiy farazi** ilmiy tadqiq yo'nalishini belgilovchi tayanch nuqta, mayoq, yo'lchi yulduz.

Ilmiy tadqiqning **farazi** mavzuning o'rganilish tarixidan kelib chiqadi, zero, har bir tadqiqotchi o'z tadqiq manbai xususiyatini o'rganar ekan, uning yangi-yangi aloqa va munosabatlarini, tomon va qirralarini ochadi, yangi bog'lanishlarni, muammolarni kashf etadi, lekin ularning barchasini ilmiy ishida mufassal ko'rib o'tolmaydi, ammo bu yangi qirra va aloqadorliklar haqida yo'l-yo'lakay fikrlar, farazlar va taxminlar bildirib o'tadi. Mana shunday tadqiqotlar tadqiq manbaini yangi bosqichda o'rganish uchun mayoq – ilmiy faraz bo'lib xizmat qiladi. Har bir jiddiy va tom ma'noda ilmiy izlanish fan oldiga yangi-yangi muammolarni, maxsus o'rganilishi zarur masalalarni qo'yadi, tadqiq manbaini yangi bosqichda tahlil va tavsif etishga zamin hozirlaydi. Haqiqiy olimning o'ta kamtarin, biror hukm-xulosa chiqarishda juda ehtiyokor bo'lishining asosiy sababi ham shunda: u har bir masalada bilganidan bilmagan tomonlari ko'proq ekanligini tushunadi.¹⁴ Ilmiy faraz tadqiqotchi tomonidan ehtiyotkorlik bilan asosli ravishda shakllantirilishi va bayon etilishi, atroflicha tekshirilib navbatdagi bosqich tadqiqotlari uchun mayoq qilib olinishi zarur.

Oldingi bosqich tadqiqotlarida ilgari surilgan ilmiy faraz navbatdagi tadqiqotlar natijasida to'liq isbotlanishi (ya'ni farazdan qonuniyat darajasiga ko'tarilishi), qisman tasdiqlanishi va, albatta, to'ldirishi, aniqlanishi ham, to'liq yoki qisman inkor etilib, yangi faraz muhokamaga chiqarilishi ham mumkin. Ilmiy tadqiqotda salbiy xulosa ham ijobiy hukm singari bir xil qimmatga ega, chunki u bo'lg'usi tadqiqotchilarni chalg'ishdan saqlaydi. Bir jonli misol: o'zbek tili o'qitish metodikasining ulkan tadqiqotchilaridan biri prof. Askar G'ulomov 1975-yildan boshlab "*Ona tilini o'qitilish jarayonida o'quvchilarning o'quv-biluv faoliyatini oshirish*" mavzusida katta izlanishga kirishdi. Olim nomzodlik dissertatsiyasi xulosasidayoq buning asosiy omili o'quvchining mustaqil izlanishida, mustaqil va ijodiy fikrlay olish ko'nikmalarida ekanligiga ishonch hosil qilgan edi. A.G'ulomov 1976–79- yillarda shu yo'nalishdagi aniqlov-tajriba ishlarini olib bordi. U ko'p vaqtini maktablarda, keyin bir

¹⁴Omiy va johil uchun esa hamma narsa ayon, chunki u hech narsani bilmaydi, jumladan, o'zining bilmasligini ham. Tiliga ixtiyorsizligidan xayoliga kelgan bo'lg'ur-bo'lmag'ur fikrlarni hayiqmay bayon qilaveradi va el orasida e'tiborini yo'qotadi. Tasavvuf axloqi omiy va johilga to'g'ri gapni uqtirishga intilishni ham johillik alomati deb biladi va hamisha "Suxan ba ahli suxan boyad guft" (So'zni aytgil uqqanga) amali asosida ish ko'rishni tavsiya etadi. Shuning uchun hatto Mansur Xalloyning o'ldirilishini buyuk oriflar jumladan, Xoja Abdullo Ansoriy Hiraviy) qattiq qoralamaganlar, zero u "anahaq" (Men Haqman) shiorini Haq va Inson birligini tushungan oriflar davrasidagina emas, shariat ahkomlari, shariat talqinidagi Alloh (Xudo)ga imon keltirgan, ma'rifiy Haqqi mutlaqdan mutlaqo bexabar omiy va johil dindorlar orasida ham targ'ib etavergan so'zni uqolmaydiganlarga aytgan. Shu bois shariat yuzasidan to'g'ri jazolangan, zero shariat uqishni emas, uning ahkomlariga ko'r-ko'rona bo'ysunishni talab etadi.

necha yil Toshkent, Moskva, Sankt-Petrburg kutubxonalari, arxivlarida o'tkazdi. 80- yillarda olim afsus va nadomat bilan salbiy xulosaga keldi: mavjud ta'lim maqsadi, mazmuni va usuli o'quvchida o'quv-biluv faoliyatini oshirishga, unda ijodiylikni rivojlantirishga monelik qiladi va, aksincha, bolada bo'lgan tug'ma ijodiylik kurtaklarini so'ndiradi. O'quvchi ta'lim jarayonining obyekti bo'lar ekan, unda mustaqil taraqqiyot bo'lishi mumkin emas. Sovet ta'lim tizimida esa o'quvchiga shunday yondashilardi. Boshqacha bo'lishi mumkin emasdi ham: u tuzumga, kommunistik mafkuraga faqat labbaygo'ylar, buyruqni ko'r-ko'rona bajaradigan ijrochilar kerak edi. Askar G'ulomov arosatda qoldi: ona tilining sho'roviy ta'lim maqsadi, mazmuni va usuli yangilanmas ekan, o'quvchida mustaqil fikrlash va ijodiylikni rivojlantirib bo'lmaydi, mazkur tizimni yangilashga intilish esa mavjud tuzumga qarshi chiqish bilan tenglashtirilardi.¹⁵

1975–84- yillardagi izlanishlardan salbiy xulosa chiqargan A.G'ulomov 1985–90- yillarda ona tilidan ta'lim maqsadi, usuli va mazmuning yangilangan ko'rinishida pedagogik tajriba-sinov ishlarini yo'lga qo'ydi va katta muvaffaqiyatlarni qo'lga kiritdi.

Olamshumul kashfiyotlarni amalga oshirgan fiziklar Galileo Galiley, Plank, Nils Bor, Albert Eynshteynlar, sayohatchilar Fernando Magellan, Xristofor Kolumb va b. kashfiyotlariga o'z davrlarida mutlaq haqiqat deb tan olingan tushunchalarni rad etuvchi farazlar asosida erishdilar, oldingi davr farazlarining ilmiy haqiqat ekanligini isbotladilar.

Mavzuning o'rganilish tarixi bilan chuqur tanishib, tadqiq manbai, predmeti va farazlari mohiyatini tushunib, ularni asoslagan tadqiqotchi ma'lum **metodologik tamoyillar** va zarur **tadqiq metodlari** bilan qurollangan holda tadqiqotga kirishadi. Bu ilmiy tadqiqotning **metodologik asoslari** hamda tadqiq **jarayonida qo'llanilgan metodlar** deb aytiladi va tadqiqotning muhim tarkibiy qismigina emas, balki tadqiq jarayonini amalga oshirishning faktik materialdan keyin eng asosiy zaruriy sharti. Umuman tadqiqot ilmiy ilmiy g'ining o'zi uning aniq, uqilgan, izchillik bilan tatbiq etilgan metodologik asoslar va tahlil-u tavsif jarayonida qo'llanilgan tadqiq metodlari bilan belgilanadi. Aytilganidek, bu masalalar haqida monografiyaning ikkinchi va uchinchi bo'limlari bag'ishlanadi.

Ilmiy tadqiqning muhim bosqich va qismlaridan yana biri **faktik material yig'ish** va tajriba-sinov (eksperiment) ishlari o'tkazish.

Faktik material deganda tadqiqotchidan tashqarida turgan (unga bog'liq bo'lmagan) mavjudlik sifatida berilgan borliq (voqelik), narsa-hodisa, aloqa-munosabat, qonuniyatlar tushuniladi. Har bir fan uchun faktik material o'ziga xos. Chununchi suv kabi bir narsa (modda)ning tuproq, yer va o'simlikka ta'siri biologiya va qishloq xo'jaligi uchun faktik material bo'lsa, uning qancha darajada qaynashi yoki qotishi fizik uchun,

¹⁵Тилшунослик ва методика масалалари. –Ташкент, – Бухоро, 2002. –Б.3–4.

qanday moddalar bilan aralasha olishi, reaksiyaga kirishishi yoki kirmasligi kimyogar uchun faktik material. *Suv* so'zining xilma-xil ma'nolarni ifodalab kela olishi esa tilshunos uchun faktik material.

Demak, tilshunos uchun faktik material fikrni shakllantirish, uni ifodalash, turli shakllarda saqlab qolish va bировga yetkazish, o'zgalarni tushunishga imkon beruvchi eng asosiy aloqa va ifoda vositasi – tilning voqelanishi va ichki qurilish xususiyatlari, hodisalari. Ular, asosan, ikki xil.

Birinchisi bevosita kuzatishda berilgan his (fahm) bilan ilg'ab olishi, tasvirlanishi mumkin bo'lgan falsafiy **alohidalik** (yakkalik, xususiylik), **hodisa, voqea, oqibat**¹⁶ (AHVO) tabiatli nutq va uning xilma-xil shakl, birlik va ko'rinishlari bo'lsa, *ikkinchisi* til birliklari orasidagi bevosita kuzatishda berilmagan, idrokiy tahlil usuli bilan ochiladigan va tavsiflanadigan falsafiy **umumiylik, mohiyat, imkoniyat, sabab** (UMIS) tabiatli aloqalar, bog'lanishlar, o'xshashlik va farqlar, ziddiyatlar va h. kabi umumiylik va qonuniyatlar. Turli tillar orasidagi o'xshashlik va farqlar ham ikkinchi turdagi faktik material tabiatiga ega.

Faktik material ilmiy tadqiq jarayonida kamida uch marta yig'iladi:

Ilk bosqichda faktik material, odatda, mavzuning o'rganilish tarixi bilan tanishish jarayonida ilmiy-tadqiqiy adabiyotlardan yig'iladi va bo'lajak ilmiy tadqiqning manbai va predmetini, metodologik asoslarini belgilashda zamin vazifasini o'taydi.

Ikkinchi marta mavzu rasmiylashtirilgach, uning o'rganilish tarixi bilan atroflicha tanishilgandan keyin bo'lajak ilmiy tadqiqotning moddiy, ashyoviy asosi, qurilish materiali sifatida juda katta miqdorda yig'iladi.

Tilshunoslik bo'yicha ilmiy tadqiqotlarda bu bosqich o'rganilayotgan til hodisasining qo'llanilish holatlarini (shevashunos bo'lsa, sheva xususiyatlarini, grammatist bo'lsa, grammatik shakllarning, leksikolog bo'lsa, o'z tadqiq manbaiga oid so'zlarning, uslubshunos bo'lsa, u yoki bu til birliklarining ma'lum bir maqsadlarni ko'zlab qo'llanilishlarini, biror yozma yodgorlikning lisoniy xususiyatlari tadqiqotchisi bo'lsa, shu yodgorlik yoki asarning til xususiyatlarini va h.) qayd etib, kartochkalarga ko'chirish, har bir kartochkada hodisa to'g'risida o'z qaydlarini, hodisa olingan manbani aniq (kerak bo'lganda osongina topa oladigan shaklda) ko'rsatib berishdan iborat. Bunday izlanish – o'rganilayotgan birlik voqelanishini qayd qilish va yig'ib borish yangi voqelanishlar topish mumkin bo'lmagan, topilgan hodisalar oldin qayd etilganlarning faqat takroridan iborat bo'lguncha davom ettiriladi. Yig'ilgan material minglab kartochkalarni tashkil etishi mumkin. Shundan keyingina tadqiqotchi yig'gan faktik materialini sistemalashtirish, tartibga solish ustida ishlaydi. Bunda u kartochkalarni ularda qayd etilgan hodisalarning o'zaro

¹⁶Bularning to'rtalasini qisqartirib AHVO deb ataymiz va bundan, shuningdek, bu tushunchalarning dialektik yondoshi bo'lgan umumiylik, mohiyat, imkoniyat, sabab tushunchalarini birgalikda ifodalovchi UMIS qisqartmasidan kelgusi mavzularda keng foydalaniladi. Agar bu falsafiy kategoriyalarning mohiyati ravshan, uqilgan bo'lmasa, matnini o'qishni to'xtatish va vaqtini behuda sarflamaslik lozim – mazkur falsafiy kategoriyalar mohiyatini uqmaguncha, bu mavzulardan biror narsa olish mumkin emas.

o'xshash va farqliligiga ko'ra guruhlaydi, ularning sistematik katalogga o'xshash kataloglarini tuzadi. Bunda tabiiyki, bir-biriga yaqin hodisalar birin-ketin keladi, bir-biriga yaqin joylashgan guruhlarda o'zaro farq, asosan, miqdoriy, juz'iy bo'lsa, bir-biridan ancha uzoq turgan guruhlar orasida farq sifatiy bo'ladi. Sistemalashtirilgan material katalogi tadqiq manbaining tadqiqotchi topgan, qayd qilgan hodisalarining (voqelanishlarining) ilk t a s n i f i. Bu amaliyotning mukammalligi ilmiy tadqiqotning muvaffaqiyatli yakunlanishi garovi.

Yig'ilgan faktik material mana shunday sistemalashtirilgandan keyin tadqiqotchi bu hodisalarni tavsiflash va sharhlash bosqichiga ko'tarilishi mumkin.

Tabiiy fanlar, didaktika bo'yicha ilmiy tadqiqlarda faktik materialni yig'ish filologiya fanidan ancha farq qiladi. Zeroki, bu fanlar bo'yicha faktik material tajriba-sinov (eksperiment) ishlari asosida yig'iladi. Tadqiqotchi ilmiy farazlari asoslarida har xil tajribalarni amalga oshiradi va natijalarini kartochkalarda (yoki maxsus eksperiment natijalari daftarlarida) mufassal qayd etib boradi. Eksperiment so'ngida ular sistemalashtiriladi.

Sistemalashtirish yakunlangach, agar tadqiqot hodisalar (bilimlar) tavsifini o'z oldiga maqsad qilib qo'ygan bo'lsa, sistemalashtirilgan faktik material batafsil tavsiflanadi.

Tavsiflash jarayonida hodisaning ayrim voqelanish turlariga material yetarli emasligi, hodisalar voqelanish zanjirida uzilish sezilishi mumkin. Bunday hollarda *uchinchi marta* endi – maqsadli ravishda faktik material yig'iladi. Natijada tilning biror bo'g'ini birliklarning (tabiiy fanlarda ma'lum turdagi eksperimentlarning va ularning natijalarining) mufassal tavsifini beruvchi tavsifiy tadqiqot yuzaga keladi. Fan uchun bunday ishlar qanday ahamiyat va qimmatga ega ekanligi haqida metodologiyaga bag'ishlangan bo'limda fikr yuritiladi.

Fanda sistemalashtirish bosqichi bosib o'tilgan bo'lsa, tadqiqotchi oldida sistemalashtirilgan faktik hodisalarda sistemani, ya'ni xususiyliklarda umumiylikni, hodisa (oqibat)larda sababni ochish vazifasi turadi. Bunda tadqiqotchi o'zining tadqiq metodologiyasi tamoyillariga mos ravishda materialdan qisman uziladi va AHVOlda UMISni ochish, idrokiy bilim hosil qilish qonuniyatlaridan ongillik bilan foydalanib, hodisa element (tarkibiy qism) sifatida qaysi butunlik (sistema) tarkibida qanday mavqe egallashi hamda shu hodisa butunlik (sistema) sifatida qanday tarkibiy qismlardan (elementlardan) iborat ekanligi, bu butun-bo'laklik (aniqrog'i, UMIS ~ AHVolik) tabiati nimadan iborat ekanligi haqida nazariy xulosalar chiqaradi. Bu jarayonda ham faktik materialga qayta – uchinchi marta murojaat etiladi. UMIS sifatida ochilgan qonuniyatlar AHVOlda voqelanishi, ular bilan tasdiqlanishi zarur. Zeroki, dialektikada, I.Kant qayta-qayta ta'kidlaganidek, haqiqat o'lchovi

amaliyot.¹⁷ Islomiy falsafada (tasavvuf)da ham amalga (ilmiy xulosani amaliyotga tatbiqiga) juda katta ahamiyat berilib, amaliyotga tatbiq etilmagan ilm ar. **Alimun bila amalin nasabuhu bila matarin** (*Amalsiz olim yomgirsiz bulutdek*) deb baholanadi. Shayx Sa'diy esa: "*Amalsiz olimdan ustiga kitob ortilgan eshak afzal*", – deb aytganlar. Har qanday murakkablikdagi ilmiy xulosa va hukmlar, lisoniy umumlashma va qonuniyatlar, avvalo, nutqiy voqelikka (AHVOLarga) tayanishi va ular bilan tasdiqlanishi zarur.

Faktik materiallarga uchinchi marta murojaat etish nazariy ishlarda sof tavsifiy ishlardan ko'ra zarurroqdir, chunki tavsifiy ishlarda yuzada turgan, ko'zga tez va oson tashlanadigan hodisalar o'z aksini topadi. Nazariy umumlashma esa tadqiq manbaining rang-barang ichki aloqadorliklarini ochadi. Ular esa voqelanishda o'ziga xos xususiyatlarga ega – ularni maxsus izlash va topish talab etiladi.¹⁸

Ilmiy tadqiqotda tadqiq manbai tavsifi (xoh idrokiy, xoh fahmiy) yakunlangach, ilmiy ish xulosalanishi zarur.

Ilmiy xulosa ilmiy tadqiqning mag'zi, maqsadi va uning eng zaruriy qismi. Ilmiy xulosa tadqiqotchi kuzatgan, tavsiflagan hodisa-narsa haqida uning o'zi shakllantirgan *ilmiy tushuncha*. U bu monografiyaning "Metodologiya" bo'limida izohlanadigan ilmiy tushuncha talablariga javob berishi lozim. Ilmiy xulosa ixcham, tushunarli, aniq, tadqiqotchi bayon etgan tavsiflardan kelib chiqqan holda, sermazmun qonuniyat sifatida shakllantirilishi zarur. Yaxshi ilmiy tadqiqotlarda (ayniqsa, tabiiy fanlar bo'yicha) xulosa, ko'pincha, formulalar, chizmalar, jadvallar shaklida bo'ladi, zeroki, qisqalik va aniqlik ilmiy xulosaga qo'yiladigan eng asosiy talab.


Ilmiy xulosalar ilmiy tadqiqotlarda har xil bo'ladi. Tadqiqot tuzilishida (strukturasida) mavjud bo'lgan har bir band (paragraf), bo'lim, bob, albatta, o'z ilmiy xulosasi bilan yakunlanishi lozim. Bandlarning xulosalari bo'lim xulosasida, bo'limlarniki bob xulosalarida va, nihoyat, boblarning xulosalari ishning umumiy xulosasida yakunlanishi lozim, ya'ni xulosalar arxitekturasi quyidagicha:

1- chizma

¹⁷Асмус В. Г. Иммануил Кант. –М.: Наука, 1983. –Б.28–36.

¹⁸Buni D.Mendeleyev jadvali misolida ko'rish mumkin. Undagi hozircha bo'sh har bir xona ma'lum bir xususiyatlarga ega bo'lgan kimyoviy element bilan to'ldirilib borilmoqda va bunday kashfiyotlar yana yuz yil davom etishiga olimlar amindirlar. Tilshunoslikda ham bunday hodisalar juda ko'p.

Ilmiy xulosalar tadrijiyligi



Xulosalar mana shu tarzda bosqichma-bosqich, biri ikkinchisini to'ldirib kelgan taqdirdagina ilmiy tadqiqda yaxlitlik va izchillik saqlangan bo'ladi. Bunday ilmiy xulosalar tizimiga ega bo'lmagan ish mukammal ilmiy tadqiq emas, balki tartibsiz hodisalar tavsifidir, xolos.

Shuning uchun olimlar yozma ilmiy tadqiqotlarini o'qish (o'rganish)ni, odatda, ishning Kirish va Xulosa qismlari bilan tanishishdan boshlaydilar. Chunki, hozir ko'rib o'tilganidek, Kirish qismida tadqiqotchining ilk tayanch nuqtalari, xulosasida esa ishning yakuni tavsiflanadi. Aytilganidek, ikki nuqtadan faqat bitta to'g'ri chiziq o'tkazish mumkin – Kirish bilan Xulosa tadqiqotchi yo'lini belgilaydigan nuqtalardir va shu nuqtalar boshqa tadqiqotchiga ham tanish bo'lsa, unda ishni tushunish va baholash oson ko'chadi.

1- chizmadan ko'rinib turibdiki, xulosalar bosqichlilik, uzviylik va davomiylikka ega bo'lishi zarur va bu **ilmiy ishning tuzilishi** (strukturasi) bilan belgilanadi. Quyida shu masala xususida so'z yuritiladi.

Ilmiy tadqiqot strukturasi, odatda, quyidagi qismlarning bosqichlilik bilan joylashtirilishidan tashkil topadi.

1. Titul varaq (zarvaraq)
2. Mundarija
3. Kirish
4. Asosiy tadqiqiy boblar
5. Umumiy xulosalar
6. Foydalanilgan adabiyotlar
7. Ilovalar.

Ilmiy tadqiqot zarvarag'ining tarkibiy qismlari barchaga tanish va bular ustida to'xtalmasa ham bo'ladi.

Mundarijadan keyin agar ilmiy tadqiqot matnida shartli qisqartmalar berilgan bo'lsa, alohida sarlavha ostida har bir qisqartma to'liq sharhlanishi lozim. Shartli qisqartmalarni joylashtirishda, odatda, alifbo tartibiga rioya qilinadi. Shartli qisqartma izohi aniq va tushunarli bo'lishi kerak. Zarur bo'lganda, shartli qisqartma izohida shu tushuncha mufassal sharhlangan va tadqiqotchi tomonidan aksiomatik (isbetsiz) qabul qilingan manba ko'rsatilishi mumkin.

Ilmiy tadqiqotning Mundarijasi ishning tarkibida bo'lgan qismlarni, har bir qismning boshlanish betini aniq ko'rsatishi lozim. Mundarija ikki xil – ixcham va mufassal shaklda tuziladi.

Ixcham mundarijada ilmiy tadqiqning faqat asosiy qismlari, (uning) chunonchi

Shartli qisqartmalar	:
.....	
Kirish	!
.....	
Birinchi bob (bobning qisqartmalarsiz to'liq sarlavhasi)	1
.....	
Ikkinchi bob (bobning sarlavhasi)	8
.....	
Umumiy xulosalar	14
.....	
Foydalanilgan adabiyotlar	18
.....	

aks etadi.

Mufassal mundarijada har bir tarkibiy qismning ichki band va bo'limlari, ularning boshlanish sahifalari ko'rsatiladi. Bunday mundarijada, odatda, asosiy tarkibiy qism va bo'limlar bir-biridan texnik vositalar (harflarning katta-kichikligi, ularning bosma/yozma (kursiv)ligi va h.) bilan ajratiladi. Oliy Attestatsiya Komissiyasi dissertatsiyalardagi qism, bo'lim, bob, fasl, bandlarni nuqtalar bilan ajratilgan arab raqamlari bilan belgilashni, qism, bo'lim va bob sarlavhalarini katta harflar bilan, fasl, band sarlavhalarini kichik harflar bilan yozishni ham talab qiladi.

Ilmiy tadqiqning **Kirish** qismi, ismi jismiga mos, tadqiqotning kirish eshigi, darvozasi. Tadqiqotchi ilmiy ishini yozar ekan, uni o'zgalar tushuna olishini ta'minlashi zarur. Tadqiqotchi ma'lum bir mavzu ustida bir necha yil izlanish olib borgach, bu mavzuning muammolari, tayanch tushunchalari, tadqiq darajasi bilan atroflicha tanishgan, ularni obdon o'zlashtirgan bo'ladi. Lekin boshqa tadqiqotchilarning ko'pchiligi bu soha bilan maxsus shug'ullanmagan. Muallif yozayotgan asarini ilmiy saviyasi o'zidan quyi va o'zidan baland bo'lgan tadqiqotchilarning o'qishi va tushunishi lozimligini nazarda tutib, o'z ilmiy tadqiqotining Kirish qismida kitobxonni o'z asarini o'qish va uqishga tayyorlashi zarur. Shu maqsadda Kirish qismida u tadqiq manbai va predmetining mohiyatini, qisqacha o'rganilish tarixini, undagi yutuq va muammolarni, shular bilan bog'liq ravishda o'z ilmiy tadqiqining maqsadi, vazifalari, materiali, tadqiq usullarini, zarur bo'lsa, tayanch tushunchalari, tajriba-sinov asoslarini bayon etishi lozim. Ish hamkorlikda (hammualliflik, muallifdoshlikda) – bir necha muallif tomonidan birgalikda bajarilgan bo'lsa, Kirish qismi

muqaddimasi yoki xotimasida har bir muallif u l u s h i ni bayon etish talab etiladi.

O'zR OAKning ilmiy daraja va ilmiy unvonlar berish haqidagi Nizomiga ko'ra, har bir dissertatsion ishda ishning umumiy tavsifi berilishi va unda:

- tadqiqot mavzusining o'rganilish darajasi va dolzarbligi;
- tadqiqot obyekti;
- tadqiqot predmeti;
- tadqiqot materiali;
- tadqiqotning ilmiy farazi;
- tadqiqotning maqsad va vazifalari;
- tadqiqotning metodologik asosi va unda qo'llanilgan tadqiq metodlari (usullari) bayoni;
- tadqiqotning ilmiy yangiligi;
- tadqiqotning ilmiy va amaliy ahamiyati natijalarining qo'llanilish sohalari va iqtisodiy-ijtimoiy samarasi;
- ishning sinalishi, eksperimental bazasi natijalarining ommalashtirilishi;
- ishning tuzilishi va tarkibi

kabi masalalar qisqa va sarmazmun yoritilishi zarur. Bu umumiy tavsif dissertatsiyaning Kirish qismi sifatida ham (agar tadqiqot uchun alohida Kirish qismi talab etilmasa), Kirish qismidan oldin ham alohidalikda berilishi mumkin. Ilmiy tadqiqot mag'zini, mazmunini ishdagi asosiy **tadqiqiy boblar** tashkil etadi. Tadqiqot va tadqiq materialining xususiyatlari asosida ilmiy tadqiq ikki, uch, to'rt, besh va h. bobdan iborat bo'lishi mumkin. Har bir bobda tadqiq materiali va tadqiq usuli odatda bir xil bo'lishi, tadqiq predmetining ma'lum bir qirrasini ochib berilishi lozim. Tadqiq materiali va usuli ayni bir bobda rang-barang bo'lsa, unda bob fasllarga, fasllar esa bandlarga, bandlar, odatda, raqamlar bilan belgilanib boriladigan qismlarga ajratilishi mumkin. Ajratilgan har bir bob, fasl, band va uning qismlari alohida-alohida sarlovhalanish va, albatta, ma'lum bir xulosa bilan yakunlanishi lozim.

Tadqiqot hajmi juda katta, materiali rang-barang ish 4 bobdan kam bo'lmagan hollarda ilmiy tadqiq qismlarga yoki bo'limlarga ajratilishi mumkin.

Tadqiqotda ajratiladigan har bir qism, bo'lim, bob, fasl, band nisbiy mustaqillik va tugallikka ega bo'lishi, o'ziga xos kichik Kirish, tadqiq tavsifi (bayoni) va xulosa kabi tarkibiy qismlardan iborat bo'lishi va, albatta, o'zidan oldingi va keyingi qismlar bilan uzviy bog'lanishi zarur.

Tadqiqot matnida chizma, jadval, rasm va boshqa tarzdagi ko'rgazmalilik (illyustrativ material) bo'lsa, ular, albatta, raqamlanishi bu raqamlanishda jadval (chizma)ning qaysi qism – bo'lim/bob/fasl/bandga aloqadorligi o'z aksini topishi, har biri sarlovhalanishi zarur. Bunday material tadqiqot matni ichida – qo'llanilgan, tahlil etilgan joyda yoki ish, bob oxirida alohida berilishi mumkin. Ular alohida berilganda ishning shu

chizma, jadval, rasm eslatilgan, tahlil etilgan beti ko'rsatiladi. Har ikkala holatda ham matn ichida uning o'rni ko'rsatilishi shart.

Tadqiqotda muhim ahamiyatga ega bo'lgan xulosa qismi haqida yuqorida qisman bahs yuritildi. Bu yerda shuni ta'kidlash lozimki, tadqiqot natijasida qanday yutuqlar qo'lga kiritilganligi, bu tadqiq manbaining qanday yangi qirralarini ochganligi, ular fan oldida yana qanday yangi masala, vazifa, farazlarni qo'yishi, ular yechimining ijtimoiy taraqqiyotda qanday natijalar berishi ish xulosasida aks ettirilishi lozim.

Tadqiqotning muhim tarkibiy qismlaridan biri bo'lgan ilmiy havolalar, ilmiy adabiyot va manbalarni ko'rsatish masalasiga maxsus mavzu bag'ishlanadi. Shuning uchun bu yerda ushbu masala ustida to'xtalinmaydi.

Ilmiy tadqiqotning **ilova** qismida bu tadqiqotni yaxshiroq tushunish, zarur bo'lganda uni chuqurlashtirishga imkoniyat beradigan ma'lumotlar va materiallar, fikrlarni tasdiqlovchi yoki oydinlashtiruvchi hujjatlar, rasmlar, har xil ko'rsatkichlar, asarlardan parcha va namunalar beriladi.

Dissertatsiyalarda, O'zR OAK Nizomiga ko'ra, Ilova materiallari dissertatsiyaning belgilangan sahifa miqdoriga kirmaydi, lekin sahifa raqamlari uzluksiz qo'yiladi.

Ilmiy tadqiqot ilovalar berilgach, yakunlangan sanaladi. U qayta tahrir etilishi zarur.

Shuni esdan chiqarmaslik lozimki, tadqiqotchi o'z ishi ustida uzoq yillar izlanadi, ishini qayta-qayta o'qib, yozib, tuzatadi. Onaga bolasining har bir eng kichik zohiriy belgisi qanday tanish va odatiy bo'lsa, unga ham o'z ishi shunday tanish va yaqin bo'ladi (ilmiy-ruhshunoslik atamaları bilan aytganda, unda ishi stereotipi shakllanadi). Shuning uchun rasmiy muhokamaga berilishdan oldin ish tadqiqotchiga yaqin va maslakdosh bo'lgan kasbdoshlari (ilmiy rahbari, muammo tadqiqi rahbari, shu muammo bilan shug'ullangan tajribali ustozlar) tomonidan ko'rib chiqilishi va ularning maslahatlari asosida mukammallashtirilishi zarur. Shundan keyingina ilmiy rahbar (kafedra mudiri, laboratoriya mudiri) ishni rasmiy muhokamaga qo'yadi.


Ilmiy tadqiq, uning tarkibiy qismlari, bosqichlari haqidagi fikrlar 2-chizma bilan yakunlanadi. Har bir tadqiqotchining ilmiy tadqiq uslubi o'ziga xos bo'lib, amaliy ish – mustaqil ilmiy tadqiq jarayonida shakllanadi va rivojlanadi. Lekin u ma'lum bir qonuniyatlarga bo'ysunadi va ijtimoiy UMISning har bir tadqiqotchida AHVO sifatida voqelanishi. Shuning uchun 2- chizma namunaviy bir ko'rinishdir, xolos.

Endi ilmiy tadqiqda muhim o'rin egallaydigan ilmiy havolalar, ma'lumot manbalari, bibliografik ma'lumotlarni berish usullari bilan tanishishga kirishiladi.

2- chizma

Ilmiy tadqiqotning zaruriy bosqichlari va tarkibiy qismlari

Fan asoslari



Ilmiy tadqiqotda qisqartma, havola va bibliografik ma'lumotlarni berish

Tayanch tushunchalar
qisqartma, shartli qisqartma, ismli qisqartma, raqamli qisqartma, aralash qisqartma, havola, havola o'rinlari, ilmiy odob, plagiat, manba imlosi

Dastlab shartli **qisqartmalar** haqida to'xtalish lozim. Tadqiqotda juda ko'p hollarda ayni bir manbani (ilmiy adabiyotni, tajriba-sinov ishlari natijalarini, ayrim tushuncha va atamalarni, hatto ta'rif va qonuniyatlarni) juda ko'p marotaba, tez-tez takrorlab turishga to'g'ri keladi.

Chunonchi, "*Abdulla Qodiriy asarlarida eskirgan so'zlar*" mavzusidagi ilmiy tadqiqotda tadqiqotchi bu adibning "O'tkan kunlar", "Mehrobdan chayon", "Obid ketmon", "Juvonboz" kabi asarlarini o'nlab marotaba tilga olishi, har bir fikrni asoslash uchun bu asarlardan yuzlab misollar keltirishi lozim. Bundan tashqari, tadqiqotchi eskirgan so'zlar muammosini anchagina mufassal tahlil etgan, masalan, E.Begmatovning "O'zbek tilining leksik qatlamlari", E.Qilichevning "Badiiy tasvirning leksik vositalari" asarlari, Sh.Rahmatullayevning "ТошДУ Илмий асарлари. Янги сира. 211- чиқиши. Филология. 24- китоб. Тошкент, 1963" to'plamida chiqqan "Arxaizm va istorizm" maqolasini, har xil lug'atlarni – ikki jilddan iborat bo'lgan "Ўзбек тилининг изохли луғати"ni, 4 jildli "Alisher Navoiy asarlarining izohli lug'ati" va h. larni tez-tez takrorlab turishi lozim. Ilmiy ishda, ixchamlik va tejamkorlik nuqtayi nazaridan, unda tez-tez takrorlanib turuvchi manba va tushunchalarni tadqiqotchi, odatda, qisqartmalar (shartli qisqartmalar) bilan beradi. Bundan tashqari, ilmiy tadqiqotlarda juda ko'p hollarda chizmalar, diagrammalar, qonuniyatlarni ixcham va yorqin aks ettiruvchi formulalar, jadvallar keng qo'llaniladi. Ularda ham, asosan, har xil shartli qisqartmalar qo'llaniladi.

Manbalarga ishora qiluvchi qisqartmalar ham, formula va chizmalarda qo'llaniladigan qisqartmalar ham fanda ikki xil. Ularning birinchi turi ma'lum bir fan sohasida umumiylik sifatida qabul qilingan shartli belgilar. Kimyoda **N** (vodorod), **O** (kislorod), **NaCl** (osh tuzi); matematikada "+" (qo'shish), "-" (ayirish), " $\sqrt{\quad}$ " (ildiz), " a^2 " (istagan sonning kvadrati); fizikada **F** (kuch), **B** (tok kuchlanishi), **W** (tok kuchi) va h. shular jumlasidan. Tilshunoslikda ham shunday shartli belgilar bor. Chunonchi, **V** – fe'l, **V^{tr}** – o'timli fe'l, **Vⁱⁿ** – o'timsiz fe'l, **S** – ega, **P** – kesim, **P^v** – fe'l kesim, **Pⁿ** – ot kesim. Tilshunoslikdagi bunday shartli qisqartmalar, odatda, "Tilshunoslikka kirish" o'quv qo'llanmalarida sharhlanadi. Muallif bunday qisqartmalardan foydalanganda qisqartmalarni olgan manbasini aniq ko'rsatishi lozim. Chunonchi, M.Saidovanning tadqiqotida shunday jumlani o'qiyviz: *Modellarda "Русская грамматика. –Москва: Наука. 1980" kitobida berilgan shartli belgi va qisqartmalar tizimini to'la-to'kis saqlaymiz.*¹⁹ Bunda tayanch manba ilmiy jamoatchilir orasida keng tarqalgan, har bir ilmiy kutubxonada osongina topiladigan bo'lishi lozim.

Ikkinchi turdagi qisqartmalar muallifning o'zi tomonidan yaratiladi. Bunday qisqartmalar qulay va to'liq sharhiga nima bilandir ishora qilib turadigan bo'lishi zarur. Chunonchi, Abdulla Qodiriyning yuqorida sanab o'tilgan uch romanida eskirgan so'zlarning qo'llanilish muammosini

¹⁹Саидова М.Р. Сравнительно-типологическое исследование односоставных предложений в русском и узбекском языках: Автореф...канд.филол.наук. –Т., 1996. –С.8.

o'rganayotgan tadqiqotchi ularni **RI** (ya'ni birinchi roman), **RII**, **RIII** deb ham, **A₁**, **A₂**, **A₃**, deb ham, oddiygina **I**, **II**, **III** sifatida ham shartli qisqartma sifatida berishi mumkin. Lekin bunday qisqartma noqulay. Kitobxonni qiynaydi. Bu romanlarni **O'K**, **MCH**, **ObK** qisqartmalari bilan berish esa ancha qulay, chunki qisqartmada asarning to'liq nomiga ishora mavjud. O'K – "O'tkan kunlar", MCH – "Mehrobdan chayon" va h.

Muallif o'z ishida foydalangan qisqartmalar alohida asarlarda (dissertatsiya, monografiya, darslik va h.) ishning kirish qismidan oldin, mundarijadan keyin, ilmiy maqolalarda esa maqola oxirida maxsus sarlavha (foydalanilgan qisqartmalar) ostida to'liq va aniq ochib berilishi shart.

Endi ilmiy tadqiqda **havolalar** masalasiga to'xtalinadi.

Ilmiy tadqiqotning muhim tarkibiy qismlaridan biri ilmiy havolalar. Ilmiy havolalar tadqiqotchining qanday manbalarga tayanib tadqiqot olib borganligini ko'rsatib turadi. Tadqiqotda havolalar, asosan, ikki turli. Bular:

- a) material, tadqiq hodisalariga, tajriba-sinov ishlariga havolalar;
- b) ilmiy tadqiqotlarga, tadqiqotchilarning fikrlariga havolalar.

Istagan ilmiy tadqiqot hamisha faktlarga (faktik materialga) tayanadi. Bu faktik material tilshunoslik tadqiqotlarida tilning voqelanish ko'rinishlari – nutqdan (jonli so'zlashuv, sheva, yozuvchilarning asarlari va h.dan), o'tkaziladigan tajriba-sinov natijalaridan, zarur holatda ilmiy tadqiqotlardan olinadi. Bularning barchasi tadqiqotchi va tadqiqot uchun **material manbai**. Ilmiy ishda keltirilgan har bir faktik materialning qaysi manbadan olinganligi aniq (tadqiqotni o'qiyotgan boshqa shaxs osonlikcha topa oladigan shaklda) ko'rsatilgan bo'lishi kerak. Material manbai, odatda, faktik material keltirilgach, qavslarda – juda ko'p hollarda shartli qisqartmalar bilan beriladi. Chunonchi:

Qodiriy asarlarida moziy so'zi "o'tmish", "o'tgan zamon" ma'nosida qo'llaniladi: Moziyga qaytib ish ko'rish xayrlik, deydilar (O'K - 10).

Faktik materialning tur va xususiyatiga ko'ra havolada uning manbasini ko'rsatish ham xilma-xil bo'lishi mumkin. Faktik material manbasi tadqiqot matni ichida (*chunonchi: "bir tilli" shevada r ma'lum pozitsiyalarda tushib qoladi. . . .*²⁰) berilishi mumkin.

Tajriba-sinov ishlari natijalari faktik material sifatida keltirilganda, natijalar e'lon qilingan bo'lsa, nashr manbasi, e'lon qilinmagan bo'lsa, o'tkazilgan o'ri va vaqti, uni qayd etgan muassasa ko'rsatilishi zarur.

Faktik material arxiv yoki muzey materiallaridan olinganda, arxiv (muzey), uning joyi, fond raqami (nomi), qayd raqami ko'rsatiladi. Faktik material havolasidan maqsad kitobxonning – zarur bo'lganda – shu ma'lumotni oson topish va tekshira olish ekanligini unutmazlik lozim.

²⁰Мирзаев М. Ўзбек тилининг бухоро группа шевалари. –Т.: Фан, 1968. –Б. 35.

Ilmiy ishda havolalarning ikkinchi turi tadqiqotchilarning ishlariga, fikrlariga ishora. Bunday havolalar ilmiy tadqiqotlarda, asosan, uch usul bilan, ya'ni:

- a) sahifa osti izohlar;
- b) matn ichida ajratilgan izohlar;
- d) bob (bo'lim, (tadqiqot) oxirida keltirilgan izohlar

sifatida berilishi mumkin.

Ilmiy ishlar, fikrlar manbasi ham (monografiya, maqola, ma'ruza va h.) ham ilmiy tadqiqotlarda 4 turda berilish mumkin:

1) muallif, asari, nashriyoti, nashr yili, zarur betlarini to'liq ko'rsatilgan holda;

2) raqamlash usuli bilan;

3) muallif va bosilgan yilini ko'rsatuvchi qisqartma holda;

4) tadqiqotchi lozim ko'rgan qisqartma

shakllaridan birida beriladi.

Birinchi turdan, asosan, sahifaosti izohlarda foydalaniladi. Bu usul fikrlar manbasini kitobxonga yetkazishning eng qulay usuli, lekin, birinchidan, juda ko'p joyni egallaydi. Ikkinchidan, havolalarni bunday berish kitobxon diqqatini chalg'itib turadi. Ba'zan bu turdan bob (yoki asar) oxirida beriladigan izohlarida ham foydalanadilar. Bu holda tadqiqot matni ichida boshqa tadqiqotlarga, fikr manbalariga havola o'rinlari arab raqamlari bilan batartib belgilab boriladi va bob (asar) oxirida har bir tartib raqamlariga mos manba aniq va to'liq ko'rsatiladi. Bunda bir muallifning ayni bir tadqiqoti takror-takror keltirilganda, birinchi keltirilishda to'liq berilib, qolgan o'rinlarda faqat muallif ko'rsatiladi va "O'sha asar" havolasi beriladi va shu o'ringa aloqador betlarga ishora qilinadi.

Havolalarni raqamlash usuli bilan berish eng tejimli usul. Bunda bob (asar) oxirida "**Foydalanilgan adabiyotlar**" sarlavhasi ostida manbalar qat'iy alifbo tartibida beriladi. Matn ichida havola zarur bo'lganda shu manbaning bu ro'yxatdagi tartib raqami, undan keyin vergul qo'yilib, zarur betlar ko'rsatiladi, nuqta yoki nuqtali vergul qo'yiladi:

Masalan: "*Bog'lovchilar gap bo'laklari va ayrim-ayrim sodda gaplarni bog'lash uchun xizmat qiladigan yordamchi so'zlardir*" [342, 501].²¹

Demak, R.Sayfullayeva bu fikrni shu shaklda "Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati"da 342- raqam ostida keltirilgan manbaning 501-betidan olgan.

Matn ichida bir o'rinda bir necha manbaga havola etilganda, har bir manba raqami nuqtali vergul bilan ajratib boriladi.

Havolaning bu tejimli usuli ham o'z noqulayliklariga ega. Birinchidan, fikr olingan manbani, tadqiqotchi kimlarning g'oyalari va materiallariga tayanib ishlayotganligini bilish uchun kitobxon bob (asar)

²¹ Сайфуллаева Р.Р. Ҳозирги ўзбек тилида қўшма гапларнинг формал-функционал талқини. –Т.: Фан, 1994, –Б. 39.

oxiriga qayta-qayta murojaat etishi zarur. Ikkinchidan, bunday tizimdan foydalanish muallifdan katta ehtiyotkorlikni talab qiladi. Zero, bitta raqamdagi xato manbani tamoman o'zgartirib yuboradi. Ilmiy ishda esa bu nafaqat qo'pol xato, balki mualliflarga hurmatsizlik deb ham sanaladi.

Havolalarni uchinchi usulda (asar muallifi va uning bosilgan yiliga ishora etuvchi qisqartma bilan berish yo'li) ilmiy ishlarda eng qulay va tejamkor. Bu usuldan havola berishning to'rtala turida ham bimalol foydalanish mumkin. Undan foydalanganda, manbalarning shartli qisqartmalari yo ishning boshida – shartli qisqartmalar bo'limida, yoki ishning oxirida “Foydalanilgan adabiyotlar va ularning qisqartmalari” – qismida to'liq ochib beriladi. Bunday qism ilmiy tadqiqlarda, xususan, dissertatsiyalarda “Adabiyotlar ro'yxati” zaruriy qismi o'rnini ham bosadi.

Ilmiy ishda havolalar quyidagi hollarda beriladi:

1. Biror tadqiqotchi (muallif)ning asaridan, ma'ruzasidan ma'lum bir fikr, izoh yoki ma'lumot aynan keltirilganda. Bu olinma ko'chirma gap sifatida imlo qoidalariga mos ravishda berilgani ma'qul va oxirida olinma manbai ko'rsatilishi shart. Bunday olinma bitta atama, bir-ikki so'z birikmasi yoki gap hajmida ham, katta (ba'zan bir-bir yarim bet) band (yoki abzaslar)dan iborat bo'lishi ham mumkin. Bunday olinmalarda tadqiqotchi olinmaning ma'lum bir qismini tushirib qoldirsa, o'sha o'rin ko'p nuqta (. . .) bilan belgilanadi; bir qismini alohida bo'rttirib (kursiv, ajratilgan harflar, ostiga chizish va h. usullarda) ajratsa, olinma ichidagi izohda ko'rsatilishi lozim.

2. Tadqiqotchi o'z fikrini bayon qilayotganda boshqa tadqiqotchilarning familiyasi va ismini tilga olib, ularning materiallariga tayanib tahlil olib borayotganligini eslatganda ham manbalarga havola berishi zarur.

3. Tadqiqotchi biror hodisa (voqea) tavsifini berayotganda o'zgalarning ishlaridan olgan (o'zlashtirgan) ma'lumotlarni alohida ta'kid bilan ajratmay, o'z nutqiga singdirib borgan hollarda o'zlashtirilgan ma'lumot manbai shu ma'lumotdan keyin ko'rsatilishi zarur.

Shuni esda tutish lozimki, boshqa tadqiqotchilar ma'lumot va talqinlaridan foydalanib, uni ilmiy ishda ko'rsatmaslik eng xunuk amal. Ilmiy ishda bunday o'rinlar bo'lsa, (yoki atigi bir abzaslik material birovdan olinib, manbasi ko'rsatilmagan bo'lsa) bu ish plagiat – ilmiy o'g'irlik mahsuli sanalib, xalqaro qonunchilikda o'z aksini topgan mualliflik huquqi qoidalari asosida bekor qilinadi va O'zbekiston Respublikasining jinoyat kodeksi asosida plagiat ish muallifi jinoiy javobgarlikka tortiladi.

Ilmiy ishda foydalanilgan, keltirilgan barcha manbalar, ilmiy adabiyotlar ishning “Foydalanilgan manbalar (adabiyotlar)” yoki “Bibliografiya” qismida to'la keltiriladi. Bu qism ikki turda tuzilishi mumkin:

1. Faktik material manbalari va ilmiy adabiyotlar (manbalar) ro'yxati alohida ajratib beriladi.

2. Har ikkala manba birgalikda beriladi.

Har ikkala holatda ham manbalar alifbo tartibiga qat'iy rioya qilingan holda ro'yxatlashtiriladi. Manbaning ro'yxatdagi o'рни manba (asar) muallifining (mualliflar ko'p bo'lsa, birinchi muallifning) familiyasi, agar mabodo mualliflar ko'satilmagan bo'lsa, asar (to'plam, kitob v. h.) nomining birinchi so'zi harflari asosida joylashtiriladi. Bibliografik materialni (manbalar ro'yxatini) berishning kutubxonachilik va OAK, matbuot va poligrafiya boshqarmalari tomonidan tasdiqlangan qonun-qoidalari bor. Har bir tadqiqotchi ularga rioya qilishi lozim. Bular, asosan, quyidagilar:

1. Manbalar ularning mualliflari asosida joylashtiriladi. Chunonchi, mualliflari (birinchi muallifi)

1. *Asadov Y.M.*
2. *Abdurahmonov G'A.*
3. *Abdullayev A.A.*
4. *Abdurahmonov G'K.*
5. *Abdusamadov S.U.*
6. *Abdullayev A.B.*

bo'lgan olti manba ro'yxatda quyidagi tartibda joylashtiriladi:

1. *Abdullayev A.A.*
2. *Abdullayev A.B.*
3. *Abdurahmonov G'A.*
4. *Abdurahmonov G'K.*
5. *Abdusamadov S.U.*
6. *Asadov Y.M.*

Manba mualliflari ikki va undan ortiq bo'lsa, ularning barchasi manbada keltirilgan tartibda, bir-biridan vergul bilan ajratib beriladi va oxirida (agar ism bosh harfi nuqtasi bo'lmasa) nuqta qo'yiladi.

1. *Tursunov U., Muxtorov J., Rahmatullayev Sh.*
2. *Koshg'ariy Mahmud.*

2. Muallif familiyasi va ismlaridan keyin bosh harf bilan (qo'shtirnoqsiz) maqola/ma'ruza/asar nomi kitobning muqovasi/mundariyasi asosida emas, balki birinchi titul varag'i (zarvarag'i/maqolaning boshlanishi) asosida to'liq yoziladi:

1. *Турсунов У., Мухторов Ж., Раҳматуллаев Ш. Ҳозирги ўзбек адабий тили. Лексикология. Фонетика. Морфология.*
2. *Журавлев А.П., Павлик Т.А. Язык и компьютер. Книга для учащихся старших классов средней школы.*
3. *Нурмонов А. Маҳмудхўжа Бехбудий ва ўзбек тилшунослиги масалалари.*
4. *Шоабдурахмоов Ш. Антропонимик форматларнинг таркибий-функционал ривожига ҳақида.*

Asar nomi to'liq (manba imlosi va tilida) keltirilgach, nuqta qo'yiladi. Keyin:

a) manba alohida kitob (risola) shaklida bosilgan bo'lsa, nuqtalar bilan ajratib bosilgan o'rni ko'rsatilib, ikki nuqta bilan ajratiladi va nashriyoti, nuqtadan so'ng yili, umumiy sahifalar miqdori ko'rsatiladi:

1. Турсунов У., Мухторов Ж., Раҳматуллаев Ш. *Ҳозирги ўзбек адабий тили. Лексикология. Фонетика. Морфология.* – Тошкент: Ўқитувчи. 1975. – 228 б.

2. Журавлев А.П., Павлик Н.А. *Язык и компьютер. Книга для учащихся старших классов средней школы.* – Москва: Просвещение, 1989. – 160 стр.

Manba ilmiy maqola/tezis/axborot bo'lsa, uni o'z ichiga olgan kitob (jurnal, to'plam va h.) // belgisidan keyin berilib, uning nomi qo'shtirnoqsiz va nashr joyi, yili, shu maqola egallagan betlari “ –B. ” belgisi bilan beriladi:

3. Nurmonov A. Mahmudxo'ja Behbudiy va o'zbek tilshunosligi masalalari // *O'zbek filologiyasi masalalari. Ilmiy maqolalar to'plami. 3-chiqish.* – Samarqand: SamDU nashriyoti, 2001. –B. 18–21.

4. Shoabdurahmonov Sh. *Antroponimik formatlarning tarkibiy-funksional rivoji haqida* // *O'zbek tili adabiyoti*, -2003, -№ 4. –B. 20–25.

Manba sifatida mualliflari zarvaraqda ko'rsatilmagan to'plam, axborotnoma, monografiya va h. keltirilganda asarning mas'ul muharriri (yoki tahrir hay'ati), qavsda nashr etgan muassasasi ham ko'rsatilishi zarur:

1) *O'zbek tili tarixi masalalari. Mas'ul muharrir prof. A.Rustamov.* (O'zb. FA. TAI.) –T.: Fan, 1977. –B. 184.

2) *O'zbek tili grammatikasi. 1- tom. Morfologiya. Mas'ul muharrirlar A.Abdurahmonov, Sh.Shoabdurahmonov, A.P.Hojjiyev.* (O'zb. FA TAI). – T.: Fan, 1971. – 612 b.

Joy nomi oldidan chiziqcha, undan keyin nashriyoti bo'lsa, vergul va ikki nuqtadan keyin nashriyot, nashriyotsiz bo'lsa, vergul va ikki nuqtadan keyin NS (nashriyotsiz) qisqartmasi qo'yiladi. Moskva, Sankt-Petburg va Toshkent kabi ayrim shahar nomlarini qisqartirib yozish qoidalashtirilgan. –M., –CPb., –T. tarzida.

Foydalanilgan manba maqola yoki tezis bo'lmasa, oxirida manbaning umumiy sahifasi qoidaga muvofiq beriladi. Masalan, –365 b. (yoki –365 стр.):

O'zbek tili grammatikasi. 1- tom. Morfologiya. Mas'ul muharrirlar A.Abdurahmonov, Sh..Shoabdurahmonov, A.P.Hojjiyev. (O'zb. FA TAI). – T.: Fan, 1971. – 612 b.

Bibliografiya (Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati) ilmiy tadqiqning so'nggi qismi bo'lib, ilmiy tadqiq hajmi ichiga kiradi. Undan keyin ilmiy tadqiqotga, zarur bo'lganda, har xil ilovalar beriladi.

Havolalarda keltirilgan adabiyotlarning manba tili va imlosida berilish zarurligini yana bir karra ta'kidlash foydadan xoli emas. Chunki xorijda e'lon qilingan ishlarni kirillcha harflar bilan berish, mualliflarining familiyasi va ismini o'zbekcha o'qilishi asosida ko'rsatish kabi xatolar tez-

tez uchrab turadi. Ishda manba imlosini saqlashga mutlaqo imkoniyat bo'lmagan taqdirda (ieroglifik yoki boshqa bir nodir alifbodagi manbalar keltirilganda) manba oxirida qavs ichida izoh berilishi shart. Chunonchi:

Alqur'onul Karim. O'rta Osiyo va Qozog'iston musulmonlari diniya nazorati tab'i. –T., 1375. - 568 b. (Arab yozuvida)

Shu bois ushbu monografiyada yuqorida berilgan o'zbek tilidagi manbalar, masalan, ilmiy havolalarda bu yerda ketirilgan shaklda berilishi mumkin emas. Zarur bo'lganda, izohlanishi shart:

O'zbek tili grammatikasi. 1- tom. Morfologiya. Mas'ul muharrirlar A.Abdurahmonov, Sh.Shoabdurahmonov, A.P.Hojiyev. (O'zb. FA TAI). – T.: Fan. 1971. - 612 b.

Quyida adabiyotlar ro'yxatidan namuna beriladi.

Alohida nashrlar

1. Асқарова М. *Ҳозирги ўзбек тилида эргашиш формалари ва эргаш гаплар.* – Т.: Фан, 1966. – 126 б.

2. Аксаков К.С. *Опыт русской грамматики. Ч.I. Вып. I.* – М.: Наука, 1960. – 200 с.

3. Зикриллаев Ф. *Истиқлол ва адабий тил.* – Бухоро: НС, 1896. – 300 б.

4. Сайфуллаева Р., Менглиев Б., Боқиева Г. ва б. *Ҳозирги ўзбек адабий тили.* – Т.: ФТМ, 2004. – 500 б.

Jurnal maqolalari

1. Сайфуллаева Р., Абузалова М. *Гапнинг энг кичик қурилиш қопиллари ҳақида // Ўзбек тили ва адабиёти,* – 1991. – № 5. –Б. 42–47.

2. Нигматов Х.Г. *Соотношение категорий падежа и принадлежности в языке тюркских памятников XI–XII вв. // Советская тюркология.* – 1977, – № 4. – С. 16–24.

To'plam maqolalari

1. Панфилов В.З. *К вопросу о соотношении языка и мышлении // Мышление и язык. Сб. ст.* – М., 1957. – С. 11–47.

2. Исломов И. *Фразеологик бирикмаларнинг таснифига доир // Миллий истиқлол ва давлат тили. Мақ. тўп.* – Қарши, 2004. – Б. 117–118.

3. Тожиева Г. *Полисемантик сўзларнинг лексикографик талқини // Ўзбек тилшунослигига оид тадқиқотлар. Маъруз. тўп.* – Самарқанд, 2003. – Б. 100–102.

Taqrizlar

1. Мирзаев М., Абдуллаев А., Киличев Э. *С.Н.Ивановнинг «Турк тили грамматикаси» китобига тақриз // Ўзбек тили ва адабиёти,* – 1976. –№ 3. – Б. 113–117.

Dissertatsiyalar

1. Садиков К. Категории падежа в узбекском языке: Дисс. ... канд. филол. наук. – Т., 1963. – 150 с.

2. Худойназаров И. Эргаш Жуманбулбул ўғли дostonларидаги антропонимларнинг луғавий тизимдаги ўрни: Филол. фанлари номзоди. ...дисс. – Т., 1998. – 120 б.

Avtoreferatlar

1. Халимов К. Категории принадлежности в узбекском языке: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Т., 1963. – 20 с.

2. Худойназаров И. Эргаш Жуманбулбул ўғли дostonларидаги антропонимларнинг луғавий тизимдаги ўрни: Филол. Фанлари номз. ...дисс. ...автореф. – Т., 1998. – 21 б.

FOR AUTHOR USE ONLY

Birinchi bob

METODOLOGIYA

Ilmiy tadqiq metodologiyasi

Tayanch tushunchalar

empirik metodologiya, bilish bosqichi, fahmiy bilim, idrokiy bilim, tadqiq manbaiga yondashish, nominalistik va dialektik usul, tadqiqotchi nuqtayi nazari, materialistik va idealistik dunyoqarash

Metodologiya yunoncha *metodos* – “**tadqiqot**”, “**o’rganish**” va *logos* – “**ta’limot**”, “**so’z**” kabi ikki birlikdan tashkil topgan bo’lib, uning lug’aviy ma’nosi “**metod haqida ta’limot**” demakdir. Shuning uchun, odatda, lug’atlarda **metodologiya** tushunchasi “*ilmiy tadqiq metodlari haqida ta’limot, ma’lum bir fanda qo’llaniladigan metodlar majmuasi*”²² sifatida tushuniladi. Lekin **metodologiya, ilmiy tadqiq metodologiyasi** deganda, hozirgi kunda, ma’lum bir fanda qo’llaniladigan xilma-xil metodlar, tahlil usullari haqidagi ta’limot emas, balki **tadqiqotchining tadqiq manbaini qanday tushunishi va unga qanday yondashishi, tadqiqotdan qanday maqsadni ko’zlashi, boshqacha qilib aytganda, tadqiqotchining dunyoqarashi** nazarda tutiladi.

Metodologiya, jumladan, tilshunoslik tadqiqotlari metodologiyasi falsafaning tarkibiy qismi bo’lib, fanning gnoseologiya (bilish nazariyasi) bo’limi bilan uzviy aloqador. Shuning uchun metodologiya deganda tadqiqotchida kamida uch omilning mujassamlanishi va uning ilmiy tadqiq mahsulida namoyon bo’lishi tushuniladi. Bular:

Birinchidan, tadqiqotchining o’z tadqiq manbai haqida qay turdagi bilimlarni hosil qilishga intilishi, bilishning qaysi turi bilan shug’ulanishi. Ma’lumki, falsafada narsa/o’rganish obyekti haqida tadqiqotchi ikki turdagi bilimlar hosil qilishi mumkin:

- a) fahmiy (hissiy, empirik) bilimlar;
- b) idrokiy (aqliy, mantiqiy, nazariy, teoretik) bilimlar.

Har bir turdagi bilimni hosil qilish yo’l, vosita va usullari ham, maqsadlari ham boshqa-boshqa.

Ikkinchidan, tadqiqotchining tadqiq manbai/narsaga qanday usul bilan yondashishi. Falsafada narsaga yondashishning ikki usuli bor. Ular:

- a) nominalistik yondashish;
- b) dialektik yondashish.

Nominalistik yondashishning ham, dialektik yondashishning ham (narsani nominalistik yoki dialektik tushunish va talqin etishning) o’z

²²Словарь иностранных слов. –М.: Изд. СЭ. 1967. –С. 403; Философический словарь. –М.: Изд. ПЛ, 1968. –С. 215.

tamoyillari bor. Tadqiqotchi ilmiy tadqiq jarayonida shu tamoyillarga tayanib tadqiqot olib boradi.

Uchinchidan, tadqiqotchining materialistik yoki idealistik (ruhoniy) nuqtayi nazarda turishi va shu nuqtayi nazardan turib ilmiy tadqiqni olib borishi.

Tadqiqotchi dunyoqarashi, tadqiqotchining metodologiyasi deganda tadqiqot va tadqiqotchida mana shu omillardan qay birlariga tayanib ish ko'rish nazarda tutiladi. Shunga ko'ra metodologiya:

- 1) empirik - nominalistik - materialistik;
- 2) empirik - nominalistik - idealistik;
- 3) empirik - dialektik - materialistik;
- 4) empirik - dialektik - idealistik;
- 5) idrokiy - nominalistik - idealistik;
- 6) idrokiy - nominalistik - materialistik;
- 7) idrokiy - dialektik - idealistik;
- 8) idrokiy - dialektik - materialistik

kabi 8 umumiy ko'rinishda bo'lishi mumkin. Bular sof mantiqiy-riyoziy turlar. Haqiqatda esa, ular behad ko'p. Alisher Navoiy "Haqiqatga (Haqqa) olib boruvchi yo'llar nechta?" degan savolga "Lisonu-t-tayr" dostonining "Ma'rifat vodiysining vasi" faslida badiiy yo'sinda yuksak mahorat bilan:

*Ma'rifat vodiysin ondin so'ngra bil,
Dashti bepoyonlig'in nazzora qil.*

*Kimki bu vodiyg'a bo'ldi muttasif,
Topti onda hollarni muxtalif.*

*Vodiyedur yuz tuman ming onda yo'l,
Ul bu bir kelmay, oningdekkim bu ul.*

*Ixtilofi juzv ila kul mundadur –
Kim taraqqiyu tanazzul mundadur.*

*Yuz tuman rahrav ko'rarsen beqaror,
Har biri bir yo'lni aylab ixtiyor.*

*O'z borur yo'lig'a har bir muftaxir,
Yo'lni aylab o'z yo'luga munhasir.*

*Bu oni tutmay musallam, ul muni,
Har bir o'zdin o'zga ko'rmay ul buni.*

*Pashsha anda rahnavardu pil ham,
Pashsha anda toyiru Jibril ham.*

*Musiyu Fir'avn onda rohrav,
Bil yaqinkim, birdek ermas bu ikav.*

*Mahdiyu Dajjolg'a yo'l mazhabi,
Lek teng bo'lmay Masih markabi.*

*Ahmadu Bu Jahl etib onda zuhur,
Bu tushub zulmatqavu ul g'arqi nur.*

*Da'b anda sayr etib yaxshi-yamon,
Mo'min onda soliku kofir hamon.*

*Lot losin dayr eli aylab panoh,
Ka'ba eli lek loi lo iloh.*

*Kufr eli Lotni ogah debon,
Lek islom ahli illallah debon.*

*Muxtalif bo'lmay ne bo'lsun munda ish,
Chun bu yanglig' muxtalif bo'ldi ravish.*

*Mundin aytibdur nabiyi rohbar,
"Kim ulusqa haq sari bo'lsa safar.*

*Istasang yo'l kasratig'a addu had,
Xalq anfosi bilan teng bil adad."
Ham bari durdi emas, ham borcha sof,
Bizzaruradur ulusqa ixtilof.*

*Bu mahalda gar gadodur, gar muluk,
Har bir o'zga yo'l bila aylar suluk.*

*Nafs chun bo'ldi mahalli ixtilol,
Lozim o'ldi munda avsofu kamol.*

*Munda solikka tafovut bo'ldi fosh,
Anga mehrobu munga but bo'ldi fosh.*

*Bo'ldi o'z irfoni har kimga sifat,
Ko'p tafovut qildi paydo ma'rifat.*

*Har kishi o'z tavrada istab kamol
Qildi vodiy tay qilurg'a ishtig'ol.*

*Gar suluk atvorida tag'yir edi,
Maqsadi lekin borining bir edi.*

*Yo'l agar egri edi yo erdi tuz,
YO yiroq yoxud yaqin ko'rguzdi yuz.*

*Ba'zi o'ldi, ba'zi itti yo'l aro,
Ba'zi avvoro bo'lub har qo'l aro.*

*Bo'lmadi har yo'lni chun qat' etmagan,
Bo'lmadi maqsadg'a dog'i yetmagan.*

*Ma'rifat xurshidi chun qildi tulu,
Har kim o'z maqsudig'a aylab ruju'.*

*O'z sudukiga natoyij istadi;
Qilmoq o'z naqdini royij istadi.*

*Chunki partav' soldi ul pokiza nur,
Bo'ldi har kimning kamolig'a zuhur.*

*Toptilar har kimki chekmish erdi ranj,
O'z suluku ranjining xurrida ganj.*

*Chun suluk ichra ko'p erdi ixtilof,
Ko'pragi durd erdi, lekin ozi sof.*

*Kim ravishda sofi erdi mashrabi,
Bor edi ul tobe'i shar'i nabi.*

(Lisonut-tayr 198-200 -bet)

– deb javob bergan. Har bir ilmiy tadqiqot ham shunday o'ziga xos metodologik asoslarda quriladi. Tadqiqotchilar va ularning metodologik asoslari qancha rang-barang bo'lmasin, u metodologik asoslar baribir, ongli/ongsiz ravishda shu uch omilning u yoki bu turiga, ularning u yoki bu darajada birikuviga borib taqaladi. Buni ko'l yoki dengizdan turli tomonlarga chiqarilgan kanallar yoki hovuzdan turli odamlarning turli tomonlarga suv olib ketishi bilan qiyoslasa bo'ladi. Bu odamlar suvni bir manbadan olishadi, shuning uchun idishlari, yo'llari har xil bo'lishiga qaramay, suvlarning tarkibi va manbasi bir.

Demak, ilmiy tadqiqot boshlamochi bo'lgan har bir kishi metodologiyani

- a) bilim turi / bilish bosqichi;
- b) tadqiq manbaiga yondashishi;
- d) nuqtayi nazari

kabi binar (ikki turli) ko'rinishlarining har birining eng asosiy tamoyillari (mezonlari, o'lchov birliklari) bilan tanishishi zarur, zeroki, tadqiqotchi mana shu tamoyillar bilan narsani (o'rganish manbai va uning xususiyatlarini) o'lchaydi, baholaydi, tavsiflaydi. Shuning uchun bu bo'limning navbatdagi mavzular mana shu tamoyillar tavsifiga bag'ishlanadi. Lekin bu ishga kirishishdan oldin bir masala ustida alohida to'xtalish lozim. U tadqiqotchining metodologiyaga munosabati masalasi. Zero, juda ko'p hollarda tadqiqotchi uqilgan, izchillik bilan tatbiq etiladigan, ongli metodologik asosga ega emas va ko'r-ko'rona ish tutadi. Ba'zi hollarda, hatto, metodologiyani rad etadi. Ularning fikricha, metodologiya, metodologik asoslar tadqiqotchiga o'z tadqiq manbaini u borliqda qanday bo'lsa, shunday tavsiflashga, uni obyektiv baholashga xalaqit beradi. Shuning uchun tadqiqotchida narsada nimalarni va qanday ko'rish haqida hech qanday g'oya va ko'rsatmalar bo'lmasligi lozim. Agar shunday g'oya va ko'rsatmalar bo'lsa, tadqiqot haqqoniy, obyektiv bo'lmaydi. Metodologiyaga bunday salbiy (to'la rad etuvchi) munosabat oldinlar ham bor edi, hozir ham mavjud. Bu haqda: **Философия. Наука. Методология.** –М.: Наука. 1972; **И.В.Копнин. Дialeктика как логика и теория познания.** –М.: Наука. 1978; **Б.М.Кедров. Единство диалектики, логики и теории познания.** –М., 1963; **Бозоров О. Ўзбек тилида даражаланиш.** –Т.: Фан. 1997; **Иванов С.Н. Родословное древно-тюрок Абул-Гази-Хана. Грамматический очерк.** –Т.: Фан. 1969; **Диалектика-теория познания. Под общей редакцией Б.М.Кедрова. И книга. Проблемы научного метода.** –Наука. 1964; **Диалектика и логика. Законы мышления.** –М.: Наука. 1962; **Диалектика и логика. Формы мышления.** –М.: Наука. 1962 kabi tadqiqotlardan mukammal ma'lumot olishingiz mumkin. Falsafa bo'yicha nashr etilgan har qanday darslikda tadqiqotchining metodologiyani to'liq rad etishi qattiq qoralanadi. Rad etishlar islom mafkurasi sharoitida tasavvuf namoyandalari qarashlarida ham uchraydi. Masalan, Alisher Navoiy "Lisonu-t-tayr" masnaviysining bir o'rmida

*"Kufru iymon rohravg'a kesh emas,
Asl yo'lda bandi rohi besh emas"*

(Lisonut-tayr, 191- bet)

(Mazmuni: kufr yoki iymon bu yo'lga kirgan kishi uchun maslak emas. Bular asl yo'ldagi to'siqdan boshqa narsa emasdir), desa, yana bir o'rinda

*"Chun suluk ichra ko'p erdi ixtilof,
Ko'pragi durd erdi, lekin ozi sof.*

*Kim ravishda sofi erdi mashrabi,
Bor edi ul tobe'i shar'i nabi"*

(Lisonut-tayr, 201- bet)

(Mazmuni: Suluk (yo'1) ichra ixtilof ko'p bo'lib, ulardan ko'pi quyqali, sofi esa oz. Bu sof tabiat egalari sirasiga payg'ambar shariati qonun-qoidalariga tobe bo'lganlar kiradi) deb, islomni boshqa dinlardan ustun qo'yadi.

Shuni alohida ta'kidlash joizki, faylasuflar metodologiyani to'la-to'kis rad etuvchilarni umuman tadqiqotchi deb sanamaydilar, chunki metodologiyasiz tadqiqotchi va tadqiqot bo'lolmaydi. Shuning uchun ular o'z metodologiyasining mohiyatini uqmagani tadqiqotchining qayoqqa borayotganligini bilmagan yo'lovchiga o'xshatib, uni johil, ongsiz taqlidchi va ergashuvchi deb sanaydilar. Lekin metodologiyani ongli ravishda rad etuvchi olimlarni (jumladan, tilshunoslarni ham) johil va nodon deb sanash insofdan emas. Zeroki, metodologiya, juda ko'p hollarda, narsada unda bo'lmagan xususiyatlarni "qidirib topish"ga, uni noto'g'ri talqin va tavsif qilishga, zo'rma-zo'rakilik bilan unda yo'q xislatlarni unga nisbat berish va haqqoniylikni buzishga olib kelishi mumkin. Bu, asosan, metodologik tamoyillarga ongsizlaricha yondashish, bu tamoyillarni mutlaqlashtirish (fetishizm), o'zaro bog'langan tomonlarni bir-biridan uzish, ma'lum bir dunyoqarash yoki fikrni zo'rlab "asoslash" va o'tkazishga intilish kabi hollarda bo'ladi. Tarixda bunga juda ko'p misollar mavjud. Chunonchi, Yevropada XIV–XVIII asrlarda nasroniy (xristian) inkvizitsiyasi hukmronligi davrida metodologik asos tamoyillari vazifasini Tavrot va Injilda (Bibliyada) bayon qilingan fikr va ma'lumotlar tashkil qilardi. Shuning uchun, masalan, Quyoshning Yer atrofida aylanishini "isbotlovchi" tadqiqotlar qo'llab-quvvatlanar (chunki Tavrotda shunday talqin etiladi), aks fikrni isbotlovchi ishlar shakkoklik va kufr deb sanalardi. Shuning uchun Jordano Bruno, Galileo Galiley kabi yuzlab siymolar jazolangan, xo'rlangan, ta'qib etilgan.

Shunday holat Sharqda ham (jumladan, O'zbekiston hududida ham) XV–XIX (hatto XX asr boshlarigacha) asrlarda islomiy teokratik davlatlarning mustabit hukmronligi davlatlarida sodir bo'ldi. Qur'oniylar dunyoqarash (metodologiya)ning mustabidlashishi (mutlaqlashtirilishi) IX–XIV va, hatto, XVI asrgacha gullab yashnagan ilmiy-ishlab chiqarish taraqqiyotini tamoman so'ndirdi, taraqqiyotni bug'di, xalq, davlat, fan, madaniyatni XIV–XV asr bosqichida zo'rlik bilan tutib keldi.

Shunga o'xshash holat SSSRda 30–80- yillarda stalincha nazariya va sotsialistik rejalashtirish metodologiyasini mutlaqlashtirish natijasida ro'y berdi. Iqtisodiyot qonunlari zo'rlab buzildi, bozor va tovar ishlab chiqarishning haqqoniy qonuniyatlari o'rnini sun'iy qonunlar egalladi, milliy qadriyatlar toptaldi. Natijada, iqtisodiyot, madaniyat va ma'naviyat izdan chiqdi. Mana, 25 yildan ko'proq vaqt o'tdiki, MDHning 300 mln. dan ortiq aholisi zo'rlik bilan o'tkazilgan metodologik tamoyillar asoratlarini tugatish, bozor, tovar ishlab chiqarish qonuniyatlarini, ma'naviyat va qadriyatlarini tiklash azobini tortib kelmoqda.

30–50- yillarda sho'ro tilshunosligi marksistik tilshunoslik deb yangi nom olgan ta'limot – N.Y.Marr ta'limoti metodologik tamoyillari iskanjasida qoldi.

Tarixiy, qiyosiy va sistemaviy tilshunoslikning barcha yo'nalishlari namoyondalari quvg'inga uchradi. Jahonning 1/6 qismini egallagan ulkan davlatda tilshunoslikning fan sifatida yo'qolishiga, uning o'rnini xayoliy uydirmalar egallashiga sal qoldi²³.

Keyingi mavzularda metodologiya masalasida "so'z boshqa, amal boshqa"ligi xususida muayyan misollar asosida to'xtalinadi. Shuning uchun tadqiqotchi metodologiya va metodologik tamoyillarga ongillik bilan yondashib, biror tamoyilni ham mutlaqlashtirmasligi lozim.

Navbatdagi mavzular ilmiy tadqiq metodologiyasi har bir omilining asosiy tamoyillari, ularning amaliyot chegarasi va sharoitlari masalasiga bag'ishlanadi.

Til birliklarini fahmiy o'rganish, uning maqsad, usul va vositalari

Tayanch tushunchalar

fahm, fahmiy bilim, fahmiy bilish bosqichi, sezgi turlari, sezgi a'zolari, empirik, empirizm, sensual, sensualizm, atomizm, nominalizm, sezgi a'zolarini kuchaytiruvchi vositalar, tavsiflovchi (описательное), moslashtiruvchi (резонирующее), haqiqiy ilmiy (подлинно научное), empiriokritik, praktik, eksperimental kabi baynalminimal, чувственное, опытное, внешнее, hissiy, fahmiy, zohiriy, tashqi, tajribaviy

Falsafiy adabiyotlarda **fahm, fahmiy** tushunchasi juda ko'p hollarda turli-tuman atamalar bilan beriladi. Chunonchi, empirik, **sensual, empiriokritik, praktik, eksperimental** kabi baynalminimal, **чувственное, опытное, внешнее** kabi ruscha, **hissiy, fahmiy, zohiriy, tashqi, tajribaviy** kabi o'zbekcha atamalar shular jumlasidan. O'zbek va rus tillaridagi ilmiy (xoh falsafiy, xoh lingvistik) adabiyotlarda baynalminimal atamalar ham keng va erkin qo'llaniladi. Bu atamalarning barchasi bir turdagi bilish va uning mahsuli – bilimni ifodalaydi. Atamalarning har biri fahmiy o'rganishning ma'lum bir qirrasiga alohida e'tibor beradi. (Chunonchi, ayni bir shaxsni «Karim akaning o'g'li» deb ham, «Rahimjonning akasi» deb ham atay olinganidek. Shuning uchun bu atamalar lingvistik sinonim, aniqrog'i, dubletlar deb qaralishi lozim.) O'quv monografiyada **fahm, fahmiy** atamasidan ko'proq foydalaniladi.

²³Marrchilarning talqinlaridan bir misol: o'zbekcha *qishloq, o'tloq* so'zlaridagi *-loq* qo'shimchasi tarixan yunoncha "joy, o'rin" ma'noli *lok* so'zi bilan aynan emish. Bu "nazariya" haqida qarang: Усмонов С. Умумий тилшунослик. –Т.: Уқитувчи, 1972; Нурмонов А. Ўзбек тилшунослиги тарихи. –Т.: Шарқ, 2002.

Buning sababi shundaki, mumtoz adib va oriflar (jumladan, Yusuf Xos Hojib, Alisher Navoiy, Fariduddin Attor va b.) tasavvufda (islomiy dialektik falsafada) bilish va bilimning ikki turini:

- a) *fahm va fahmiy*;
 - b) *idrok va idrokiy* kabi
- maxsus atamalar bilan nomlaydilar.

Chunonchi, Alisher Navoiy "Lisonut-tayr"ning birinchi bo'limida yozadi:

*Aylagach doir to'quz aflokni,
Qosir etdi fahmidin idrokni.*

(Mazmuni: *U to'qqiz falakni aylanuvchi qilib yaratdi va fahm sababli uni idrok qilishni qusurli, kamchilikli qildi, ya'ni hodisalarni idrokiy bilish uchun fahmiy bilish to'siq bo'ldi*).

Shuning uchun bu atamalardan kengroq foydalaniladi, vaholanki, amalda bo'lgan falsafiy adabiyotlarda (jumladan, Ж.Туленов, З.Фафуров. Фалсафа. –Т.: Ўқитувчи. 1991. – Б. 263–270), o'quv qo'llanmalarda **fahmiy** atamasi ma'nosida rus tilidan kalkalashtirilgan **hissiy** atamasi qo'llanilgan. Mumtoz mutafakkirlar ishlatgan atamani qo'llash qadriyatlariga hurmat va e'tibor ramzi.

Fahmiy bilish va fahmiy bilimlarning umumiy mohiyati o'zbek fanida falsafa bo'yicha yuqorida eslatilgan o'quv qo'llanmalarida, shuningdek, Манилов А, Хасанов М. **Описание и объяснение**. –Т.: Узбекистан. 1969; **Методологические проблемы науки**. –М.: Наука. 1982; Ойзерман Т.И. **Эмпирическое и теоретическое: различие, противоположность, единство** // *Вопросы философии*. 1985, – № 4. 49–61- б. va tilshunoslik bo'yicha fahmiy bilish va uning natijalari mohiyati Иванов С. **Родословное древо тюрков. Грамматический очерк**. –Т.: Фан. 1969; Бозоров О. **Узбек тилида даражаланиш**. –Т.: Фан. 1995; Неъматов Х, Бозоров О. **Тил ва нутқ**. –Т.: Ўқитувчи. 1993; Солнцев В.М. **Язык как системно-структурное образование**. –М.: ИВЛ, 1970., 1972; Жабборов Н, Неъматов Х, **Назарий билим методологияси** // *Ўқитувчилар газетаси*, 1989, 1- сон, 2 январь kabi tadqiqotlarda izohlangan.

Tadqiq manbai bo'yicha fahmiy bilimlar insonning sezgi organlari vositasida hosil qilinadi. Unli va undoshlarning artikulyatsion va fiziologik xususiyatlari (qayerda va qanday usullar bilan hosil bo'lishi, tovushlarning cho'ziq-qisqaligi, kuchsiz-kuchliligi, jarangli-jarangsizligi, aniq-noaniqligi, tovushlarning bir-biriga ta'siri asosida o'zgarishlari, urg'u, ohangning xususiyatlari, gap va matnning fonetik bo'linishi va h.), so'z va qo'shimchalarning konkret (muayyan, nutqiy) ma'nolari, so'z birkimalari va gaplarning konkret ma'nolari, nutqning u yoki bu turi va uslubning muayyan o'ziga xosliklari, alohida yozma yodgorliklarning tanqidiy-tahliliy nashrlari, asosan, fahmiy bilish usulida hosil qilingan bilimlar mahsuli. Bundan tashqari:

– yozma yodgorliklar, lahja va shevalarda tovushlar, qo‘shimchalar, so‘zlar, so‘z birikmalari, gaplarning qo‘llanilishidagi o‘ziga xosliklarni qayd etish va tavsiflash;

– nutqiy hodisalarni, voqelanishlarni to‘plash, saralash, turli guruhlarga ajratish va birlashtirish, sistemalashtirish;

– turli-tuman: izohli, ko‘p tilli lug‘atlar tuzish;

– adabiy til me‘yorlarini o‘z ichiga olgan mukammal grammatikalar yaratish;

– til birliklarining qo‘llanilish me‘yorlarini belgilovchi tavsif va tavsiyalarni ishlab chiqish kabi juda ko‘p turli lingvistik tadqiq va izlanishlar ham fahmiy bilish mahsuli.

Ma‘lumki, insonning sezgi organlari juda oqiz. Shuning uchun u o‘z sezgi organlarini xilma-xil asbob-uskunalar (mikroskop, teleskop, rentgenograf, otsilloqraf, spektroskop, sinxronoskop, sinxofizotrop, sinxosiklotrop, usititel, EHM v. h.) vositasida kuchaytiradi, fahmiy bilish qudratini oshirib, uni tobora aniqlashtiradi. Xilma-xil hisoblagichlar vositasida hodisalarning qo‘llanilish chastotasini muayyanlashtiradi, ularni qayd qiladi. Fahmiy usul bilan tilshunos til birliklarining tashqi (ochiq, zohiriy) belgi-xususiyatlari haqida bilim hosil qiladi. Bunday bilimlar hosil qilishda nutqda voqelangan, bevosita kuzatishda berilgan nutqiy birliklar (tovush, bo‘g‘in, qo‘shimcha, so‘z, so‘z birikmasi, gap, matn) alohida-alohida olinib, tashqi – fizik belgilari aniqlanadi va tavsiflanib, sistemalashtiriladi.

Fahmiy bilish, asosan, nutq birliklarini alohidalik, hodisa, voqea va oqibat (qisq. AHVO) sifatida tahlil va tavsif etgani sababli bunday tadqiq usuli fanda *atomistik* tahlil deb ham yuritiladi.

Fahmiy bilimlar istagan fanda, jumladan, tilshunoslikda beqiyos ahamiyatga ega. Ular barcha turdagi nazariy ishlar uchun zamin, moddiy asos. Shuning uchun XX asr sistem-struktur tilshunoslik asoschilaridan biri (qar. Акта лингвистика. Валум и. Фасс. Ч. I. Копенгаген. 1932²⁴) I.A. Boduen de Kurtene tilshunoslikni:

I) tavsiflovchi (описательное);

II) moslashtiruvchi (резонирующее);

III) haqiqiy ilmiy (подлинно научное)

sifatida uchga ajratib, fahmiy – til birliklarini haqida zaruriy moddiy ma‘lumotlarni beruvchi tavsifiy tilshunoslik haqida shunday yozadi:

“Tom ma‘noda empirik bo‘lgan *tavsifiy yo‘nalish* mutlaqo zohiriy dalillarni to‘plash va umumlashtirish bilan band bo‘lib, ular orasidagi sababiy bog‘lanishlarni, genetik va qarindoshlik aloqalarini tushuntirib berishni maqsad qilib qo‘ymaydi. Bu yo‘nalish tarafdorlari faniy zakovat

²⁴Daniyalik tilshunos V.Bryondal (1887–1942) shunday yozadi: “Эта новая лингвистическая концепция, которой мы обязаны не только Соссюру, но и другим ученым, среди которых почетное место занимает Бодуэн де Куртенэ, обнаруживает значительное и очевидное преимущество (kursiv – mualliflamiki)” (Звегинцев В.А. История языкознания XIX–XX вв. в очерках и извлечениях. Часть II. –М., 1965. –С. 97.)

deganda tasviriy grammatikalar yaratish, lug'atlar tartib berish, yodgorliklarni nashr etish kabilarni tushunadilar. Lingvistik ma'lumotlarni aynan, hech qanday xulosalarsiz beradilar. Xulosalarni berishni hali barvaqt yoki uni katta jur'at talab qiluvchi ish deb biladilar.

Bu, bir tomondan, ular aqlining o'ta tanqidiy ruhliligi va ishonmovchiligidan, aniqrog'i, haqiqiy fanni inkor qilish va vaqti kelgach, asossiz bo'lib qolishidan cho'chib, xulosa va gipotezalar berishda xato qilib qo'yishdan tiyilishdan, boshqa tomondan, aqliy yalqovlik, material to'plash maqsadi va foydasi haqida o'z-o'ziga vijdonan hisob berishdan qochish, fanni quyi, empirik mashg'ulotlar darajasida, qandaydir maqsadsiz o'yinchoq sifatida tutib turish istagi ustuvorligidan kelib chiqadi. Bunday tadqiqotchilar dalillarni tushuntirib berishni *ad acta, ad meliora tempora* (bo'lg'usi qulay vaqtlar)ga qoldiradilar. Lekin uning ibtidoiy, sof zohiriy tushuntirishdan iborat bo'lgan pirovard maqsadi (balki, umuman, foydalidir,) bevosita o'zi uchun, fan uchun sariq chaqaga ham arzimasligini, faqat boshqa olimlar uchun halol vijdon ila ishonchli materiallar to'plab berayotganligini unutilib qo'yadilar. Biroq fan sari ilk qadam, tayyorgarlik sifatida tasviriy operatsiyalar juda muhim, buning ustiga, fan uchun birinchi shart aniq va halol kuzatish bo'lib, u mukammal holda ayrim kishilargagina xos. Zero, hamma qaraydi, lekin har kim ham ko'ravermaydi. Yaxshi tasviriy grammatikalar yozish, yodgorliklar nashr etish va lug'atlar tuzish har doim ham fanning birinchi ehtiyoji bo'lib qolaveradi, chunki ularsiz hatto ulkan nazariyalar ham asossiz deb baholanadi.”²⁵

Tilshunoslikda fahmiy bilimlar majmualariga hech kim I.A.Boduen de Kurtenedan aniqroq baho bermagan va bu dahoning bahosini to'la-to'kis qabul qilish bilan cheklaniladi.

Falsafiy-metodologik adabiyotlarda narsani fahmiy o'rganish usullari *empirizm, nominalizm, sensualizm, atomizm, fenomenologizm* kabi atamalar bilan ham nomlanadi. Aytib o'tilganidek, bu atamalar narsaning va tadqiq usulining turli qirralariga ishora qilib turadi.

Mavzu yakunida shuni ta'kidlash mumkinki, barcha fanlarda bo'lgani kabi o'zbek tilshunosligida ham hozirgi kunda fahmiy bilimlar beradigan tadqiqotlar salmog'i juda yuksak, lekin baribir hali ham yetarli emas va davr yangi-yangi tavsifiy ishlar uchun zaruriyatlar tug'dirmoqda. Buning sabablari haqida navbatdagi mavzularda bahs boradi.

²⁵Звегинцев В.А. *Mazkur asar. 1- t. –M.: Учпедгиз, 1964. –С. 264–265.*

Til va uning birliklarini idrokiy o'rganish, uning maqsad, usul va vositalari

Tayanch tushunchalar

idrokiy bilish va idrokiy bilim, idrokiy bilim hosil qilish usullari, idrokiy bilim va amal, idrokiy bilim va fahmiy bilim orasidagi munosabat, ratsional, teoretik, kauzal, logik, sintetik, fenomenologik, умозрительное, умственное, обобщающее, aqliy, idrokiy, mantiqiy, nazariy, ichki, botiniy

Falsafiy-metodologik adabiyotlarda narsani fahmiy o'rganishga zid turgan bilish usuli **ratsional, teoretik, kauzal, logik, sintetik, fenomenologik** kabi baynalminal, **умозрительное, умственное, обобщающее** kabi ruscha va **aqliy, idrokiy, mantiqiy, nazariy, ichki, botiniy** kabi o'zbekcha atamalar bilan nomlanadi. Ruscha va o'zbekcha adabiyotlarda baynalminal atamalarining barchasini uchratish mumkin. Oldingi mavzularda sharhlangan sabablarga ko'ra, **idrokiy** atamasidan foydalaniladi. Eslatib o'tilgan falsafa o'quv qo'llanmalarida bu o'rinda **mantiqiy va aqliy** atamaları ishlatilgan.

Idrokiy bilim va uning mahsulining umumiy mohiyati oldingi mavzularda berilgan ilmiy-falsafiy va lingvistik-metodologik tadqiqotlarda sharhlangan. Shuning uchun tilshunoslik sohasidagi idrokiy bilimlarning xususiyatlari haqida bahs yuritiladi.

Tilshunoslikda idrokiy bilimlar AHVOlarni fahmiy o'rganish asosida aniqlangan va tavsiflangan hodisalar rang-barangligining sabablari va qonuniyatlarini ochib beradi va tushuntiradi. Shuning uchun umumiylik, mohiyat, imkoniyat va sabab (UMIS) tabiatiga ega bo'lgan idrokiy bilimlar fahmiy bilimlarga tayanadi va ular bilan asoslanadi.

Idrokiy bilimlar fahmiy usulda tavsiflangan AHVOlarning xususiyatlarini aqliy(idrokiy) usul bilan umumlashtirish, o'zaro aloqador AHVolar orasida bevosita kuzatishda berilmagan (Ya'ni, sezgi a'zolari bilan aniqlab bo'lmaydigan) munosabatlarni (o'xshashlik va farqlarni, aynanlik va ziddiyatlarni), shakl va ma'no bog'lanishlarini ochish, AHVOlarni UMIS tabiatli sistemalar ichida ko'rish usuli bilan hosil qilinadi. Idrokiy bilimlarni hosil qilishning hozirgacha yagona vositasi metodologiya va rang-barang umumlashtirish, munosabatlarni ochish va tavsiflash metodlari bilan qurollanmagan inson miyasi (ongi). Hech qanday asbob-uskuna, kuchaytirgich, "fikrlovchi mashina" bu turdagi bilim hosil qila olmaydi – bunday vositalar inson ongi, miyasi uchun idrokiy bilim (qonuniyat, hukm, xulosa) ishlab chiqishga faqat aniqroq material berishi mumkin, xolos.

Idrokiy bilimlar fahmiy usul bilan aniqlangan, tavsiflangan va sistemalashtirilgan hodisalar rang-barangligining sabablarini ochib beradi, deyildi. Bu quyida muayyan lingvistik misollar asosida ko'rib o'tiladi.

1. Butun dunyo tillarida assimilyatsiya (yonma-yon kelgan ikki tovushdan birining ikkinchisini o'ziga moslashtirishi) hodisasi keng tarqalgan. Buning sababi, tovushlarning artikulyatsiya o'рни va usuli xususiyatlari. Chunonchi, jarangsiz portlovchidan keyin bir havo oqimi bilan bir-biridan uzmay jarangli portlovchini talaffuz etib bo'lmaydi: Masalan, *ket* va *di* ni *ketdi* deb bo'g'inlarni bir-biridan uzmay talaffuz etish mumkin emas, shuning uchun u yo *keddi* (regressiv assimilyatsiya) yoki *ketti* (progressiv assimilyatsiya) talaffuziga ega bo'la oladi. Til o'z ichki xususiyatlari asosida u yoki bu ko'rinishni tanlaydi va uning ham sabablari bo'ladi.

2. Yana bir misol. O'zbek tilida so'z oxirida [d] va [t], [b] va [p] tovushlari talaffuzi farqlanmaydi. Buning sababi shundaki, bu ikki juft tovush o'zaro privativ munosabatda turadi²⁶ va bu oppozitsiya so'z oxirida neytrallashadi. Shuning uchun faqat oxirgi [b], [d] va [p], [t] tovushlari bilan farqlanuvchi biror juft sof turkiy so'zni uchratish mumkin emas.²⁷ Lekin bu qonuniyat [z] – [s] uchun (shu vaqtgacha sun'iy va noto'g'ri talqin etib kelinganiga qaramay) xos emas. O'zbek tilida [z] so'z oxirida jaranglilikini zaiflashtiradi, lekin yo'qotmaydi. Chunki [z] va [s] fonemalari so'z oxirida ham ma'no farqlash vazifasini saqlab qoladi. Chunonchi, *qiz-qis*; *suz-sus* ("jim tur" ma'nosidagi turkiy so'z); *kez – kes*; *iz – is*; *tiz – tis*; *oz – os*; *toz (kal) – tos* (dastlab, toshni o'yib yasalgan chuqur idish); *ko'z – ko's*; *o'z – o's*.

Shu sababli o'zbek tilida so'z oxirida [b] va [p], [d] va [t] orasida farq yo'qoladi, chunki bu fonemalarda so'z oxirida ma'no farqlash xos emas. Lekin [z] va [s] fonemalari orasidagi farq so'z oxirida ham saqlanadi.

3. O'zbek nutqida *gapirishga qo'rqdi – gapirishdan qo'rqdi*; *nonga to'ymadi – nondan to'ymadi* kabi sinonimik qurilmalar anchagina. Bu yerda odatda, bir-biriga zid bo'lgan (Qiyoslang: *maktabga keldi – maktabdan keldi*) *-ga* va *-dan* qo'shimchalari bir xil ma'no va vazifalarda kelgan. Buning sababini o'zbek tilida kelishik shakllarining paradigmatik munosabatlariga tushuntira oladi.

Sh.Shahobiddinova²⁸, Z.Qodirov²⁹ ko'rsatganlaridek, o'zbek tili kelishiklar paradigmasining bir bo'g'ini

[-da]

[-ga] / [-dan]

[-ni]

qurilishiga – oppozitsiyalar tizimiga ega va bunda [ga] – [dan] bir bo'g'inni egallaydi, ya'ni bir xil mohiyatga ega. Shuning uchun ayrim

²⁶Абдуазизов А. Ўзбек тилининг фонологияси ва морфонологияси. –Т.: Ўқитувчи, 1989.

²⁷*Sanad – sanat, bob – bop* kabi juftliklardan bittasi (yoki ularning har ikkalasi) noturkiydir.

²⁸Ш.Шаҳобиддинова. Умумийлик ва хусусийлик диалектикаси ҳамда унинг ўзбек тили морфологиясида акс этиши: Филол.фанлари доктори дис...автореф. –Т., 2001.

²⁹Қодиров З. Ўзбек тили грамматик категорияларини систем тадқиқ этиш. (Келишик категорияси): Филол. фанлари номзоди дисс. ...автореф. –Самарқанд, 1993.

holatlarda ularning o‘zaro ma’no va vazifadoshligi tasodifiy emas, balki qonuniy.

XX asrning 30- yillaridan beri o‘zbek gapining minimal (eng kichik) qurilish qolipi “**ega+kesim**” sifatida talqin qilinib kelinar edi. Bunday qolip haqiqatan ham G‘arbiy Yevropa va, qisman, slavyan tillari uchun xos. Turkiy tillarda kesimning morfologik strukturasi G‘arbiy Yevropa va rus tillaridagidan tubdan farq qiladi. M.Abuzalova, S.Nazarova, M.Qurbonovalar aniqlashganidek, kesim tarkibida shaxs/son ma’nolarining hamisha ifodalanganligi³⁰ gap tarkibida eganing ifodalanishini ortiqcha yoki qo‘shimcha qiladi. Bu esa, rus (yoki nemis) tilidan farqli ravishda, o‘zbek gapida, xususan, og‘zaki nutqda eganing eksplisit (moddiy ifodalangan) emasligi sababini ochib beradi. Bu sabab eganing o‘zida emas, balki kesimning morfologik tuzilishi xususiyatlarida yashiringan. Shuning uchun narsa haqidagi idrokiy bilim, fahmiy bilimlar kabi narsaning o‘zidan emas, aksincha, **o‘zga – shu narsa bilan munosabatlarda bo‘lgan narsalaro bog‘lanishlar chizmalaridan** hosil qilinadi. Shu bois idrokiy bilimlar hosil qilish jarayonida fahmiy bilimlar uchun beqiyos katta ahamiyatga ega bo‘lgan narsaning zohiriy, tashqi, shakliy belgilari orqaga chekinadi, narsaning aloqadorliklari bilan munosabatlari sistemasi, shu bilan bog‘liq ravishda uning mazmun va vazifa (funksiya) jihatlari hal qiluvchi omilga aylanadi.

Demak, fahmiy o‘rganishda narsaning shakl, moddiylik, zohiriy farqli belgi-xususiyatlari hal qiluvchi ahamiyatga ega bo‘lsa, idrokiy tahlilda asosiy e’tibor mazmun, vazifa, munosabat tomonlariga ko‘chiriladi. Narsaning zohiriy belgilari sezgi organlari uchun aniq bo‘lganligi bois ular har narsaning, ochiq, **bevosita kuzatishda berilgan xususiyatlari – tomonlari** deb aytiladi. Idrokiy o‘rganish uchun asos bo‘ladigan tomonlar – narsaning munosabatlar tizimi, butun ichida bo‘lakning o‘rni, qator oqibatlarini beruvchi sabablar – yopiq, **bevosita kuzatishda berilmagandir**, ular idrokiy tahlil asosida ochilishi mumkin. Bu usul bilan hosil qilinadigan bilimlarning aqliy, idrokiy yoki botiniy deb atalishiga ham sabab shu omil. Fahmiy (zohiriy) va idrokiy (botiniy) bilimlar narsaning (tadqiq manbayining) turli tomonlari asosida hosil qilinishi sababli ko‘p hollarda zohiriy, bevosita kuzatishda berilgan belgilar narsaning mohiyatini ochib beruvchi idrokiy tahlil uchun to‘siq bo‘lishi mumkin³¹. Mutafakkir Shayx Aziziddin Nasafiy bu haqda shunday yozadi: “Mulk va uning sifatleri ehsos (his) etiluvchidir va hislar ularni qabul qila oladi. Binobarin, soliklar xilvatda o‘tirganda nurni ko‘rdik, deganda, aslida nurni emas, balki nurga o‘xshash sarobni ko‘radilar va nur deb tasavvur etadilar. Biron narsani uzoq kutgan odam har bir narsada o‘zi istaganni ko‘rmoqchi bo‘ladi, hammadan o‘shani eshitmoqchi bo‘ladi yoki istagan

³⁰Qurbonova M. Hozirgi zamon ўzbek tili. Sodda gap sintaksisi uchun materiallar. –T.: Universitet, 2002; Abuzalova M. Hozirgi ўzbek tili. Morfologiya. –Buxoro: HS, 2003.

³¹Bu kundalik hayotda a l d a n i s h deb ataladi. Sarob, surat, tasvir, haykallarni haqiqiy deb bilish, o‘xshash narsa-hodisalarni aralashtirish kabilar shuning oqibatidir.

narsasini tushida ko'rib, o'zini uyg'oq deb xayol qiladi, zero, solih darveshlarning uyqusi juda yengil. Ularga haj qilish va avliyolar qabri, muqaddas joylarni ziyorat etish paytida ko'ringan yorug'lik – sarob va yolg'on. Ikki ko'z bilan ko'rish mumkin bo'lgan nur – olov yoki yulduzlar nuri.”³² “Lisonut-tayr”da Alisher Navoiy:

qosir etdi fahmidin idrokni

deb yozganida xuddi shuni nazarda tutgan. Masalan, *-t* va *-dir* istagan o'zbek uchun zohiran xilma-xil narsa. Lekin ortirma nisbat shaklini yasovchi vosita sifatida u bir morfemaning varianti: *qizdirmoq* – *qizitmoq*. Lekin *[-t]* va *[-dir]* kabi shaklan xilma-xil narsani bir mohiyatning ikki ko'rinishi sifatida qabul qilish “sog'lom aql” uchun ancha murakkab. Shuning uchun idrokiy bilim hosil qilish usullari **ratsionalizm, pozitivizm, funksionalizm, strukturalizm, semantizm, sistemalogiya** deb narsaning munosabatlari, butun ichida tutgan o'rni, vazifasi yoki bilimning hosil qilish vositasi asosida turlicha nomlanadi.

Tilshunoslikda fahmiy va idrokiy bilimlarni izchil farqlash sistemaviy tilshunoslikning (strukturalizmning) eng asosiy tamoyili – lison-nutq dixotomiyasida o'z aksini topadi va bu masala Sizga “Tilshunoslik nazariyasi” “Hozirgi o'zbek adabiy tili” kursidan atroflicha ma'lum.³³ Bu dixotomiyada *lison (til)* va *lisoniy* atamasi bilan ko'rsatilgan hodisa (UMIS)lar bevosita kuzatishda berilmagan, idrokiy bilish asosida tavsiflanadigan umumiyliklar, munosabat va qonuniyatlar bo'lsa, *nutq, nutqiy* atamalari, asosan, fahmiy usul bilan o'rganiladigan, bevosita kuzatishda berilgan xususiylik va voqeliklar – AHVolar.

Fahmiy bilimlar alohida olingan narsaning o'zi, uning shakliy-moddiy xususiyatlari, yashash va voqelanishi haqida ma'lumot bersa, idrokiy bilimlar shu narsaning o'zga aloqadorlari bilan munosabatlari, uning butun tarkibida tutgan o'rni, u yoki bu ko'rinish va vazifada voqelanish sabablarini ochib beradi. Idrokiy bilimlar hamisha fahmiy bilimlarga tayanadi va fahmiy bilimlar bilan isbotlanadi. Fahmiy bilimlardan uzilgan idrokiy talqinlar xayolparastlik, sun'iylik va zo'rma-zo'rakilik bo'lib, fan uchun ham, jamiyat uchun ham ziyon. Bunday xayolparastlikni Boduen de Kurtene “moslashtirish, muvofiqlashtirish va xayoliy” (*резонирующее, априористическое*) deb ataydi va uni shunday tavsiflaydi:

“Bu o'ta kamtarin va qat'iy yo'nalishga *xayoliy*, aprioristik, bachkana yo'nalish qarama-qarshi turadi. Bu yo'nalish vakillari hodisalarni tushuntirishga ehtiyoj sezadilar, ammo unga haqiqat taqozo qilgandek munosabatda bo'lmaydilar. Ular umumiy hollar uchun ham, xususiy

³²Насафий Шайх Азизиддин. Зубдат ул ҳақойиқ // Тафаккур, 1995, – № 3–4. –Б. 55.

³³Неъматов Х., Бозоров О. Тил ва нутқ. –Т.: Ўқитувчи, 1993; Раҳматуллаев Ш. Тил қурилишининг асосий бирликлари. –Т.: Университет. 2002; Неъматов Х., Расулов Р. Ўзбек тили систем лексикологияси. –Б. 7–36; Нурмонов А., Шаҳобиддинова Ш. в. б. Ўзбек тилининг назарий грамматикаси. Морфология. –Т.: Янги аср авлоди, 2001. –Б. 28.; Общее языкознание. Отв. ред. Б.А.Серебrenников. Формы существования, функции, история языка. –М.: Наука, 1970.

hollar uchun ham mashhur ibtidolar, aprior tamoyillarni o'ylab topadilar va bu tamoyillarga dalillarni behad andishasizlarcha tiqishtiradilar. Turli-tuman uydirma grammatik nazariyalarni tilga, lingvistik xulosalarni ilmning boshqa sohaları bo'lgan tarix, qadimshunoslik, etnografiya va b.larga qo'llashlar buning manbai. Bu behisob o'ylab topilgan va induktsiyaga asoslanmagan har xil tushuntirish va xulosalarning, ba'zan ularda sog'lom fikr mavjud emasligi haqidagi shubhali fikrlarning paydo bo'lishiga olib keladi. Bu ishi uchun janob etimologlarning o'zini ham jinnixonaga tashlaging keladigan bekorchi etimologiyalarni kim bilmaydi deysiz? Alkimyogarlar boshqalari undan urchigan ibtidoiy tanani yoki sirli buyuk yaratuvchi kuchni topishga uringanliklari kabi aprioristik yo'nalishning ayrim vakillari tilshunoslikda ham bir yoki bir necha tovushdoshlikdan insoniyat tilining butun boyligini keltirib chiqarmoqchi bo'ldilar. Bu zamonda hech kim alkimo bilan shug'ullanmaydi, biroq tilshunoslik olami uydirmachilik hukmronligidan hali-veri qutulishiga ham umid yo'q.

Endi bu aprioristik yo'nalish tilshunoslikda go'yoki ayrim uzuq-yuluq dalillarni bilishi bilanoq grammatik sistemalar quradigan, lisoniy hodisalarni mantiqiy ramkalarga, mantiqiy sxemalarga soladigan falsafiy maktab yaratishibdi. To'g'ri, bunday sistemalar olimlarning muvaffaqiyatli aqliy izlanishlarini, uyg'unlik va rasolik kasb etgan mantiqiy san'at yarata olishlarini ko'rsatadi; ammo ularning zo'rma-zo'raki, faktlarni buzib talqin qilishga asoslangan tor nazariyalari bamisoli sog'lom fikrlovchi kishilarning talablarini qoniqtirmaydigan havoyi qasrlarga o'xshaydi.

Agar tavsifiy, tom ma'noda empirik bo'lgan yo'nalish fan taraqqiyotiga g'ov bo'lsa, mazkur aprioristik, xayoliy va bachkana yo'nalish uni noto'g'ri yo'lga boshlaydi va shuning uchun o'ta zararli." ³⁴

Ma'lum bir g'oyalarni hodisalarga zo'rlab nisbat berish tadqiq manbaiga nominalistik yondashish va fetishizm (fetishizatsiya) – ma'lum bir narsa-hodisani mutlaqlashtirish fan va jamiyat uchun zararli. Sovet tuzumida fanda (jumladan, tilshunoslikda) va siyosatda (jumladan, milliy tillar va ularning tadqiq va ta'limida) fetishizm, ularning oqibatlarini ustida keyinroq fikr yuritiladi. Hozir faktlarni (jumladan, til hodisalarini) oldindan qabul qilingan bir g'oyaga bo'ysundirib tahlil etish, tadqiq manbaini g'oya yoki nazariyaga muvofiqlashtirib izohlash fan uchun, buyuk tilshunos ta'kidlaganidek, "o'ta zararli" ekanligini qayd etish bilan cheklaniladi; hodisalar, faktlar talqini g'oya-yu nazariyalarga emas, aksincha, g'oya-yu nazariyalar hodisalar, faktlarga tayanishi, asoslanishi lozim. Bu fanning istagan taraqqiyot bosqichida tadqiqotchi oldiga qo'yadigan birinchi va bosh talabi. Shu sababli tilshunoslik bo'yicha har bir *idrok*iy hukm va talqin hamisha mustahkam *fahmiy* zaminga ega bo'lmog'i shart.

³⁴Звегинцев В.А. Кўрсатилган асар. –Б. 265–266.

Idrokiy va fahmiy bilimlarning o‘zaro munosabati

Tayanch tushunchalar

idrokiy (aqliy, nazariy, ratsional) bilim; bilim-hukm-xulosa; bevosita kuzatishda berilganlik – zohiriy – tashqi – hissiy – moddiy; bevosita kuzatishda berilmaganlik – botiniy – ichki – idrokiy – mazmuniy – vazifaviy (funktional) narsaning o‘zi, o‘zga narsa; munosabat chizmalari; ilmiy talqinni g‘oyaga (nazariyaga) muvofiqlashtirish

Ilmiy tadqiqotda idrokiy hukm va xulosa fahmiy bilim, jumladan, tajriba va amaliyot bilan tasdiqlangan, isbotlangandan keyingina nazariya mavqeini egallaydi. Bunday tasdiq, isbot asosiga ega bo‘lmagan hukmlar faraz (gipoteza), taxmin, gumon yoki xayol (fantaziya) bo‘ladi, xolos.

Idrokiy bilimlar fan va jamiyat taraqqiyotida behad katta ahamiyatga ega. Tom ma’nodda fanning ijtimoiy-amaliy ahamiyati ham mana shunday bilimda. Zeroki, idrokiy bilim AHVONing sabab va qonuniyatlarini ochib berib, bu qonuniyatlardan jamiyat manfaati uchun, **jamiyatni o‘zgartirishda** ongli va izchil **foydalanishga** imkoniyat yaratadi, **kishilik jamiyatining rivojlanishini** ta’minlaydi. Quyidagi dalillarga murojaat qilaylik.

Qumg‘ondagi suv qaynaganda, qumg‘on og‘zining ochilib, yopilish hodisasi fahmiy usul bilan aniqlangan va tavsiflangan edi. Buni Forobiy ham, Beruniy ham tavsiflagan. Shu asosda bug‘ning vazni suvdan yengil, zichligi undan kam ekanligi haqida idrokiy xulosa chiqarilgan. Lekin bu qonuniyatdan amaliy foydalanishga mustabilashgan islomiy shariatning texnika taraqqiyotiga qat’iy man’i yengib bo‘lmas g‘ov bo‘lgan³⁵.

Yevropa fani va texnikasi nasroniylik inkvizitsiyasi qarshiligini yengib, Forobiy va Beruniyga ma’lum bo‘lgan qumg‘on qopqog‘ining ko‘tarilib-tushishi sababidan amaliy foydalanib, 1763- yilda I.I.Polzunov, 1774- yilda J.Uaytt bug‘ mashinasini yaratdilar. Bu Yevropada texnik revolyutsiyaning, fan, texnika, iqtisodning ko‘z ko‘rmagan, quloq eshitmagan tezlikda rivojlanishiga, bug‘ mashinasi, parovoz, paroxod, avtomobildan 100 yil davomida kosmik kemalarga o‘tishga, Sharqdan uzilib, ilgarilab ketishiga asos bo‘ldi. Sharq esa idrokiy bilim mahsulidan amaliy foydalana olmaganligi sababli Yevropadan keskin orqada qoldi. Vaholanki, IV–XIV (va hatto, XVI asrgacha) fan, texnika, madaniyat, san’at sohasida Sharq G‘arbdan ancha ilg‘or va ustun, ularni o‘z ta’sirida saqlayotgan, Yevropaning qator davlatlariga mustamlaka sifatida tazyiq o‘tkazayotgan edi. Akademik shoir G‘afur G‘ulom “Men yahudiy” she’rining juda ko‘p misralarida xuddi mana shu holatga ishora qiladi.

XIII asrda Kalom va tasavvuf birlashib, bu Sharq tafakkuri taraqqiyotida ulkan yutuqlarning qo‘lga kiritilishiga sabab bo‘ldi. Bunda

³⁵S.Ayniyning “Esdaliklar” asarining II–III jildlarini o‘qisangiz, buning guvohi bo‘lasiz.

Najmiddin Kubro, Farididdin Attor, Muhiyiddin ibn Al-Arabi, Jaloliddin Rumiy va Aziziddin ibn Muhammad an-Nasafiy kabi mutafakkirlarning xizmatlari behad katta bo'ldi.

Sharq falsafasi nomi bilan mashhur tasavvuf ta'limotiga yondashuvlar har xil mafkuraviy asoslarda turli tomondan turlicha talqin qilinib keldi. Xususan, sobiq kommafura hukmronligi sharoitida ateizm aqidalari asosidagi yondashuvda u ortodoksal islomning mistik oqimi sifatida qayd etilgan bo'lsa, respublikamizda istiqloq mafkurasi tarkib topishi va takomillashuvi natijasi o'laroq, ruhiy takomillashuvga erishish dasturi sifatida tan olinmoqda. Chunki mazkur shaxslarni "komil inson tadqiqotchilari" deyish mumkin. Ularning fikricha, inson koinotning kichraytirilgan nusxasi, insonda barcha ilohiy va moddiy olamlarning xislati jamuljam. Inson shuni anglashi va o'z ruhi – ilohiy javharni poklab, asl maqomiga qaytishi lozim".³⁶ Biroq Sharq falsafiy tafakkurining mag'zi bo'lgan dialektika taraqqiyoti va xususiyatlari nuqtayi nazaridan u falsafiy tadqiqotlarning maxsus o'rganish manbai bo'lmagan. Holbuki, bugungi kunda butun dunyo zamonaviy falsafasining "asosi" hisoblanayotgan g'arb dialektik ta'limotining asl qaymog'i sharq tasavvuf falsafasida mujassamlashgan. Bunga komillik tariqatiga o'zining munosib hissasini qo'shgan Shayx Aziziddin Nasafiyning "Zubdatul haqoyiq" (qisq. ZH) asarining metodologik qatlamini kuzatish asosida amin bo'lish mumkin.

Aytilganidek, metodologiya falsafaning tarkibiy qismi bo'lib, u fanning gnoseologiya (bilish nazariyasi) bo'limi bilan uzviy aloqador. Shuning uchun [ZH]da bilish asosi deganda tadqiqotchida kamida uch omilning mujassamlanishi va uning o'rganish mahsulida namoyon bo'lishi tushuniladi. Bular:

Birinchidan, solikning o'z talab manbai haqida qay turdagi bilimlarni hosil qilishga intilishi, bilishning qaysi turi bilan shug'ulanishi. Ma'lumki, falsafada narsa/o'rganish obyekti haqida tadqiqotchi ikki turdagi bilimlar hosil qilishi mumkin:

- a) fahmiy (hissiy, empirik) bilimlar;
- b) idrokiy (aqliy, mantiqiy, nazariy, teoretik) bilimlar.

Har bir turdagi bilimni hosil qilish yo'l, vosita va usullari ham, maqsadlari ham boshqa-boshqa. Shu boisdan [ZH] "olami kubro" va "olami sug'ro"ni bilish usul va vositalari farqlanadi, butunni o'rganish qismlarni tekshirish asosida bo'lishi haqidagi hozirgi zamon dialektik tamoyili "olami kubro" va "olami sug'ro" munosabati asosida talqin qilinadi. Fahmiy bilim idrokiy bilim asosi ekanligi ta'kidlanadi: "Olam o'zining avvalida ikki qismdan iborat: birinchi qism olami g'ayb (yashirin olam), ikkinchisi olami shuhud (ko'rinadigan olam) deb ataladi. Bu har ikki olamni miqdoriy va kulliy (umumiy, yaxlit) ma'no'larda turli nomlar bilan tilga oladilar. Masalan, xoliqiyat olami va amr olami; mulk olami va malakut olami; badan olami va ruh (jon) olami; hislar olami va shuur

³⁶Комилов Н. Насафлик буюк мутафаккир // Тафаккур, 1995. – № 3–4. – Б. 44.

olami; nur olami va soya (zulmat) olami va shu kabilar. Bu nomlar har ikki olam – olami ayb va olami shuhudga ishora.³⁷ Demak, ko'rinadiki, mutafakir qarashlarida hozirgi zamon gnoseologik ta'limotining asosiy tushunchalari – *empirik* va *nazariy bilish* hamda ularning obyektlari qat'iy farqlangan.

Ikkinchidan, tadqiqotchining tadqiq manbai/narsaga qanday usul bilan yondashishi. Bunda ikki usul borligi aytiladi:

- a) nominalistik yondashish;
- b) dialektik yondashish.

Nominalistik va dialektik yondashuv, nominalistalar va dialektiklar [ZH]da ahli shariat va ahli hikmat munosabatlari ko'rinishida talqin etiladi. Ahli shariat fikricha, "bu dunyoga kelgan har bir ruh muayyan chegaraga ega bo'ladi va avvalgi yeb-ichishi, qancha so'zlashi, nimalarni o'rganish va o'ylashi va hokazolar oldindan belgilangan bo'ladi. Haqning irodasi va ilmidan tashqari daraxt yaprog'i qimirlamaydi yoki odam biron narsani niyat qilmaydi.

Ey darvesh, ammo bu fikr ishtibohli. Ahli hikmat (ya'ni faylasuflar) fikriga ko'ra esa ilm ma'lumga (bilib olganga) bo'ysunadi."³⁸

Uchinchidan, hozirgi zamon dialektikasi uqtirishicha, tadqiqotchining materialistik yoki idealistik (ruhoniy) nuqtayi nazarda turishi va shu nuqtayi nazardan turib ilmiy tadqiqni olib borishi. Aziziddin Nasafiy qarashlarida **zot va tajalli** olami – xoliqiyat olami va amr olami, mulk olami va malakut olami, badan olami va ruh (jon) olami, hislar olami va shuur olami, nur olami va soya (zulmat) olami kabilar asosida materialistik va idealistik yondashuvlar farqlanadi. Bunda faqat ruhoniy bilim materialistik bilim asosida ekanligi ta'kidlanadi: "Ey darvesh, sen kichik olamsen, butun olamning o'zi esa ulug' olam. Sen har ikki olamning kichraytirilgan nusxasi va timsol – belgisisan. Ulug' olamda bor narsalar kichik olamda mavjud. Ey darvesh, ulug' olamning avvalu oxiri, zohiru botini, mohiyat va shakllarini idrok etish uchun o'zingning mohiyating, zohir va botiningni anglab yetgin. Bundan boshqa yo'l yo'q. Ey darvesh, narsa-hodisalarning qandayligini bilmoqchi bo'lsang, o'zingning qandayligingni bilib olishing kerak."³⁹

Bilish usullari va turlarining xilma-xilligi Aziziddin Nasafiy talqinida quyidagi ko'rinishga ega: "Dunyoning barcha kishilari bu nurni (haqiqatni – *mualliflar*) izlab talpinadi, ammo ular bu nurni o'zlaridan tashqarida izlaydilar va qancha izlasalar, undan shuncha uzoqlashadilar."⁴⁰

Idrokiy bilimlarni amaliyotda qo'llash jamiyatdan ma'lum bir shart-sharoitlarni, ma'naviy va moddiy zaminni talab qiladi. Idrokiy bilimlar ochilgan paytda juda ko'p hollarda jamiyatda bunday zamin tayyor

³⁷Насафий Шайх Азизиддин. Зубдатул ҳақойиқ // Тафаккур, 1995. – № 3–4. –Б. 45.

³⁸Насафий Шайх Азизиддин. Курсатилган асар. –Б. 48–49.

³⁹Насафий Шайх Азизиддин. Курсатилган асар. –Б. 45.

⁴⁰Насафий Шайх Азизиддин. Курсатилган асар. –Б. 53.

bo'lmaydi. Shuning uchun Albert Eynshteyn 1905- yilda ochgan nisbiylik gipotezasi oradan qariyb 40 yil o'tgach, nazariya sifatida qabul qilindi.

Bugungi tilshunoslikda ham milliy istiqloq natijasi o'laroq, ona tilimizning ichki qurilish qonuniyatlari asosida ona tili ta'limini tubdan yangilashga, tilimiz grammatik qurilishini (grammatikasini) tafakkurimizga mos shaklda yangicha talqin etishga zamin paydo bo'ldi. Shuningdek, ona tili ta'limi asosida bolalarimizda ijodiy tafakkur ko'nikmalarini rivojlantirishga, milliy ongning gullab-yashnashi, milliy mafkuraning gurkirashi uchun mustahkam poydevor qurildi. Afsuski, idrokiy bilimlarning amaliyotga tatbiqi bo'lgan ishning keng rivojlanishida va ommalashib, moddiy kuchga aylanishida jiddiy ma'naviy va moddiy to'siqlar mavjud. Ma'naviy to'siq sifatida yangi grammatik va metodik talqinlarning, talab qilinadigan ish uslublarining o'qituvchilar ongiga singmaganini, ta'lim tizimida o'qitiladigan boshqa (xorijiy) tillar ta'limi tamoyillari bilan ona tili ta'limining muvofiq emasligini va uzluksiz ta'lim tizimining turli bosqichlari orasida ona tili ta'limida uzviylik va davomiylikning zaifligini ko'rsatish mumkin.

Moddiy to'siq sifatida esa, o'quvchi va o'qituvchilar tasarrufida ona tilimiz imkoniyatlarini o'zida mujassamlashtirgan axborot banklarining (lug'at va qomuslarning), ulardan mustaqil va kompyuterlar yordamida foydalanish algoritmalarining yo'qligini san'at o'tish mumkin.⁴¹

Idrokiy bilimlar hamisha o'z davri shart-sharoitlaridan ancha oldinda bo'ladi. Shuning uchun ulardan ko'pchiligi o'z davri kishilari tomonidan g'ayrioddiy, "aql bovar qilmas"dek qabul qilinib, ko'p hollarda, inkor qilinadi. Lekin bu bilimlar obyektiv (haqqoniy). Davrlar o'tishi bilan ular o'z amaliy tatbiqi uchun zamin hozirlaydi va tug'ilgan joyidami, undan behad uzoqdami, baribir amaliyotga o'tib, jamiyat taraqqiyotiga halol xizmat qiladi. Buni IX–XX asrda qilingan barcha buyuk kashfiyotlar va ochilgan ulkan qonuniyatlar tasdiqlaydi.

Fanimizda ham bunga misollar talaygina. Chunonchi, XX asrning boshlarida (1925- yilda) Abdurauf Fitrat o'zbek gapining markazi kesim ekanligi g'oyasini ilgari surdi. Lekin 30–80- yillarda sovet fetishizmi ta'siri ostida bu talqin (millatchilik, o'zbeklarni ruslardan uzoqlashtirishga qaratilgan faoliyat sifatida) nafaqat rad etildi, balki aksilinqilobiy harakat sifatida ta'qib qilindi. Istiqloq sharofati bilan bu talqin rivojlantirilmogda. Grammatik talqinning millat tafakkuri xususiyatlariga hamohangligi esa ona tili vositasida ijodiy fikrlash ko'nikma va malakalarini takomillashtirishga xizmat qilib, o'z navbatida millat tafakkurining (milliy ong va o'zlikni anglashning) yalpi o'sishini ta'minlaydi va ilmiy-texnikaviy inqilobga zamin hozirlaydi.


⁴¹Bu va bu kabi murakkabliklar, ularni bartaraf etish choralari 2003- yilning oktabrida Qo'qon shahrida o'tkazilgan ilmiy konferensiyada atroflicha muhokama etildi. Qar.: "Узбек тили буйича ДТСларни жорий этиш масалалари. Республика илмий-амалий конференцияси материаллари. – Қўқон: Қўқон ДПИ нашри. 2003.

Istagan millat yoki xalq vakillari tomonidan ochilgan, kashf etilgan idrokiy bilimlar (munosabatlar, qonuniyatlar, bog'lanishlar, tizimlar) umumbashariyat, butun insoniyat mulki. Mana shuning uchung yunonistonlik Arastu va osiyolik Forobiyini, angliyalik Nyuton va osiyolik Beruniyni, Aflotun va Ibn Sinoni, Kopernik va Ulug'beklarni butun insoniyat bir xil hurmat qiladi; Sharqu G'arbda "Muallimi avval" Arastu (Aristotel, Aristotilus) sanalsa, "Muallimi soniy" – Abu Nasr Forobiy. Bir millat vakili qo'lga kiritgan fahmiy bilimlar asosida juda ko'p hollarda ikkinchi millat vakili idrokiy xulosalar chiqaradi, uchinchi biri esa bu idrokiy qonuniyat asosida yangi tajriba-sinov ishlarini yo'lga qo'yadi. Chunki fan ham, fahmiy va idrokiy o'rganish samaralari ham chegara bilmaydi.

Fahmiy va idrokiy bilimlar orasida keskin chegara qo'yish mumkin emas. Zero, ular o'zaro bog'liq va hamisha biri ikkinchisi asosida rivojlanib boradi. Xususan, tilshunoslikda ham shunday. Istagan tilshunos (boshqa fanlar tadqiqotchilari kabi) xoh fahmiy, xoh idrokiy turdagi tadqiqotni amalga oshirar ekan, shu fan sohasida, xususan, o'rganish manbai doirasida qo'lga kiritgan ilmiy yutuqlar – narsani fahmiy va idrokiy o'rganish natijalari bilan chuqur tanish bo'lmog'i, ularga tayangan holda tadqiqni davom ettirishi lozim. Ikkinchidan, barcha turdagi idrokiy bilimlar narsaning moddiy, fahmiy belgi-xususiyatlari haqidagi bilimlarga tayanadi. Boshqa tomondan, barcha turdagi idrokiy hukmlar amaliyotga tatbiq bilangani tasdiqlanadi. Shuning uchun Immanuil Kant (1724–1804) "Naqiqat mezoni amaliyotdir" shjorini o'rtaga tashladi.⁴²

Bilimlar zamini tajribadan hosil bo'ladi, inson ongida qayta ishlanadi, qonuniyatlar ochiladi va yana amaliyotga tatbiq etilib, sinovdan o'tkaziladi, tasdiqlanadi. Idrokiy tahlil va umumlashtirishlar asosida ochilgan qonuniyatlar yangi turdagi tajribalarga, ular asosida yangi bosqichdagi fahmiy bilimlarga, keyingilari yangi bosqichdagi idrokiy bilimlar – yangi, yana mukammalroq, chuqurroq qonuniyatlarni, tizimlarni, oldin tasavvur ham etib bo'lmas aloqa va munosabatlarni ochishga asos bo'laveradi. Shuning uchun fahmiy va idrokiy bilim hamisha bir-biriga tayanib, bir-birini aniqlab, narsani bilishning cheksiz jarayonida uni o'rganishda turli bosqichlar sifatida almashinib ketaveradi. Buni shartli ravishda quyidagi chizmada berish mumkin.

(FB – fahmiy bilim, IB – idrokiy bilim)



3- чизма

⁴²Асмус В. Ф. Иммануил Кант. –М.: Наука, –С. 42–52.

Mana shu usul bilan inson ongi narsaning ma'lum bir bosqichdagi mohiyatidan undan chuqurrog'i (yuqorirog'i)ga ko'tarilib boraveradi.

Idrokiv va fahmiy bilimlarning bir-birini to'ldirishini hozirgi kunda kompyuter texnikasining taraqqiyoti, yutuqlari, fan-madaniyatdagi ahamiyati misolida ko'rish mumkin. Tilshunoslik, fizika (elektronika) va matematika fanlari kesishuvida kompyuter texnologiyasi shakllandi va rivojlanib bormoqda. Ma'lumki, kompyuter **til** bilan ishlaydi: u tilning ramziy tizim – shartli belgilar (simvollar) sistemasi ekanligiga tayanadi.⁴³ Faqat kompyuter tili (tillari) tabiiy tildan ko'ra ancha sodda, unda insoniy tilga xos bo'lgan o'nlab antinomiya (dialektik ziddiyat va zidlanishlar, chunonchi: shakl-mazmun, mazmun-vazifa, turg'unlik-o'zgaruvchanlik, taraqqiyot-tanazzul, yaratish-yo'qotish, yangi-eski, faoliyat-mahsul, sabab-oqibat, umumiylik-alohidalik va h. zidligi va birligi asimmetriyasi⁴⁴) xos emas. Kompyuter tili juda sodda, so'zlari bir ma'noli, aniq, miqdori tabiiy tildagidek son-sanoqsiz emas. Kompyuter tilining imkoniyatlari ham cheklangan. Nutqi hozircha faqat yozma,⁴⁵ o'z-o'zidan rivojlanish qobiliyatiga ega emas. Shuning uchun kompyuter tili mutaxassislar tomonidan yildan-yilga mukammallashtirilib boriladi. Agar ilk kompyuter tillarini (jumladan, "beysik") hozirgi tillari bilan solishtirsak, buning guvohi bo'lish mumkin. Yaqin-yaqin vaqtlargacha kompyuter tiling "ko'zi" faqat (bugun eskilikka aylangan) perfokartalarnigina o'qiy olar edi. Bugun u ma'lumotlarni displeydan oladi. Erta-indin kompyuter tovush va harflarni bimalol og'zaki/yo'zma matndan tushunadigan (o'qiy oladigan va eshita oladigan) bo'ladi – "savodi chiqadi". Kompyuter tilining soddaligini, masalan, tabiiy va sun'iy mato (charm, gazlama va h.) sodda/murakkabligi bilan qiyoslash mumkin. Shuning uchun kompyuter tili **sun'iy til** deb ataladi. Uning ham o'z birliklari, grammatikasi, hatto, stilistikasi bor.

Idrokiv bilimlar amaliyotga tatbiq etilmasa, quruq yog'och, bemeva daraxt, u hech qanday samara bermaydi.⁴⁶ Forobi va Beruniylarga ma'lum bo'lgan bug'ning suvdan ko'ra yengil va siyrakligi kashfiyotiday asrlar davomida "bekor", quruq gap bo'lib qolaveradi. Shu 700 yil "bekor"

⁴³Журавлёв А., Павлик Н. Язык и компьютер. –М.: Просвещение, 1989. –С. 160.

⁴⁴Махмудов Н. Тил. –Т.: Ёзувчи, 1998. – Б.40; Нурмонов А., Шаҳобиддинова Ш. ва бошқ. Ўзбек тилининг назарий грамматикаси. Морфология. –Т.: Янги аср авлоди, 2001; Махмудов Н., Нурмонов А. Ўзбек тилининг назарий грамматикаси. Синтаксис. –Т.: Ўқитувчи, 1995; Неъматов Ҳ., Расулов Р. Ўзбек тили систем лексикологияси асослари. –Т.: Ўқитувчи, 1995; Карцевский С. Об ассимметрическом дуализме лингвистического знака // Звегинцев В.А. Мазкур асар. 2- т. –Б. 85–90; Скаличка В. Ассимметрический дуализм языковых единиц // Пражский лингвистический кружок. –М.: Прогресс, 1967.

⁴⁵Tilimizda esa nutqning asosiy shakli og'zaki. Undan tashqari imo-ishora va b. nutq shakllari ham mavjud.

⁴⁶Зикриллаев Ф. Назария – қуруқ оғоч // Истиклол ва она тили қурилиши, талқини ҳамда таълими. –Т.: Фан, 2000. –Б. 15–26.

yotgan oddiy qonuniyat – idrokiy bilimning amaliyotga tatbiqi esa bug' mashinasidan 200 yil davomida kosmik kemalar-u kompyuterlarga olib keldi. Axir, XVIII–XIX asr dvigatellarisiz atom energetikasi va kvant mexanikasi rivojlana olmas edi.⁴⁷ Bularsiz esa elektronikani, elektronikasiz kibernetikani, kibernetikasiz kompyuterlarni, kompyutersiz hozirgi zamonni tasavvur etib bo'lmaydi. Bilimning qiymati amaliy tatbiqda ekanligini shayx Muslihiddin Sa'diy Sheroziy "Ilmini (ya'ni idrokiy bilimlarini) amalda qo'llay olmaydigan olimdan ustiga kitob ortilgan eshak yaxshi", – degan so'zlari bilan alohida ta'kidlagan ekanlar, chunki eshak ustidagi kitoblarni kimdir o'qib, bilimlar asosida yangi tajribalar o'tkazishi va yangi bosqichdagi bilimlarni qo'lga kiritishi mumkin.

Idrokiy va fahmiy bilish va bilimlarning o'zaro birligi va bog'liqligi Sharqning mashhur "ilmu amal" iborasida ham o'z aksini topgan. Siz olim-u olimalar oldida ham ilmu amal birligini ta'minlash vazifasi turadi. Bu Vatanimiz, xalqimiz ravnaqining asosiy shartlaridan biri.

Til tadqiqiga yondashish usullari

Tayanch tushunchalar

nominalistik yondashuv, dialektik yondashuv, fahmiy yondashuv, fahmiy bilish, zohiriy belgi, narsa o'zida, botiniy xususiyat, narsa o'zga narsa uchun

Har bir narsa-hodisa borliqda mavjud ekan, u o'ziga xos bir alohidalik, mustaqil va turg'un. Zohiran u kuzatuvchiga mana shunday – alohida, mustaqil va turg'un, barqaror ko'rinadi. Odamning "sog'lom aqli" uni mana shunday taraqqiyot va aloqadorliklardan uzilgan, obyektiv voqeilik (falsafada "narsa o'zida", tasavvufda "fih mo fih") sifatida qabul qiladi. Shuning uchun narsaga shunday – **mustaqil, barqaror, alohidalik** sifatida yondashib, uni o'rganish mumkin. Falsafada *nominalizm* deb ataladigan bunday yondashish – tadqiq manbaiga turg'un, tadqiqotchining sezgi a'zolari vositasida qabul qilinadigan alohida hodisa sifatida yondashish – **nominalistik** yondashishning bir ko'rinishi.⁴⁸

Nominalistik yondashuvchi tadqiqotchi o'z hukm va xulosalarini oddiy (yoki formal) mantiq, formal logika qonun-qoidalari asosida quradi va unda ma'lum bir narsaga nisbatan tasdiq va inkor mazmundagi ikki hukmdan faqat bittasigina to'g'ri bo'la oladi, xolos. Zero, formal logikaning qat'iy qonunlaridan biri uchinchi mustasno qonuni.⁴⁹

⁴⁷Кузнецов Б.Г. Эйнштейн. –М.: Изд. АН, 1962. –С. 468.

⁴⁸Bunday yondashishning sensualizm (sens – sezish, tuyish so'zidan), atomizm (atom – alohida zarra so'zidan), empirizm (empiria – tajriba so'zidan), empiriokrititsizm va b. atamalar bilan nomlanishi ham shu bilan bog'liqdir.

⁴⁹Хайруллаев М., Ҳақбердиев М. Мантик, –Т.:Ўқитувчи, 1993. –Б. 92–95.

Nominalistik yondashish juda ko'p hollarda fahmiy bilish bilan bog'liq bo'ladi, chunki fahmiy bilish usulida narsaning taraqqiyoti va aloqadorliklari ochilishi mumkin emas. Nominalistik yondashuv narsalar (o'rganish manbai) bevosita kuzatishda, voqelikda qanday mavjud yoki namoyon bo'lsa, ularni shunday tavsif va tasvirlash uchun eng qulay usul, fahmiy bilimlar hosil qilishning asosiy yo'li. Tilshunoslikda ham nominalistik yondashuv tavsifiy-fahmiy tadqiqotlarda keng qo'llanilgan. Tildagi alohida tovush, qo'shimcha, grammatik kategoriya va shakl hamda so'zlarning qo'llanishlari, nutqiy ma'nolari, tashqi (yasalish, qurilish, variantlik) xususiyatlari, o'zbek xalq shevalari tavsifi, u yoki bu yodgorlikning til xususiyatlari, yozuvchi va adiblarning uslublari mana shu usulda ochib berilgan. Nominalistik-fahmiy usulda yaratilgan sara ishlarning namunalari sifatida XX asr o'zbek tilshunosligining otaxoni professor Ayyub G'ulomovning "Ўзбек тилида кўплик категорияси" (–Тошкент. 1944), "Ўзбек тилида аниқловчилар" (–Тошкент. 1941), "Ўзбек тилида келишиклар"⁵⁰, "Феъл" (–Тошкент. 1954), "Ўзбек тилида сўз яшаш йўллари"⁵¹, Rahmatulla Qo'ng'urovning "Ўзбек тилида тасвирий сўзлар" (–Тошкент. 1966) kabi yuzlab ishlarini keltirish mumkin. 1940–70- yillarda Ayyub G'ulomovning shu ishlari namunasida o'zbek tilining turli grammatik kategoriyalari tavsifiga bag'ishlab yuzlab tadqiqotlar amalga oshirildi, 50- yillarda "Hozirgi zamon o'zbek tili kursidan materiallar" sirasi tashkil etilib, 20 ga yaqin alohida-alohida risolalar nashr etildi. Bu risolalar Faxri Kamol tahriri ostida "Ҳозирги замон ўзбек тили. Фонетика. Лексика. Морфология" (–Т.: ЎзФА. 1957) va A.G'ulomov, M.Asqarova muallifligida "Ҳозирги замон ўзбек тили. Синтаксис" (–Т.: Олий мактаб. 1961) darsliklariga, ikki jildli "Ҳозирги ўзбек адабий тили" (1- жилд. –Т.: Фан, 1966; 2- жилд, –Т.: Фан. 1966) birinchi akademik grammatikaga⁵² asos bo'ldi.

V.V.Reshetov, Sh.Shoabdurahmonovning o'zbek dialektologiyasi bo'yicha izlanishlari asosida (jumladan, В.Решетов. Современный узбекский язык. Ч. I. –Т., 1946; В.Решетов, Ш.Шоабдурахмонов. Ўзбек диалектологияси. –Т.: 1959; 1963; 1978.) o'zbek shevalari tavsifiga bag'ishlab 50 ga yaqin tadqiqotlar yaratildi.

Nominalistik yondashuvda narsalar (tadqiq manbai) tadqiqotchiga qanday ko'rinsa, shunday tavsiflanadi. Chunonchi, masalan, **-ga** jo'nalish kelishigi (yoki **-dan** chiqish kelishigi) turli sharoitlarda 10 dan ortiq fonetik ko'rinishlarga va 40 dan ziyod (xilma-xil qurshovlarda) ma'no nozikliklariga ega bo'la oladi. Nominalistik yondashuvda turgan tadqiqotchisi bu shakliy ko'rinish va ma'no nozikliklarini sabot va matonat bilan to'playdi, sistemalashtiradi (tartibga soladi) va fotoapparat singari tadqiqotda muhrlaydi. Bu fan taraqqiyotida poydevor, moddiy zamin sifatida juda katta ahamiyatga ega. Bunday zaminsiz hech bir fan hech

⁵⁰ФА Ўзбекистон филиалининг асарлари. Иккинчи серия. Филология. 2- китоб. –Т., 1941.

⁵¹Тил ва адабиёт институти асарлари. 1- китоб. –Т., 1949.

⁵²Ўзбек тили грамматикаси. 1–2- том. –Т.: Фан, 1975–76.

narsaga erishmaydi. Bu haqda buyuk tilshunos I.A.Boduen de Kurtenening fikri sizga oldingi mavzulardan ayon.

Shuni alohida eslatib o'tish lozimki, odatda, "aql bovar qilmaydi" deb biror narsaga ishonchsizlik bildirganimizda "sog'lom aql" ostida mana shu nominalistik tushunish nazarda tutiladi. Nominalistik yondashish ba'zan qonunchilikda (yurisprudensiyada), kuchli teokratik davlatlarda esa, odatda, mutlaqlashtiriladi va taraqqiyot uchun to'siq bo'ladi. Islom hukmronligi davrida ham shariatda nominalistik yondashuv haddan ziyod kuchli edi. Sadriddin Ayniyning "Doxunda", "Esdaliklar" kabi asarlarini o'qigan har bir kitobxon o'sha davrda asosiy qonunchilikda – shariatda hukm surgan mutlaqlashtirilgan nominalistik yondashishdan dahshatga tushadi.

Fanda ham nominalistik yondashishning mutlaqlashtirilishi uning taraqqiyotini bo'g'adi, unga "aql bovar qilmas" g'oyalarning kirib kelishi va rivojlanishiga monelik qiladi. Mutlaqlashtirilgan nominalistik yondashish fanda *metafizika*, *metafizik yondashish* deb ataladi va bunda u *qoloqlik*, *tanazzul* so'zlariga yaqin ma'noga ega.⁵³

Fanda nominalistik tadqiqotlar ahamiyatini hech qachon pasaytirish mumkin emas – nominalistik usul haqqoniy fahmiy bilim hosil qilishning yagona va eng to'g'ri yo'lidir va bunda ularning Boduen de Kurtene ta'kidlagan ahamiyatini esdan chiqarish kerak. Lekin fanni, ilmni faqat nominalistik tadqiqotlardan iborat deb tushunish ham mumkin emas. Chunki borliq doimiy taraqqiyot va rivojlanishdadir – u turg'unde *ko'rinadi*, xolos. Mohiyatan esa u doimiy o'zgarishda. Fan uni nafaqat turg'un holatini, balki taraqqiyot, o'zgarish va rivojlanishini ham o'rganishi, tavsiflashi zarur. Bu esa nominalistik yondashish asosida amalga oshirilmaydi – bunga boshqacha yondashish usuli zarur. Endi shu haqda bahs yuritiladi.

Narsaga (o'rganish obyektiga) nominalistik yondashishga ***dialektik*** yondashish qarama-qarshi turadi. Dialektik yondashish narsaga barqaror, turg'un, mustaqil alohidalik sifatida emas, balki doimiy taraqqiyot va o'zgarishda bo'lgan, boshqa narsalar bilan rang-barang aloqa va bog'lanishlarda (munosabatlarda) turgan umumiylik sifatida yondashadi. Shuning uchun dialektik yondashishga narsaning o'ziga emas, balki uning rang-barang munosabatlarini aniqlash va tavsiflashga katta e'tibor beriladi. Dialektik yondashish juda ko'p hollarda narsaning idrokiiy o'rganish bilan hamohang. Lekin fahmiy bilish dialektik yondashuv asosida amalga oshirilmaydi deb aytish noto'g'ri. Dialektik yondashuvning shu bo'lim mavzulari ikkinchi faslida ko'rib o'tiladigan 16 elementi (talabi)dan birinchisi – narsaning obyektivligi (haqqoniyligi) tamoyili bevosita fahmiy bilish bilan aloqador.

⁵³Vaholanki, "Metafizika" dastlab Arastu asari "Fizika" bo'limidan keyingi boblarining nomidir. Arastuda nominalistik yondashish juda kuchli. Bu bo'limda amalda bo'lgan talqin usuli – mutlaqlashtirilgan nominalistik yondashishning salbiy bo'yoq bilan shunday – metafizika deb atalishiga shu asos bo'ldi.

Tilshunoslik fanida ham til birliklarini dialektik yondashuv asosida tavsiflash fan kabi qadimiy. Oddiy bir misol: **katta olim – ulkan olim** kabi ikki so'z birikmasini olib ko'raylik. **katta** va **ulkan** so'zlari orasidagi ma'noviy farq (ya'ni **katta** va **ulkan** so'zlarining ma'nosini aniqlash) shu ikki so'zning bir-biriga munosabatini o'rganish (ya'ni, dialektik yondashuv) asosidagina ochilishi mumkin. Shaklan esa **katta** va **ulkan** so'zlari mutlaqo o'xshash emas. Yoki o'zbek tilining izohli lug'atida **ot I** va **ot II** leksemalari omonimlar sifatida alohida-alohida so'zlar kabi izohlanadi. Buning sababi shundaki, **ot** shakli ikki lug'aviy paradigmadan o'rin oladi.

1) от ~ ном ~ исм ~ лақаб. . .

|

фамилия

|

тахаллус

|

куня

2) от ~ эшак ~ хачир ~ туя . . .

|

айғир

|

байтал

Ko'rinib turibdiki, **ot I** va **ot II** omonimlari o'zbek tili lug'atida dialektik yondashish asosida farqlangan. Nominalistik yondashuvda esa **otning** shakli bir xil va nominalistik yodashuvda bitta so'z sifatida qabul qilinishi kerak edi, chunki bir so'z ikki va undan ortiq tushunchani ifodalashi mumkin. (Chunonchi, **ko'z, bosh, qo'l**). Shu asosda **otni** ham bitta so'z sifatida berish, bir lug'at uyasida joylashtirish mumkin edi. Jumladan, arab tilshunosligi lug'atchiligida hozirga qadar shu (nominalistik) tamoyil hukmron.

Tilshunoslikda har xil lug'aviy va grammatik hamda stilistik paradigmalari (chunonchi, so'z turumlari, son kategoriyasi, kelishik paradigmalari va h.) ajratish ham dialektik yondashuv asosida amalga oshiriladi, zeroki paradigmalari (siralar, qatorlar, har turli guruhi majmualar) bevosita kuzatishda berilmagan va aqliy umumlashtirish yo'li bilan ochilgan. Bundan xulosa qilish mumkinki, ilmiy tadqiq jarayonida o'rganish manbaiga nominalistik va dialektik yondashish ko'p hollarda

uzviy hamkorlikda bo'ladi. Nominalistik yondashish fahmiy, dialektik yondashish idrokiy bilim hosil qilishning asosiy usuli bo'lganligi sababli fanning ilk taraqqiyot bosqichlarida – fahmiy bilimlar xazinasi shakllanishi jarayonida – nominalistik yondashish ustunlik qilsa, ma'lum taraqqiyot darajasiga ko'tarilgach, yig'ilgan va sistemalashtirilgan faktlarnig o'zaro munosabatlarini o'rganishga zarurat paydo bo'ladi. Tilshunosligimizda ham 1940–70- yillarda tadqiq manbaiga nominalistik yondashish yetakchilik qilgan bo'lsa, bugun sistemaviy tahlilning turli yo'nalishlarida dialektik yondashish ustunlik qiladi. Afsuski, bu yo'nalishda izlanish olib borayotgan tadqiqotchilarning ko'pchiligi (metodologiya masalalari bilan chuqur tanishmaganligi sababli) o'z yondashish asoslaridan bexabar. Hozircha sanoqli tilshunoslar, jumladan, Buxoro tilshunosligi maktabi namoyondalari,⁵⁴ A.Abduazizov, A.Nurmonov, G.Zikrillayev, N.Mahmudov kabi tadqiqotchilar izlanishlarida o'zbek tili hodisalari talqiniga dialektik yondashuv ustunlik qilayotganligini rasman va ochiq e'tirof etishadi.

Tadqiq manbaiga ilmiy dialektik yondashishning o'ziga xos 16 tamoyili mavjud va bu tamoyillar izohiga alohida mavzu bag'ishlanadi.

Bu suhbatning oxirida monografiyaning birinchi mavzusida eslatilgan masala – O'TILda metod so'ziga keltirilgan *dialektik metod va qiyosiy metod* namunaviy misollrining nega izohtalab ekanligi sharhlanadi; yuqoridagi tavsifdan ko'rinib turibdiki, tadqiq manbaiga *dialektik yondashish* oddiygina metod emas – balki o'ziga xos yondashish, dunyoqarash, tadqiq manbaini o'ziga xos tushunish va talqin etish yo'llari majmuasini belgilaydi. Shuning uchun uni oddiygina bir metod – tadqiq manbaining ma'lum bir qirrasini o'rganish va tavsiflashga xoslangan usul bilan tenglashtirish mumkin emas – **yondashish** va **metod** tushunchalarini bunday aralashtirish (fanda, hatto metodologiya masalalariga bag'ishlangan falsafiy adabiyotlarda juda ko'p uchrasa-da,) dialektik yondashish mohiyatini cheklaydi, uni metodologiyaning – tadqiqotchi ilmiy dunyoqarashinig muhim tarkibiy qismi mavqeyidan (tadqiq manbaining monografiyaning uchinchi bo'limida tavsiflanadigan o'nlab) tahlil usullaridan bittasi darajasiga tushirib qo'yadi.

Tilni ilmiy o'rganishda tadqiqotchining tayanch nuqtayi nazari turlari

Tayanch tushunchalar

idialistik nuqtayi nazar, nazar ruhoniy, mashshoiya (moddiyun), obyektiv, obyektiv idealizm, idealistik materializm, dualistik qarash, ilmiy yo'nalish, diniy yo'nalish

⁵⁴Курбонова М. Ҳозирги замон ўзбек тили. . . 8–14- бетлар.

Tadqiqotchining tayanch nuqtayi nazari falsafaning bosh masalasi – nima birlamchi, materiyami, ongmi? Nima nimani yaratdi? Ong (ruh, xudo, g'ayri moddiy kuch) borliqni yaratdimi, borliq (materiya) ongnimi? – so'rog'iga nisbatan qanday munosabatda ekanligiga ko'ra ikki xil:

- a) idealistik (ruhoniylar);
 - b) materialistik (mashshoiylar)
- bo'la oladi.

Na ruhoniylar, na materialistik qarash tarafdorlari tayanch nuqtayi nazarlarini isbotlay olmaydilar. Buni isbotlab bo'lmaydi ham. Materialistlar idealistlarni fahmiy bilish va nominalistik yondashish nuqtayi nazaridan turib inkor qilishsa, idealistlar (ruhoniylar) materialistlarni (mashshoiylarni) idrokiiy bilish va dialektik yondashish nuqtayi nazardan turib inkor qilishadi. Inkorning asoslari har xil bo'lganligi sababli ularning hech birini qabul qilib bo'lmaydi. Tadqiqotchi u yoki bu nuqtayi nazarni oddiygina isbotsiz (aprior), o'zining ishonchi sifatida qabul qiladi va shu nuqtayi nazardan turib tadqiqot olib boradi.

Ruhoniylar nuqtayi nazarlardan eng keng tarqalgan va ommalashgan ko'rinishi **diniy** qarashlar. Materialistik qarashlardan keng ommalashgani ateistik mafkura edi. Bu ateistik mafkura 1920–80- yillarda sobiq SSSRda "**din**" darajasida mutlaqlashtirildi. Barcha dinlar hukmronligi davrida – teokratik tuzumlarda bo'lganidek, SSSRda ham ateistik mafkurani kuchli inkvizitsiya qo'riqlar va zo'rlab tatbiq etilishini, tadqiqotlarda izchillik bilan o'tkazilishini qattiq nazorat qilar edi.⁵⁵

Idealistik qarashlar ham, materialistik qarashlar ham o'z ichida o'nlab yo'nalishlar, oqimu maktablarga bo'linadi va bular "Falsafa" kursidan, shu masalalar tahliliga bag'ishlangan tadqiqotlardan Sizga tanish.

Idealistik qarashlardan eng ashaddiysi mutaassib (mustabit va muztabit⁵⁶) diniy dunyoqarash bo'lib, xoh nasroniy, xoh buddaviy, xoh islomiy yoki idrokiiy kabi dunyo dinlarida bo'lsin, ilm-u fan taraqqiyotiga yo'l qo'ymaydi – din jamiyatda ijtimoiy hayotni boshqarar ekanmi, bu jamiyat tanazzul va kasodga mahkumdir, zero jamiyat taraqqiyotini ilm-u amal (ya'ni texnika) belgilaydi, din esa bunga yo'l bermaydi.⁵⁷

Birinchidan, din mutlaq taqdir tushunchasini kiritib, barcha narsa yaratuvchining irodasiga bog'liqligi, barcha narsaning o'tmishi va kelajagi, yaratuvchi irodasi, xohishi bilan bog'liqligini uqtirib, ilmiy izlanishlarga, taraqqiyotga jamiyat hayotini inson iroda va xohish asosida yangilashga qattiq to'siqinlik qiladi. Jahonda o'z vaqtida ilg'or davlatlarda (chunonchi, Yunoniston va Rim, O'rta Osiyo, Kichik Osiyo, Yaqin Sharq davlatlari va h.) diniy teokratik tuzum mutlaqlashgach, bu davlatlarda

⁵⁵Hozirgi kunda ru h o n i y (idealistik) so'zining MDH davlatlari fuqarolari ongidagi salbiy bo'yog'i bevosita shu bilan bog'liq.

⁵⁶*Mustabit* arabcha so'z bo'lib, "sabit", "barqaror", "turg'un", "qat'iy" ma'nosiga ega. *Muztabit* ham arabcha so'zdir va "zabt etuvchi", "bostiruvchi", "zo'rlik qiluvchi" ma'nolariga ega.

⁵⁷Insoniyatning ko'z ilg'ar tarixi davomida hurfikrli – dinga vijdoniy erkinlik sifatida yondashadigan – kishilar (jumladan, o'zimizda jadidlar) hech qachon ateist (dinsiz, xudosiz) emas edilar – ular dinning mutlaq hukmronligi, teokratiya – dunyoviy ishlarni diniy nuqtayi nazardan boshqarishga qarshi edilar.

taraqqiyot inkvizitsiya tomonidan bo'g'ildi, rivojlanish to'xtab qoldi. IX–XIII asrlarda Sharqda ochilgan ilmiy qonuniyatlardan (jumladan, bug'lanish, suv ostidan issiq suv va olov chiqishi, mineralogiya bo'yicha kashfiyotlar, davolash – tib qonunlari, o'simliklarning shifobaxsh xususiyatlari va ulardan dori-darmon tayyorlash texnologiyalari, tillarni o'zaro qiyoslash va tillarning tipologiyasi hamda qarindoshligi bo'yicha qonuniyatlari, qarindosh tillarda tovush mos kelishi qonuniyatlari⁵⁸) **amaliy** foydalanishga diniy mutaassiblik – G'arbda inkvizitsiya, Sharqda shariat va muftiylar – yo'l bermadi, har qanday yangilik Yaratuvchiga shakkoklik, uning ishiga aralashish sifatida qoralandi va ta'qib etildi. XVIII asrgacha, ya'ni G'arb inkvizitsiya siqig'idan qutulgan davrgacha – jahon diniy uyquda bo'ldi. Shunday ekan, fan taraqqiyoti ham to'xtab qoldi, jumladan, tilshunoslik ham. Tilshunoslik Yeropada antik davr Yunon va Rim tilshunosligi (Iskandariya lingvistik maktabi) nazariy bosqichida, Sharqda VIII–XI asr islom (arab) tilshunosligi nazariy yutuqlari va tahlil usullarida – G'arb XV asr, Sharq qariyb 8 asr davomida – deysinib turdi.

Ikkinchidan, din fanning rivojlanishiga, xususan, tabiiy fanlar taraqqiyotiga tamoman qarshi edi. To'g'ri, biror dinda "o'qimang, o'rganmang" degan da'vat yo'q. Barcha dinlar ilm va bilimga intilishga da'vat etadi. Islom dinida "*Talabul ilmi farizatun ala kulli mo'minin va mo'minatin*" – "*Ilmga intilish barcha mo'min va mo'minalarga farzdir*" mazmunida hadisi sharif bor. Bu hadisi sharif payg'ambarimizning Madina davri hayotiga (622–632-yillar) – Islom endigina targ'ib etilayotgan davrga oid. Lekin XIV asrdan keyin mustabtilashgan Islom (hokimiyatni qo'lga olib, qat'iyatlashgan din) "ilm" deganda nimani nazarda tutardi? Bu savolga XIV asrdan XIX asr boshlarigacha musulmon davlatlarida forsiy va turkiy tillarda bitilgan, eng asosiy ommaviy darslik bo'lgan "Chahor kitob" ("Chor kitob") shunday javob beradi:

"Ilmdan maqsad to'rt turli ilmdur. Birinchisi **tavhid** ilmi. Ikkinchisi **namoz** ilmi. Uchinchisi **ro'za** ilmi. To'rtinchisi **hayz** va **nifos** ilmi".⁵⁹ Bu sharhdan anglashilib turibdiki, mutaassib islom peshvolari din targ'ib davridan hokimlik mavqeiga ko'tarilgach, o'z hukmini Hadis va Qur'oni Karim oyatlari sharhiga ham o'tkazib, ularni o'z maqsadlariga bo'ysundirgan. Vaholanki, Muhammad alayhissalom "ilm" so'zini **ilm**, **fan**, **bilim**, jumladan, dunyoviy, tabiiy fanlar ma'nosida qo'llagan. Bo'lmasa, "Ilm Chinda (Xitoyda) bo'lsa ham, borib o'rganing!" kabi hadislarni aytmagan bo'lardi. Chunki namoz, ro'za, tahorat ilmi Chinda bo'lmaydi. Shu sababli mutaassib ruhoniyyat – diniy nuqtayi nazarda turgan olim fan taraqqiyotiga hech qanday jiddiy hissa qo'sha olmaydi. Uning qo'lidan voqea hodisalarni oddiy bayon qilishdan boshqa ish kelmaydi. Shunda ham u ro'y bergan hodisalar sababini axtarmaydi, "Vallohu a'lam bissavob" ("to'g'risini Alloh biladi") yoki taqdiri azal deb ketaveradi. XV–

⁵⁸История лингвистических учений. Средневековый Восток. Отв. ред. А. В. Десницкая. –Л.: Наука, 1983. Ву to'plamdagi V.G.Axvlednani, A.N.Kononov ishlariga alohida e'tibor berish lozim.

⁵⁹Chahor kitob. –Душанбе: Адиб, 1990. –Б. 29.

XIV asrlarda Markaziy Osiyoda tabiiy fanlar taraqqiyotining so'nishi ham bevosita shu bilan bog'liq.

Lekin idealistik (ruhoniy) nuqtayi nazarda turib fanga salmoqli hissa qo'shgan tabiiy fanlar vakillari oz emas. Bular, asosan, haqqoniy idealizm (obyektiv idealizm) yoki dualistik (idealistik-materialistik) nuqtayi nazarda turgan olimlar. Fan taraqqiyotiga ulkan hissa qo'shgan Farobiy, Beruniy, Ibn Sino, Ahmad Farg'oniy, Ulug'bek, Galileo Galiley, Jordano Bruno, Isaak Nyuton dualistik, Immanuil Kant, Fridrix Gegel, Plank, Albert Eynshteyn, hatto, Avgust Shleyxer, Vilhelm Gumboldt, Ivan Pavlov, Sechenov kabi olimlar obyektiv idealistik nuqtayi nazarda turishgan.

Dualistik qarashning mohiyati shundaki, ular borliqni, jumladan, til va uning birliklarini, asosiy mutlaq qonuniyatlarni (chunonchi, til tabiatan ramziy sistema ekanligi, tilda shakl va mazmun, barqarorlik ~ o'zgaruvchanlik, umumiylik ~ xususiylik, sabab ~ oqibat munosabatlarini va h.) Haq yaratganligini va belgilaganligini tan oladi. U yaratdi, qonuniyatlarni o'rnatdi, yaxshi-yomonni farqladi, insonga aql berdi, "Tanla!" va "O'rgan!" dedi. O'zi esa oxiratda inson faoliyatini yana baholaydi. Haqning dunyoviy ishlariga aralashuvi shu bilan cheklanadi. Haq yaratgan qonuniyatlardan (masalan, bug'ning suvdan yengil va siyrakligidan) foydalanish (ya'ni bug' mashinasi yaratish), buning uchun Haqqa hamd aytish uning qudratini namoyish qilish ne'matlaridan bahramand bo'lish bilan teng.

Ibn Sino og'ir kasallarni o'simliklarning shifobaxsh xossalaridan, inson ruhiyati (psixikasi) va signal sistemasidan foydalanib davolagan. Bu bilan u o'zini Haq san'atini ochgan va uni namoyon etgan deb sanardi. Shuning uchun shayxurrais iftixor bilan:

*Dar kufr chu mane gāzōf oson nabuvad,
Mahkamtar az iymoni man iymon nabuvad..
Dar dahr chu man yakeyu on ham kofir,
Pas dar hama dahr yak baiymon nabuvad..*

Tarjimasi:

Meni kofirlikda ayblash emasdir oson,
Iymonimdan mahkamroq topilmas iymon.
Shundayin bo'lsamu desalar kofir,
Demak, yo'q olamda aslo baiymon.

deb o'z iymonining mustahkamligi va johillarning mutaassibliги haqida yozadilar. Shunga yaqin holat Isaak Nyuton bilan sodir bo'lgan. Uning butun dunyo tortilish Qonuni sharhi bilan tanishgan Angliya qiroli: "Men bunda Haqni ko'rmayapman", – deganida, Nyuton "Men tabiat qonunlarini aniqlaganda, unga ehtiyoj sezmadim," – deb javob bergan.

Dualistik qarashlar Sharqda, xususan, IX–X III asrda keng tarqalgan edi va **mashshoiya – materializm** atamasi bilan mashhur.⁶⁰

Hozirgi kunda olimlarning ko'pchiligi dualistik qarashda turadi. Zeroki, Haqqi mutlaq va umuman materiya mohiyatini aniqlashga inson aqli, qudrati o'jiz. Shuning uchun Alisher Navoiy Navoiy:

*Kunhi zotingdin xirad gar bo'lsa ammo yo'q ajab,
Zarraga yuz ming quyosh mohiyatin bilmak ne had.*

yoki:

*Vujudi zarraning mumkin emas to sobit o'lmas mehr,
Ne hojat zarra xaylidin quyosh zotiga isbote.*

deb Haq qudrati va san'ati oldida inson ongi o'jizligini ta'kidlaydi.

Tabiiyki, mutaassib islom va nasroniylikda (kommunistik mafkurada ham) mashshoiya va dualistik qarashlar kufr sanalardi.

Haqqoniy ruhoniy (obyektiv idealistik) qarashda bir-biridan ajratilib, taraqqiyot, rivojlanish, umumiylik ruhiy olamga xos deb ta'kidlanadi. Ruh bu olamda rivojlanib, ma'lum bir taraqqiyot bosqichiga yetadi va keyin moddiy olamga o'tadi: borliq, jumladan, xalq, til paydo bo'ladi. Xalq ruhi xalqqa o'tgach, xalq va til paydo bo'ladi hamda uning buzilishi, parchalanishi, aynishi boshlanadi. Til ruhi xalqqa qaysi taraqqiyot holatida o'tgan bo'lsa, til shu taraqqiyot nuqtasida qoladi va ma'lum bo'lgan tarixiy taraqqiyot davrida faqat buzilib boradi. Tilshunos ruh sifatida shakllangan va rivojlangan tilning faqat buzilish jarayoninigina kuzata oladi. Shuning uchun F.Gegel, uning maslakhdoshlari bo'lgan komparativistlar (F.Bonk, Y.Grimm, A.Shleyxler, qisman, V.Gumboldtlar⁶¹)

a) *tilning tarixdan oldingi taraqqiyoti;*

b) *tarixdan keyingi tanazzul*

bosqichlarini farqlab, shu asosda ilmiy nazariya asoslarini ishlab chiqqan edilar⁶². Jumladan, tillarning qarindoshligi va eng rivojlangan yaxlit, mukammal ko'rinishi bo'lgan bobo til bosqichi, bobo tilning keyingi moddiy – dunyoviy tanazzulda parchalanishi nazariyasi shu falsafiy asosda ishlab chiqilgan edi.

Yevropada shakllangan obyektiv-idealistik nuqtayi nazar asosida fanlarda bixeviorizm, pozitivizm, strukturalizm, funksionalizm kabi ilmiy yo'nalishlar rivojlangan. Markscha dialektik materializm ham o'zining manbalaridan biri sifatida obyektiv-idealistik tadqiq usulini – dialektikani tan oladi. Shuning uchun idealistik (ruhoniy) nuqtayi nazarning o'zida ikki

a) ilmiy;

b) diniy

yo'nalishlarni farqlash zarur.

⁶⁰ Динаршаев М. Mashshoiya // Энциклопедияи совети тоҷик. 4- жилд. –Душанбе, 1983, –Б. 816–817; Степанянц М.Т. Философские аспекты суфизма. –М.: Наука, 1987. –С. 3–27.

⁶¹ Qar.: Амирова ва б. История лингвистических учений.

⁶² Усмон Турар. Тасаввуф тарихи. –Т.: Истиқлол, 1999. –Б. 61–125

Ilmiy yo'nalish borliqda g'ayri moddiy (g'ayritabiiy, ilohiy) kuchni inkor etmaydi, lekin umumiylik ~ alohidalik, mohiyat ~ hodisa, imkoniyat ~ voqelik, sabab ~ oqibat (UMIS ~ AHVO), shakl-mazmun, barqarorlik-o'zgaruvchanlik, taraqqiyot ~ tanazzul, va h. ziddiyatlar va qonuniyatlar shu kuch tomonidan borliqda mujassamlashtirilgan deb qabul qiladi. Bu borliqni tadqiq etish, ochish, undan amaliy foydalanish uchun insonga sohibi qudrat tomonidan ong berilgan. Shuning uchun taqdir va taraqqiyot insonning o'z qo'lida. U faol bo'lmog'i lozim.

Musulmonlikda tasavvufning Abduxoliq G'ijduvoni tomonidan asoslangan "Dil ba yoru, dast ba kor" (Qalbing suyuqli bilan, qo'ling ish bilan) tamoyiliga tayanuvchi tariqat va uning suluklari (jumladan, xojagon, kubraviya, qodiriya, naqshbandiya, xilvatiya va b.) ta'limoti ham shu yo'nalishga ancha yaqin, chunki u taqdirni inson qo'liga beradi.⁶³

Diniy yo'nalish barcha narsa-hodisalar yaratuvchisi taqdir deb biladi. Inson va borliq – oddiy qo'g'irchoq. Sharqda ham, G'arbda ham bu yo'nalish hamisha ilmiy yo'nalishning ashaddiy dushmani edi.

Materialistik nuqtayi nazar oddiy (vulgar), ilmiy kabi yo'nalishlarga ega. Juda ko'p hollarda u ateizm bilan bog'liq. Uning idealistik qarash bilan bog'langan yo'nalishi yuqorida ko'rib o'tilgan dualistik nuqtayi nazarni beradi.

Oddiy, ongsiz (intuitiv) materializm borliqdagi narsa, voqea, hodisalarni qanday bor bo'lsa, shunday tasvirlashda realizm, mexanisizm, nominalizm, sensualizm kabi yondashuvlarda namoyon bo'ladi.

Materializmning dialektik usul bilan bog'langan ko'rinishi dialektik materializm sifatida sovet fani va siyosatida asosiy metodologik asos sifatida qabul qilingan edi. Lekin 20–80- yillarda materialistik asosni, xususan, uning ateistik mohiyatini mutlaqlashtirish, dialektikani og'izda tan olib, amalda undan chekinish – fetishizmga – fan va iqtisodga biryoqlama yondashishga, ulkan imperiyada bozor va tovar ishlab chiqarish qonuniyatlarining buzilishiga, toptalishiga olib keldi. Buning oqibatida SSSRda parchalanishga, iqtisod, siyosat va mafkurani batamom yangilashga, bozor iqtisodiyotini yangi asoslarda tiklashga zarurat paydo bo'ldi.

Ilmiy tadqiq metodologiyasi tarkibiy qismlari orasidagi munosabat. Fetishizm haqida

Tayanch tushunchalar

⁶³Воҳидов Р. ва б. Сўз бағридаги маърифат. – Т.: Ёзувчи, 2001. –Б. 82–91; Одинаев Я. К. Коран. Философское, этическое, эстетическое учение. – Душанбе: Маориф, 1991. –Б. 115–118.

fetishizm, metodologik tamoyillarning tatbiqi chegaralari va o'rinlari, grammatik fetishizm, milliy grammatika, tilshunoslikda go'l (vulgar) materializm, yafetik nazariya, til haqida yangi ta'limot

Bobning birinchi mavzusida ilmiy tadqiq metodologiyasi bilish bosqichi (fahmiy, idrokiy), yondashish usuli (nominalistik, dialektik), tadqiqotchining tayanch nuqtayi nazari) kabi tarkibiy qismlari ko'rinishlariga ko'ra 8 mantiqiy-riyoziy turga ega bo'lishini sanab o'tgan edik. Bular mantiqiy-riyoziy usul bilan chiqarilgan turlar. Haqiqatda esa bilish bosqichi, yondashish usuli, tadqiqotchi tayanch nuqtai orasida uzviy bog'lanish mavjud. Bu asosan ikki ko'rinishda bo'ladi:

- 1) fahmiy-nominalistik-materialistik;
- 2) idrokiy-dialektik-idealistik.

Birinchi bog'lanish tadqiqotchiga narsaning zohiriy, tashqi tomonlarini tavsiflashda, ikkinchi majmua uning ichki, botiniy munosabat va aloqadorliklarini ochishda qo'l keladi. Narsada (o'rganish obyektida) bu tomonlarni bir-biridan uzish mumkin emas. Xususan, shakl va mazmun butunligi tabiatli til birliklarini o'rganish jarayonida buni esdan chiqarmaslik lozim. Ilmiy tadqiq jarayonida tadqiqotchi ilmiy tadqiq metodologiyasining biror tarkibiy qismini mutlaqlashtirmasligi kerak. Har bir qismning o'z xususiyati, narsaning ma'lum qirrasini haqqoniy tavsiflashda ilmiy ahamiyati bor. Metodologiya tarkibiy qismlaridan birortasini mutlaqlashtirish, uni qat'iy, mutlaq, buzilmas qonun deb tatbiq etilishi, mumkin bo'lgan va bo'lmagan o'rinlarda zo'rma-zo'rakilik bilan tatbiq etishga intilish fetishizm, fetishizatsiya ga olib keladi. U istagan turdagi tadqiqotga, xususan, amaliyot bilan bog'liq izlanish va xulosalarga katta ziyon yetkazadi. Bu zarar, asosan, ikki ko'rinishda:

- a) nazariy hukmlar noto'g'riligida;
- b) amaliyotda obyektiv ijtimoiy ontologik qonuniyatlarning buzilishida, jamiyatni, jumladan, fanni tanazzul (krizis)ga olib kelishda namoyon bo'ladi.

Fan va madaniyatda, ijtimoiy munosabatlarda fetishizm, ko'p hollarda, teokratik (din hukmronligi), monarxik (yakka hokimiyat) va partokratik-fashistik (ma'lum bir guruhning mutlaq hokimiyati) boshqarish usullari davri uchun xos bo'lib, jamiyat, uning fani va madaniyati, iqtisodi va rivoji uchun fojea. VIII–XVIII asrlarda G'arbda xristian (nasroniylik), XIV–XIX asrlarda Sharqda islomiy teokratiyaning xunuk oqibatlari bo'yicha jild-jild tahlillar va tavsiflar yaratilgan.⁶⁴ Germaniyaga va butun jahonga fashizmning keltirgan zarari hammaga ayon.⁶⁵ Bugun 1930–1980-yillarda partokratik – valyuntaristik hokimiyatning SSSR fani va madaniyatiga keltirgan ziyoni kundana-kunda oydinlashib bormoqda.

⁶⁴Конрад Н.И. Запад и Восток. Статьи. –М., 1972.

⁶⁵Мельников Д, Черня А. Преступник № 1. Нацистский режим и его фюрер. –М., АПН, 1982, 432-б. Нюрнбергский процесс над главными военными преступниками. ТТ. 1–7. –М., 1957–61.

Tilshunoslik fani ham sovet davrida ancha ziyon ko'rdi. Sovet fani markscha-lenincha dialektik-materializmni o'zining metodologik asosi deb rasman e'lon qilgan esa-da, juda ko'p hollarda, unda dialektika faqat tilda bo'lib, amaliy tatbiqdan uzoqda, vulgar materializm esa mutlaqlashtirilgan edi.⁶⁶ Mutlaqlashtirilgan go'l (vulgar) materializm N.Y.Marr tomonidan stadial nazariya, yafetik tilshunoslik va til haqida yangi ta'limotning yuzaga kelishi va mutlaqlashtirilishiga olib keldi.⁶⁷

1927–1929- yillarda Moskvada Kommunistik akademiyaning tilshunoslik sho'basi tarixiy, qiyosiy va tavsifiy grammatik tadqiqotlarga qarshi va yafetik nazariya himoyasiga bag'ishlab qator munozaralar o'tkazdi. Ilmiy tilshunoslik o'rnini tilning ustqurma va sinfiy ekanligi, dehqon, ishchi, hatto, ziyoli va hukmron tabaqa vakillarining tili boshqa-boshqa ekanligi, butun dunyodagi tillar, ularning so'z va qo'shimchalari to'rtta unsur – *yon, rosh, sal, ber* dan kelib chiqqanligi, dunyodagi barcha tillarning kelib chiqish manbai bir ekanligi, shuning uchun tillar oilasi va qarindoshligi haqidagi ta'limot yolg'on va marksizmga bo'hton, sinfiy dushman mafkurasi ekanligi haqida uydirma “nazariya” tilshunoslikda hukmron bo'ldi. I.A.Boduen de Kurtenening shogirdi, butun dunyo tan olgan tilshunos, yangi davr yapon, koreys, o'zbek va qirg'iz tilshunosligi poydevori bunyodkori Y.D.Polivanov (1891- yilda tug'ilgan, 1937- yil martida qamalgan, 1938- yil 25- yanvarda otilgan)ning Kommunistik akademiya o'tkazgan mazkur munozaralarining birida bunday soxta “ilmiy” uydirmalarga qarshi chiqishi o'sha davr matbuotida “bir vaqtlar ruhoniy tilshunos sifatida fosh etilgan qoraguruhchilar namoyandasi, Boduen de Kurtene asoslagan subyektiv-idealistik tilshunoslik maktabining sodiq davomchisi Yevgeniy Polivanovning ko'ngilni aynitadigan, jonchiqarar holatdagi chinqiriqlari” deb baholangan edi.⁶⁸ Bu uydirma “nazariya”, soxta materialistik tilshunoslik SSSRda 50-yillar boshlarigacha hukmron bo'ldi. Uning tazyiqini yo'qotish, 20-yillardagi Boduen de Kurtene tilshunosligi an'alarini tiklash uchun “xalqlar dohiysi” I.Stalinning aralashuvi zarur bo'ldi.⁶⁹

N.Marr nazariyasi bekor qilingan 50- yillardan boshlab sovet tilshunosligi keng ommalashgan, rivojlanib borayotgan kibernetika va mashina tarjimai uchun asoslar yaratayotgan Boduen tilshunosligi

⁶⁶Shuning uchun M.S.Gorbachev KPSS MKning 1985- yil aprel Plenumida siyosiy-iqtisodiy qayta qurish g'oyasini ilgari surib, og'izdagi dialektikadan amaldagi dialektikaga o'tish vazifasini qo'ygan edi.

⁶⁷Усмонов С. Умумий тилшунослик. –Т.: Уқитувчи, 1972. –Б. 109–114.

⁶⁸Поливанов Е.Д. Статьи по общему языкознанию. –М.: ИВЛ. 1968. –С. 22; Против вульгаризации и извращения марксизма в языкознании. Сборник статей. Под. ред. В.В.Виноградова, Б.А.Серебренникова. Часть 1. –М.: Изд. АН, 1951. 432 стр.; Часть 2. –М.: Изд. АН, 1952. 504 стр.

⁶⁹Bu orada Rossiyadagi tartibsizliklardan qochib Pragada yig'ilgan Roman Yakobson, Nikolay Trubetskoy, Sergey Kartsevskiy kabi qator boduenchilarni chex tilshunosi Vilyam Matezius zamonaviy struktural tilshunoslik o'chog'i bo'lgan Praga lingvistik to'garagiga birlashtirib, butun dunyoga mashhur qildi, o'z vatani tilshunosligining dovrug'ini jahonga yoydi. Hozirgi kunda istagan davlatdagi tilshunoslik bu to'garak talqinlari ta'siridan chetda emas. Qar.:Пражский лингвистический кружок. –М.: Прогресс, 1967.

taraqqiyotining mahsuli bo'lgan strukturalizmga "kommunistik xuruj" boshladi, unga burjua tilshunosligi tamg'asi bosilib, qoralandi.⁷⁰ Materializmning fetishizmi asosida sovet tilshunosligi strukturalizmning dialektik tadqiq usulini to'la-to'kis rad etdi, vaholanki, xo'jako'rsinga dialektika sovet fanining rasmiy tadqiq usuli sifatida tan olinar edi. Atigi 60- yillardan keyingina sovet tilshunosligi rasman ma'qullangan to'g'ri tadqiq yo'lini topa oldi.

Milliy tilshunosliklar, jumladan, o'zbek tilshunosligi ham, kommunistik mafkuraning materializmni mutlaqlashtirishidan anchagina ziyon ko'rdi. I.Stalinning milliy tillar bora-bora o'ladi, bitta kommunistik tilga kelib qo'shiladi, degan g'ayriilmii fikri asosida milliy tillarning vazifasini cheklash, ularni rusiylashtirish, milliy tillarga "rus tili birliklarining ta'siri"ni oshirish orqali ularni "boyitish" kabi salbiy hodisalar sun'iy ravishda kuchaytirdi.⁷¹ Bu millatlar nafsoniyatini junbushga keltirdi. Ish 1989- yilning 21- oktabrida "O'zbekiston davlat tili haqida"gi Qonunni qabul qilish bilan yakunlandi. Milliy tillar grammatik qurilishi talqinida, lug'at va lug'atchilikda rus tili grammatik tizimi va lug'atchiligidan aynan ko'chirmachilik – grammatik fetishizm oqibatlarini hanuz tugal bartaraf etilmagan.⁷²

Hozirgi o'zbek tilshunosligi bunyodkorlaridan biri tilshunos Ayyub G'ulomov o'zbek tilshunosligining 40- yillardan keyingi taraqqiyoti haqida shunday yozgan edilar: "С принятием учебников русского языка С.Г.Бархударова (1938) в качестве стабильного пособия для русских школ создаются учебники и для узбекских средних школ. Грамматика (Ч. I. Морфология. 1938. О.Усмонов, Б.Авезов), Грамматика узбекского языка. (Ч. 1–2. А.К.Боровков, А.Гулямов. З.Магруппов, Т.Шермухаммедов), ставшие теоритической базой для дальнейшего изучения норм языка".⁷³

Demak, o'zbek grammatik talqinlari, o'zbek grammatikalari rus tili grammatikalari namunalari, ularni fetishizatsiyasi asosida yaratilgan. Buni bartaraf etish, milliy grammatikani milliy mafkurani o'z ustida ko'tarib turadigan mustahkam poydevorga aylantirish bo'lajak tilshunoslarining burchi. Buning uchun tilshunos sinalgan, uqilgan, onglilik bilan izchil, hech qanday mutlaqliksiz tatbiq etiladigan metodologik tamoyillarga ega bo'lishi, har bir tamoyilni o'z o'rnida mohirona ishlatishni bilishi kerak.

⁷⁰Вопросы теории языка в современной зарубежной лингвистики. –М.: Изд АН, 1961. 254 стр.

⁷¹Совет даври ўзбек адабий тилининг тараққиёти. Уч томлик. 1- т. Морфология. –Т.: Фан, 1988; 2- т. Синтаксис. –Т.: Фан, 1989; 3- т. Сўз ясаши ва лексика. –Т.: Фан, 1991.

⁷²Махмудов Н., Миртожиев М. Тил ва маданият. –Т., 1992.; Мөнглиев Б. Лисоний тизим яхлитлиги ва унда сатҳлараро муносабатлар: Филол.фанлари доктори дисс. ...автореф. –Т., 2002.; Қурбонова М. Ҳозирги замон ўзбек тили.... –Б. 3–8.; Иванов С.Н. Родословное древо тюрк... –Б. 7–13.

⁷³Узбекская ССР. –Т.: Глав. ред. Уз. СЭ, 1981. –Б. 349.

Ilmiy dialektik tadqiq metodologiyasining amaliy tatbiqi masalasi

Tayanch tushunchalar

dialektik tadqiq tamoyillari, dialektik tamoyillar va amaliyot, narsa va uning aloqadorliklari, inkorni inkor, narsa, xossa, munosabat

Ilmiy dialektik metodologiyaning tatbiqi juda murakkab amaliyot. Buning boisi shundaki, u, bir ko'rinishda, aql bovar qilmaydigan, aqlga sig'mas tavsif, xulosa va hukmlarga olib keladi. Chunki, odatda, "sog'lom aql" degan mavhum, munosabatlari va taraqqiyotidan, zamon va makondan ajratib olingan hukmlar, tavsiflar bilan ish ko'riladi. Dialektika nuqtayi nazaridan esa munosabat va taraqqiyot silsilasidan ajratilgan har qanday narsa mavhum. "Sog'lom aql" tadqiq manbaining barcha qirralarini, munosabatlarini ilg'ay olmaydi. Chunonchi, "Yomg'ir yog'yaptimi?" so'rog'iga tashqariga qarab, agar yog'ayotgan bo'lsa: "Yog'yapti", – deb javob berib qo'ya qolinadi. Vaholanki, bundan 5 chaqirim narida u yog'mayotgan bo'lishi mumkin. Yoki aksincha. Shuning uchun "sog'lom aql"ning o'zi "nosog'lom". U zohirbin va hozirbin, sof empirik, taraqqiyot va aloqadorliklardan uzilgan. Shuning uchun u mavhum.

Rivoyat qilishlaricha, ratsionalist (idrokiy bilim tarafdori) Albert Eynshteyn va nominalist (empirik bilim tarafdori) tabiatshunos-lingvist Vilhelm Fridrix Myuller (1863–1930) orasida shunday suhbat-munozara bo'lib o'tadi:

– Do'stim, – debdi V.Myuller, – mening sog'lom aqlim ko'zim ko'rolmaydigan narsaga ishonmaydi.

– Siz haqsiz, – javob beribdi daho fizik. – Men ham shunday. Sog'lom aqlingizni stol ustiga qo'ying, men ham unga ishonay.

Bu latifa-rivoyat fan va maishiy (turmush) tushunchalarning o'zaro munosabatini ko'rsatadi. Maishiy (turmush) ong muayyan, zohiriy sharoitlarga tayanib ish ko'radi. Fanning vazifasi esa bevosita kuzatishda berilmagan qonuniyatlarni ochish. Ular esa, juda ko'p hollarda, "aql bovar qilmas", xayoliy va g'ayrioddiy. Fanni, jamiyat taraqqiyoti va kelajagini mana shunday dadil, aql bovar qilmas faraz va nazariyalar belgilaydi.⁷⁴

Bu mavzu bayonidan asosiy maqsad shuki, juda ko'p ilmiy ishlarda metodologiya bilan amaliy ish (ya'ni tadqiqot) orasida juda katta uzilish bor. Bu haqda avvalgi mavzularda fikr yuritilgan edi. Sovet davrida esa dialektik materializm sovet fanining metodologik asosi sifatida rasman qabul qilingan, istagan turdagi (xoh monografiya, xoh tezis bo'lsin) ilmiy tadqiqotning birinchi bandida dialektik materializm haqida, K.Marks,

⁷⁴Познер А. Р. Истины и парадоксы. –М.: ИПЛ, 1977.; Библер В.С. От науковедения к логике культуры. Два философических введения в двадцать первый век. –М.: ИПЛ, 1991; Библер В.С. Мышление как творчество. Введение в логику мысленного диалога. –М.: ИПЛ, 1975.

F.Engels, V.I.Lenin (60- yillargacha, albatta I.Stalin) ishlari va KPSS qarorlariga havola berish majburiy edi. Bu havola o'rinlimi, o'rinsizmi, uqilganmi, uqilmaganmi, buning ahamiyati yo'q edi. Maktab, o'rta maxsus va, xususan, oliy ta'lim tizimida dialektik materializm (bamisoli teokratik tuzumlarda diniy fanlar kabi) majburiy o'qitilar edi. Majburiylik hamisha nafratni qo'zg'atganidek, dialektik materializm ham, dohiylarga havola ham tadqiqotchilar nafratini qo'zg'ar, inson aqlining eng oliy yutuqlaridan biri bo'lgan dialektik tadqiq usullarini chuqur o'rganishga, ulardan tadqiqot jarayonida yo'lchi yulduzday, mayoqday foydalanishga kamdan-kam olim ongli, ichki ehtiyoj sezardi. Bundan tashqari, madaniy va ilmiy saviyasi o'ta past bo'lgan "daho"lar va tuzum peshvolari, ular tayinlagan labbaygo'y, o'zlariga monand, saviyasi o'zlarinikidan past mansabdorlar va fan peshvolari⁷⁵ amaliy dialektikadan azroildan qo'rqqandek qo'rqishar edi, zeroki dialektika hech bir ijtimoiy tuzum va tizim mutlaqligini tan olmaydi – dialektika dialektikaning o'zidan, ya'ni hamma narsaning nisbiy va o'zgaruvchanligidan o'zga hech qanday mutlaqlikni tan olmaydi va barcha holat va narsaning nisbiyligini o'rgatadi. Bu "daho"lar va ularning maddohlari esa abadiy va mutlaq hukmronlikka da'vogar edilar. Sovet davrida dialektika og'izda qancha ko'p bo'lsa, ishda, amalda shuncha oz bo'lgani ma'qul edi. Sovet tuzumi davridagi tilshunoslik tadqiqotlarida ishning kirish qismida dialektik materializm bayroq qilinar, muqaddimadan so'ng dialektika chetlashtirilib, nominalistik yondashuv asosida yo'qutilar edi. Buning xunuk oqibatlari haqida fetishizm bo'limida gapirilgan edi.

G'arb tilshunoslik tadqiqotlarida ham, juda ko'p hollarda, nazariya bilan amaliyot orasida katta uzilish mavjud. R.O.Yakobson, N.S.Trubeskoy, E.Koşeriu, A.Zayanchkovskiy, Sh.Balli, L.Ligeti, Y.Kurilovich kabi o'nlab tilshunoslar fanda nazariy tadqiqotlarning muayyan faktlardan, tavsifiy ishlarning esa falsafiy-nazariy xulosa va hukmlardan uzilganligidan shikoyat qilishgan.⁷⁶

Dialektik metodologiyadan amalda foydalanish uchun bu metodologiya tadqiq manbai (narsa)da nimalarni ko'rishni, nimalarni qidirishni va topib sharhlashni, boshqacha qilib aytganda, narsaning dialektik tadqiqi unda nimalarni izlash, bilish va sharhlash, ochib berishni talab qilishini bilish zarur.

Ma'lumki, dialektik yondashish Sharqda, xususan, tasavvufda – ilk davrlarda qadimgi Yunon va Rim antik dunyo fanidan (jumladan, Arastu, Aflotun ta'limotlaridan) oziqlanadigan bo'lsa-da, – IX–XI asrlarda to'la shakllangan mukammal nazariya mavqeini kasb etdi, axloq va odob sohasida turli tariqatlarning rivojlanishiga asos bo'ldi.⁷⁷

⁷⁵ Ивин В. Введение в философию истории. –М., 1999.

⁷⁶Косериу Э. Синхрония, диахрония и история // Новое в лингвистике. Вып. III. –М.: ИИЛ, 1963. –С. 198–232.

⁷⁷Степанянц М.Т. Мазкур асар. Бертельс Е.Э. Суфизм ва суфийская литература. –М.: ИВЛ, 1953; Мухаммадходжаев А. Мировоззрение Фаридуудина Аттора. –Душанбе, 1974; Ҳазратқулов

Sharqdan Ibn Rushd (1126–1198) asarlarining lotincha tarjimasi asosida dialektik talqin aberroizm yoʻnalishi orqali Gʻarbiy Yevropa falsafiy fikrida qaytadan jonlanib, uning ravnaqiga – Bekon – Dekart – Kant silsilasiga katta taʼsir koʻrsatdi va F.Hegel (1770–1831) taʼlimotida oʻz choʻqqisiga koʻtarildi.

F.Hegel asarlari, xususan, uning “Mantiq fani” (“Наука логики”) tahlili asosida faylasuflar oʻrganish manbaiga (narsaga) dialektik yondashishning 16 tamoyilini ajratdilar.⁷⁸ Bu tamoyillar quyidagilar:

1- jadval

Dialektik tadqiq tamoyillari

	Tamoyil mazmuni	Qaysi sohaga aloqador
	Narsaning haqqoniy (obyektiv, mustaqil) alohida ekanligi	Tadqiq manbai (TM)
	Narsaning munosabatlar majmui ekanligi	TM
	Narsa oʻzgarish va taraqqiyotda	TM
	Narsada ichki ziddiyatlar	Tadqiq usuli (TU)
	Narsa ziddiyatlar (qarama-qarshiliklar) butunligi sifatida	TU
	Qarama-qarshi tomonlarning vogelanishi	TM, TU
	Analiz (tahlil) va sintez (umumlashtirish) birligi	TU
	Narsaning oʻzga narsalar bilan munosabatlari cheksizligi	TU
	Narsalarning oʻz aksiga oʻtishi	Tadqiq jarayoni (TJ)
0	Narsa munosabatlarining (aloqadorliklarining) cheksizligi	TM, TJ
1	Narsa mohiyatiga chuqurlashishning cheksizligi	TJ
2	Narsa aloqadorliklarini cheksiz miqdorda ochib borish	TM, TU, TJ
3	Taraqqiyot bosqichida oʻtgan bosqichlar takrori	TJ, TM
	Inkning inkori natijasida eskiga	TM, TJ

M. Тасаввуф. –Душанбе: Маориф, 1988; Комилов Н. Тасаввуф 1- китоб. –Т.: Ёзувчи, 1996; 2- китоб –Т.: Ўзбекистон, 1999.

⁷⁸Диалектика теория познания. Об элементах диалектики. Под общей редакцией Б.М. Кедрова. –М.: Наука, 1965; Копнин П.В. Диалектика как логика и теория познания. –М.: Наука, 1973.

4	qaytganday bo'lish	
5	Mazmunni saqlab, shaklni yangilash	TM , TJ
6	Miqdoriy o'zgarishlarning sifat o'zgarishlariga o'tishi	TJ, TM

Mazkur tamoyillarga diqqat qilinsa, ular asosida tadqiq manbai (narsa)ni o'rganish jarayonida:

a) dialektikaning uch asosiy qonuni (qarama-qarshiliklar birligi, inkorni inkor, miqdor o'zgarishlarning sifat o'zgarishlariga o'tishi) ham;

b) dialektik mantiqning oddiy (formal) mantiq "uchinchisi mustasno" qonuniga qarama-qarshi turgan "oralik uchinchi" qonuni ham;⁷⁹

d) shakl-mazmun, umumiylik-alohidalik (xususiylik, yakkalik), mohiyat-hodisa, imkoniyat-voqelik, sabab-oqibat, zarurat-tasodif, sifat-miqdor, harakat-turg'unlik kabi kategoriyalari ham o'zining amaliy tatbiqini topishiga amin bo'lish mumkin.⁸⁰

Tadqiq manbaida mana shu tamoyillarda o'z aksini topgan tomonlarni – shu tamoyillarga xos hodisalarni ko'rish, ochish va tavsiflash narsaning *ilmiy dialektik talqini* mohiyatini tashkil etadi. Tilshunos, xazina yoki qazilma boyliklar qidiruvchisi kabi, o'z tadqiq manbaida mana shu tamoyillar voqelanishini izlashi, ochishi, kashf etishi va tavsiflashi, shu bilan ilmu fan xazinasini yangi duru gavhar bilan boyitishga intilishi zarur.

Shubhasiz, bu tamoyillarning har biri tilning har bir hodisasida o'ziga xos ravishda voqelanadi. Quyida shu xususida so'z yuritiladi.

Tadqiq manbai (predmeti)ning obyektivligi (1- tamoyil)⁸¹ tilshunosdan o'rganilayotgan lisoniy hodisani rang-barang sharoitlarda, xilma-xil birikuvlarda aniqlashni, ularga o'zidan hech bir narsani qo'shmaslikni va hech bir narsani inkor etmaslikni, narsa qanday mavjud bo'lsa, shunday ko'rish va qabul qilishni talab etadi.

Til birligi xilma-xil sharoitda rang-barang xususiyatlarga ega bo'lishi mumkin. Mana shu har xil belgilar narsaning o'zida, mohiyatida, zotida birlashadi, mujassamlashadi. Har bir til birligi majmui sifat (belgi-xususiyatlar yig'indisi) sifatida qaralishi (2-, 4-, 5-, 6-, 10- tamoyillar) shu bilan bog'liq.

Masalan, [i] unlisi |kir| so'zida yumshoq, |qir| so'zida qattiq bo'lsa, uning tabiati qattqlik-yumshoqlikka befarqdir; uni, tilshunoslar

⁷⁹Закон исключенного третьего и его антипод // Дialeктика и логика. Законы мышления. Под. Ред. Б.М.Кедрова. –М., 1962. –С. 72–88; Нигматов Х.Г. Включенное третье в морфологической системе тюркских языков // Сов.тюрк. – № 3, 1976. –С. 44–50.

⁸⁰Aniqroq aytganda, obyektiv borlik va uning narsa-hodisalarini uchun ontologik (materialistik nuqtayi nazardan – tabiatan, zotan, idealistik va ruhoni nuqtayi nazardan – aqliy, ruhiy, ilohiy) xususiyatlar bu tamoyillarda o'z aksini topgan.

⁸¹Arab raqamlari dialektik bilish tamoyillarining keltirilgan jadvaldagi tartib raqamiga ishora qiladi.

tavsiflashganidek “old qator unlisi” deb baholash mumkin emas – bunday baho noobyektiv, yolgʻon, uydirma. Xuddi shunday egalik qoʻshimchalari 1) *kitobi*, 2) *ukasi*, 3) *yoʻqligi*, 4) *gapirishi*, 5) *kechalari*, 6) *aftidan*, 7) *qaysi* kabi birikishlarda xilma-xil shakl, maʼno, vazifa, mohiyatga ega. Bularning barchasi egalik qoʻshimchasida mujassamlangan va konkret sharoitda voqelanadi deb qaralishi lozim: voqelanishlar qanchalik bir-biridan uzoq va oʻzaro ziddiyatli boʻlmasin, shu alohidalikning umumiyligidan, hodisaning mohiyatidan, voqealarning imkoniyatidan, oqibatning sababidan (AHVO – UMIS), tajallining zotidan, tasodifning zaruratidan va h. hech qachon xoli boʻlmaydi.

Dialektik **narsa – majmui sifat** tamoyili bilan uning 4- (**narsada ichki ziddiyatlar**), 5- (**narsa qarama-qarshiliklar butunligi, birligi**), 6- (**qarama-qarshi tomonlarning voqelanishi, mavjudligi**) tamoyillari uzviy bogʻliq. Bular esa, oʻz navbatida, dialektik bilishning **analiz va sintez** (tahlil va umumlashtirish) (7- tamoyil), **narsaning oʻzga narsalar bilan cheksiz munosabatlarda boʻlishi** (8- t), **narsa aloqadorliklarining cheksizligi** (10- t) bilan uzviy bogʻlangan. Chunonchi, egalik qoʻshimchasi turli xil soʻzlar bilan birikkanda xilma-xil maʼnolarga ega boʻladi. Bu qobiliyat (birikish va xilma-xil vazifa bajarish) egalik qoʻshimchasida mujassamlangan, lekin har xil sharoitlarda voqelanadi. Bunda **sharoit** maʼlum bir turdagi xususiyatni (nominalistik talqinlardan farqli oʻlaroq) y a r a t m a y d i, balki narsa (UMIS, zot, tadqiq manbai) mujassamlangan imkoniyatning yuzaga chiqishiga qulay vaziyat yaratadi, xolos.

Egalik qoʻshimchalarining mohiyatini aniqlash uchun:

a) ularning rang-barang qoʻllanilish, voqelanish holatlarini empirik usul bilan obyektiv tadqiq qilish;

b) qoʻllanilish sharoiti, har bir sharoitda shakl, maʼno, vazifalarini;

d) egalikdan shaklan va mohiyatan farqlanadigan, lekin qaysidir jihatlarini asosida ularga oʻxshash yoki mutlaqo zid boʻlgan til hodisalari bilan oʻxshashlik, farq, zidlanishlarini aniqlab sistemalashtirish (batartib joylashtirish) va tavsiflash lozim.

Egalik qoʻshimchalarining bunday aloqadorliklari esa deyarli cheksiz.

Masalan,

I. *Bu mening kitobim.*

II. *Bu kitob meniki.*

III. *Bu kitobning egasi men (Bu kitobning egasi menman).*

IV. *Bu kitobning egasiman.*

V. *Bu kitob mening mulkim.*

VI. *Bu kitob mendan.*

VII. *Bu kitob menga tegishli (qarashli).*

Bu 7 sirada maʼlum oʻxshashlik mavjud, barchasi “kitob”ning “men”ga qarashlilikini ifodalaydi. Bunday holatlar deyarli cheksiz va har bir hodisani chuqurroq oʻrganish uning yangi-yangi qirralarini ochadi hamda yana ham oʻrganish zarur ekanligini – endi yangi, avval esa

xayolga ham kelmagan tomonlarni – ko'rsatadi. Mana shuning uchun ham kishi qancha ko'p bilsa, bilmasligini uqadi. Gyote Faust tili bilan: "Shuncha o'rgandim, lekin nodon edim, nodonman, hamon", – deb bejiz aytmagan.

Narsaning aloqadorliklari cheksizdir (10- tamoyil). Chunonchi, egalik qo'shimchasi, masalan, kelishik qo'shimchalari bilan uzviy aloqada. Chunki *kitabim, ukasi* kabi so'zshakllar qaratqichli aniqlovchi bilan bog'lanadi: *uning ukasi* bir narsa bo'lsa, *u ukasi* (*U ukasi va h.*) tamoman boshqa narsa. Narsa (egalik) qancha ko'p va rang-barang munosabatlarida tadqiq va tavsif qilinsa, uning mohiyatiga shunchalik chuqurlashib boriladi (11- t). Bundan xulosa qilish mumkinki, narsa, uning mohiyati haqida hukm va bilimlar hamisha nisbiy. Hech qachon, masalan, egalik shaklining mutlaq mohiyatiga yetib bo'lmaydi. Mana shuni bilish mutlaqlashtirishdan saqlaydi, ehtiyotkorlikka, bir narsa haqida turli xil fikr va talqinlar mavjudligiga (ko'p fikrlilikka) ongli munosabatda bo'lishga, har bir fikr-xulosa ma'lum bir sharoitdagina asosli ekanligiga o'rgatadi. Taraqqiyotning asosi ham shunda. Har bir tadqiq manbai haqida ko'p fikrlilik bo'lmasa, narsaning ongdagi in'ikosi bo'lmish shu narsa haqidagi ilmiy tushunchada taraqqiyot bo'lmaydi. Narsaning aloqadorliklari va munosabatlari cheksiz. Ko'p hollarda bu aloqadorliklarni ko'rib bo'lmaydi, xolos. Shuni nazarda tutib Albert Eynshteyn: "O'zaro mutlaqo o'xshash bo'lmagan, bir-biridan juda uzoq turgan narsalar orasidagi umumiylik, o'xshashlik yoki aloqadorlikni ochish fikr uchun naqadar quvonchlidir", – deb ta'kidlagan edi. Masalan, eshik (deraza)ning oshiq-moshig'i bilan *shirin qovun* so'z birikmasi orasida qanday o'xshashlik (aloqadorlik) bo'lish mumkin? Oshiq-moshiqning bir tomoni (oshiq tomoni) ingichkalashgan, qoziqsimon, bir yoriqqa (o'yiqqa, chuqurga) kiritishga mo'ljallangan qismga ega. Uning moshiq tomonida esa shu qoziq kiritiladigan o'yiq (bo'shliq) bor. Demak, oshiqda qandaydir ortiqchalik, chiqib turgan qism, moshiqda shu qismga mos bo'shliq bor. Ikki tomon birlashsagina (bo'shliq ortiqchalik bilan to'ldirilgach), parchin butun bo'ladi, eshik bilan kesakini (eshik, deraza romini) birlashtirib, uni ochib-yopishga imkon beradi. Ikki qarama-qarshilikdan bir butunlik hosil bo'ladi – oshiqdagi zarurat moshiqdagi imkoniyat bilan (yoki aksincha) qondiriladi va (ikki yorti bir butun deyilganidek) bir butunlik hosil bo'ladi.

So'z birikmasida ham shunday holat kuzatiladi.

Alohida olingan *shirin* so'zi ma'lum bir ta'm-maza belgisini mavhum holatda atab keladi. Uni tatib ko'rish mumkin emas, chunki belgini tatib, ushlab bo'lmaydi. *Qovun* so'zi esa ma'lum bir narsani, poliz o'simligini atab keladi, lekin uning belgisi ko'rsatilmagan. Narsa (predmet) esa hech qachon belgisiz bo'lolmaydi. Demak,

shirin – narsasiz belgi

qovun – belgisiz narsa.

Ularning birikishi esa «*ma'lum bir belgi va shu belgi mujassamlangan narsa*» (yoki *narsa va unda mavjud bo'lgan belgi*)

mohiyatni kasb etib va tugallik, butunlik hosil bo'ladi. Demak, *oshiq moshiqqa* (yoki *moshiq oshiqqa*) intilganidek, belgi narsaga, narsa belgiga intiladi va ularning birikishi bir butunlikni – oshiq-moshiq va so'z birikmasini hosil qiladi.

Demak, bir-biridan juda uzoq bo'lgan bu ikki hodisa orasida ham umumiylik, aloqadorlik bor ekan.⁸²

Dialektikaning shakl-mazmun simmetriyasi va asimmetriyasi (15- tamoyil) tilda voqelanuvchi eng keng tarqalgan hodisalardan. Buni har bir til birligida ko'rish mumkin.⁸³ Egalik ma'nosini ifodalab kelayotgan va yuqorida keltirilgan siraga ko'z yugurtirilsa ham, unda shakllarning xilma-xilligi va mazmunning yaqinligi, aynanligi (chunonchi *-i* va *-si*), mazmunning rang-barangligi va shakllarning o'xshashligi (aynanligi) (chunonchi, *ukasi* va *qaysi*) keng tarqalgan hodisa ekanligining guvohi bo'lish mumkin.

Miqdor o'zgarishlarining sifat o'zgarishlariga o'tishi (16- tamoyil) ham tilda yorqin ko'rinadigan qonuniniyatlardan. Chunonchi, *ninni ~ chaqaloq ~ go'dak ~ bola ~ o'smir ~ o'spirin ~ yigit ~ erkak ~ chol ~ qariya ~ bobo*. So'zlararo farqlar faqat miqdoriy, lekin *ninni ~ bobo*, *go'dak ~ chol* so'zlari o'zaro lisoniy antonimik munosabatda. Yoki *qo'li ~ kitobi ~ ukasi ~ otasi ~ uyi ~ qo'shnisi ~ kelishi ~ ozligi* kabi so'zlar qatorida egalik ma'nosi butun-bo'lakdan asta-sekin kamayib, *ozligi* so'ziga kelib "yo'qlik" ma'nosiga o'tadi.

Inkorning inkori (14- t) ham tilda keng tarqalgan hodisa. Chunonchi: *ko'rmagan emasman* → ikki inkor bir tasdiq. O'zbek tilida mohiyatan o'zaro zid ma'noli (morfologik antonim) bo'lgan chiqish va jo'nalish kelishigi shakllarining *gapirishga qo'rqdi – gapirishdan qo'rqdi* holatlarida ma'nodoshligi (morfologik sinonimligi) ham shu qonun bilan izohlanishi mumkin.

Dialektikaning sanab o'tilgan 16 tamoyili istagan til birligida namoyon bo'ladi. Faqat shuni ta'kidlab o'tish lozimki, ilmiy dialektik bilish tamoyillari *h e c h q a c h o n* alohidalikda, biri ikkinchisidan (aniqrog'i, boshqa 15 tasidan) ajralgan, uzilgan holda voqelanmaydi – istagan hukmda bu 16 tamoyilning barchasi mavjud. Tadqiqotchi ularni ko'ra olishi, ocha bilishi va sharhlay olishi kerak, xolos. Fikrni oydinlashtirish uchun suhbat nutqidan parcha olib, undagi bir hukmda (gapda) shu 16 tamoyilning voqelanishi ko'rib o'tiladi.

Suhbat nutqi parchasi:

- *Bu qiz kim?*
- *Ammam.*

⁸²Umuman, o'zaro birikib, bir butunlik hosil qiladigan har qanday narsa o'zaro zid bo'lgan holda bir-birini taqozo, talab ham etadi. Bu birikishning umumiy, mutlaq qonuni bo'lsa kerak.

⁸³Карцевский С. Асимметрический дуализм лингвистического знака. Звегинцев В.А. История языкознания XIX–XX веков в очерках и извлечениях Ч. II. –М., 1965. –Б. 85–90.

Quyida dialektik tamoyillarning mana shu *Ammam* hukmida (bunda u nolisoniy hodisa, shaxs sifatida qaraladi) voqelanishini ochishga va ko'rsatishga harakat qilinadi.

1- tamoyil. *Ammam* ta'kidi (ya'ni so'zlovchi tomonidan) narsaning haqqoniy, *mendan* tashqaridagi boshqa bir mavjudlik, obyektiv borliq birligi (shaxsi) ekanligini tasdiqlaydi.

2- tamoyil. *Ammam* ta'kidida *amma* inson umumiyliigi, ayollik jinsi, shaxslik, qon-qarindoshlik toifasiga mansublik va h. belgi-xususiyatlariga mansub shaxs, ya'ni *majmuyi sifat* ekanligi o'z aksini topgan.

4-, 5-, 6- tamoyillar. *Amma* menga nisbatan *amma*, boshqa birovga nisbatan *ona*, *qiz*, *xola*, *jiyan*, *xotin* va h. k. bo'la olishi *-m* egalik qo'shimchasi bilan ta'kidlangan. Demak, *amma menga* nisbatan bir turdagi sifat-munosabat sohibi bo'lsa, o'z *ammasi*ga nisbatan boshqa, *onasiga* va h. nisbatan boshqa-boshqa sifat-munosabatlar tashuvchisi. Barcha bir-biriga zid bo'lgan belgi-xususiyatlar bitta narsada – *amma* shaxsida mujassamlangan.

3- tamoyil. Mening tug'ilishidan oldin *ammam* *amma* emas edi, *amma* bo'ldi, ya'ni o'zgardi. Hozir u, masalan, *ona* emas, lekin ma'lum muddatdan keyin *ona* bo'ladi, ya'ni u doimiy o'zgarishda.

7- tamoyil. *Ammam* hukmida bir narsani (qizni) inson, ayol, shaxs va h. umumiyliklardan ajratish (analiz), uni qon-qarindoshlar guruhiga birlashtirish va "men" bilan bog'lash (sintez) voqelangan.

8- tamoyil. *Amma* shaxs, ayol jinsiga mansublik bilan birga kasb-kori, yashash joyi va h. tomonlari bilan boshqa cheksiz shaxs va narsalar bilan munosabatda. Bunday rang-barang munosabatlar tashuvchisi ham shu *ammam* deb atalgan shaxs. Uning munosabatlarining juda ko'p qirralari (chunonchi, xotinlik, onalik, buvilik, kelinlik, o'qituvchilik, rahbarlik va b.) ochilishi ham oldinda. O'tmishda ham u bog'cha, maktab, oila va b. rang-barang munosabatlar tashuvchisi bo'lgan – ammaning barcha munosabatlarini men hech qachon to'liq ocha olmayman.

9- tamoyil. *Ammam* men uchun *amma*. O'z *ammasi* (*xolasi*, *tog'asi*, *amakisi* v. h.) ga nisbatan buning aksi – *jiyan*.

10- tamoyil. U yuqorida sharhlangan 8-, 4-, 5-, 6- tamoyillar bilan o'xshash, chunki narsadagi belgi-xususiyatlar munosabatlarda voqelanadi.

11- tamoyil. *Amma* ni o'rgangan sari uning mohiyatiga (oddiy tanishdan mukammal bilishga) chuqurlashib borilaveradi.

12- tamoyil. Bu 10- tamoyil va unga aloqadorlikning inson ongida aks ettishi va narsa haqida bilimning haqqoniy borliq bilan aynanligi (mosligi) .

13-, 14-, 15-, 16- tamoyillar. Narsaning taraqqiyot va o'zgarishi bilan bog'liq bo'lib, haqiqatan ham *amma* har soniya-yu soatda o'sib boryapti, lekin bu o'sish miqdoran shunday kamki, sezilmaydi, lekin 10–15 yildan keyin bu miqdoriy o'zgarishlar sifat o'zgarishlarga o'tadi (16- tamoyil), *amma* *qiz* holatidan *kelin*chak ~ *juvon* ~ *ayol* ~ *xotin* ~ *ona* ~ *kampir* ~

buvi ~ *momo* holatlariga o'tadi (14- tamoyil), bora-bora *boladek* (bola emas) bo'lib qoladi (13- tamoyil), shakl va mazmun qisman yoki butunlay o'zgaradi (15- tamoyil).

Endi mazkur dialektik tamoyillarning *amma* leksemasida (bunda birlik til hodisasi sifatida qaraladi) voqelanishini ochishga va ko'rsatishga harakat qilinadi.

1- tamoyil. *Amma* leksemasi haqqoniy, ya'ni so'zlovchidan tashqaridagi obyektiv tabiatli lisoniy birlik.

2- tamoyil. *Ammam* so'zshaklining asosi bo'lgan *amma* leksemasi *inson* leksemasining giperonimi, "ayol", "shaxs", "qon-qarindoshlik" semalariga ega, ya'ni *majmuyi sifat* lisoniy birlik.

4-, 5-, 6- tamoyillar. Bu leksema *men* leksemasiga nisbatan boshqa, shu bilan birga, *ona*, *qiz*, *xola*, *jiyan*, *xotin* va h.larga nisbatan boshqa semantik qirradi bilan munosabatda bo'ladi. Demak, *amma* leksemasi *men* leksemasiga nisbatan bir turdagi sifat va munosabatga ega bo'lsa, boshqa leksemalarga nisbatan boshqa-boshqa sifat-munosabatlar tashuvchisi. Barcha bir-biriga zid bo'lgan belgi-xususiyatlar bitta birlik – *amma* leksemasida mujassamlangan.

3- tamoyil. Til paydo bo'lganda *amma* ushbu nomemaga ega emas edi, bugungi kunda u shunday qiyofaga keldi, o'zgardi, ya'ni u doimiy o'zgarishda.

7- tamoyil. *Amma* leksemasida bir leksemani inson, ayol, shaxs va h. leksemalar umumiyliklaridan ajratish (analiz), uni "qon-qarindoshlar" lug'aviy-ma'naviy guruhiga birlashtirish va *ammam* so'zshaklida uni *men* leksemasi bilan bog'lash (sintez) yuzaga chiqqan.

8- tamoyil. *Amma* leksemasi "shaxs", "ayol" semalari bilan birga, substansial mohiyatining boshqa qirralari asosida boshqa cheksiz lisoniy birliklar bilan munosabatda. Bunday rang-barang munosabatlar tashuvchisi ham shu *amma* leksemasi. Uning munosabatlarining yana juda ko'p qirralari (chunonchi, "xotin", "ona", "buvi", "kelin" . . . , "o'qituvchi", "rahbar" kabi nutqiy ma'nolar) ochilishi hali oldinda – *amma* leksemasining barcha munosabatlarini hech qachon to'liq ochib bo'lmaydi.

9-tamoyil. *Amma* birligi *men* olmoshi bilan olinganda avtosemantik birlik, fonemalar bilan birga olinganda nominativ birlik, morfemalar bilan olinganda leksema, yordamchi so'zlar qatorida mustaqil leksema.

10- tamoyil. U yuqorida sharhlangan 8-, 4-, 5-, 6- tamoyillar bilan o'xshash, chunki narsadagi belgi-xususiyatlar munosabatlarda voqelanadi.

11- tamoyil. *Amma* leksemasini turli metodologik asoslarda turli tomondan va turli metodlarda o'rgangan sari uning mohiyatiga (oddiy tanishdan mukammal bilishga) chuqurlashib borilaveradi.

12- tamoyil. Bu 10- tamoyil va unga aloqadorlikning inson ongida aks etishi va narsa haqida bilimning haqqoniy borliq bilan aynanligi (mosligi) .

13-, 14-, 15-, 16- tamoyillar. Narsa taraqqiyot va o'zgarish bilan bog'liq bo'lib, haqiqatan ham *amma* leksemasi har soniya-yu soatda rivojlanishda, lekin bu o'sish miqdoran shunday kamki, sezilmaydi, lekin davr o'tishi bilan bu miqdoriy o'zgarishlar sifat o'zgarishlarga o'tadi, shakl va mazmun qisman yoki butunlay o'zgaradi.

Bu sharhdan ko'rinib turibdiki, bittagina *amma* birligida, xoh u obyektiv borliq birligi, xoh lisoniy birlik bo'lsin, dialektik bilishning (dialektik mantiqning) har 16 tamoyili voqelanadi. Faqat dialektik tahlil va tadqiqda narsa (jumladan, *amma*) turli **munosabatlarda** va taraqqiyotda olinishi shart. Shu bilan dialektik mantiq (dialektik tadqiq) oddiy mantiqdan farq qiladi. Chunki oddiy mantiq narsa haqida o'z hukmini ma'lum zamon, ma'lum makon, ma'lum munosabatlar holatida chiqaradi, dialektik mantiq esa uni butunligicha, rang-barang munosabatlarida, doimiy taraqqiyotda o'rganadi.⁸⁴ Shuning uchun narsa haqida dialektik mantiq qoidalari asosida chiqarilgan hukm formal mantiqiy ziddiyatlarga ega bo'lmasligi kerak, ya'ni *ammam* menga ayni zamon, o'z ma'nosida *ona* bo'lolmaydi, u *ona* bo'lishi mumkin, faqat boshqa birovga nisbatan, xolos.

Ma'lum bo'ladiki, dialektik munosabatlar juda oddiy, hammaga tushunarli hodisalarda ham namoyon bo'laveradi. Faqat bu munosabatlarni ilg'ay olish lozim, xolos. Buyuk faylasuflar (jumladan, I.Kant, F.Hegel va ularning shogirdlari), o'z tadqiqotlarini juda sodda, atigi bir gapdan iborat bo'lgan *To'rtko'z itdir*, *Suqrot – odam*, *Odam – foniy* va h. kabi hukmlar (ya'ni ta'riflar) misolida amalga oshirar va shu oddiy, tushunarli misollar asosida juda chuqur, keng qamrovli ilmiy-falsafiy qonuniyatlarni ochar va sharhlar edilar. Bunday usul, ayniqsa, Sharq falsafasida IX asrdan keyin ma'rifiy adabiyotda (tasavvuf adabiyotida) yuksak san'at darajasiga ko'tarildi. Farididdin Attor, Jaloliddin Rumiy, Hofiz Sheroziy, Shayx Sa'diy, Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiylar bu yo'nalishda shoh asarlar yaratib insoniyatni hayratda qoldirishdi.⁸⁵

Quyoshli kunda ham osmon zim-ziyo tundagidek yulduzlar bilan to'la bo'lgani, lekin qurollanmagan ko'z bu yulduzlarni ko'ra olmaganidek, oddiy hodisalarda o'ta murakkab qonuniyatlarni (jumladan, dialektikani) har qanday "ko'z" ko'ra olmaydi, buni ko'rish uchun **ko'z** qurollangan, ma'rifatli – aniq metodologiyaga ega bo'lishi shart.

Har bir tadqiqotchi o'z metodologik asoslarini aniq belgilab olishi, ishining kirish qismida uni muhtasar sharhlab berishi zarur. Metodologik bilim va uquv tadqiqotchi, olim uchun suv va havodek zarur: u olimlik belgisi.

⁸⁴Розенталь М.М. Принципы диалектической логики. –М., 1960.

⁸⁵Вохидов Р., Нейматов Х. Суз бағрида маърифат. –Т.: Ёзувчи, 2001.

LINGVISTIK TADQIQ METODLARI

Tadqiq metodi haqida

Tayanch tushunchalar

metod, davr ehtiyojlari, sinxronik tahlil, diaxronik tahlil, tadqiq manbaining serqirraligi, bir-biriga zid bo'lgan hukmlarning bir-birini to'ldirishi, dialektik inkor, hukmning muayyanligi, orif va johil, tolerantlik

Aytilganidek, **metod** va **metodologiya** tushunchalari keskin va izchil farqlanishi lozim. **Metod** deganda tadqiq manbaining biror qirrasini o'rganishga xoslangan usul, yo'l tushuniladi, xolos. Tadqiqotchining maqsadi (fahmiy yoki idrokiy bilim hosil qilishi), tadqiq manbaiga dialektik yoki nominalistik yondashishi, materialistik yoki idealistik dunyoqarashi kabi, asosan, *subyektiv* (tadqiqotchining bevosita o'ziga aloqador) omillar bilan bog'liq bo'lgan metodologiyadan farqli ravishda metodlar obyektiv (haqqoniy, tadqiqotchining o'zi bilangina aloqador bo'lmagan) tabiatli va juda ko'p hollarda tadqiqotchining metodologik tamoyillariga nisbatan befarq.

Faraz qiling, ko'z oldingizda turgan (bevosita kuzatishda berilgan) bir xarsang tosh yoki qoyani o'rganmoqchisiz –bu toshning butun tarkibidagi o'rni, tarixiy taraqqiyoti, abadiy yoki muvaqqatligi, atrofidagi narsa-hodisalar bilan aloqadorliklari emas, balki toshning o'zining tabiiy xususiyatlarini bilish, boshqacha aytganda, shu xarsang tosh haqida fahmiy bilimlar qiziqtiradi. Bu xarsang tosh serqirra bir narsadir – unga vazn, ko'lam, shakl, tarkib, holat kabi o'nlab belgi-xususiyatlar xos bo'lib, ulardan har biri o'ziga xos vosita yordamida aniqlanishi va tavsiflanishi mumkin. Masalan, vazni o'lchash va belgilash vositalari (tarozi, tortish kuchi, bosim va h.) yordamida ko'lamni aniqlash va tavsiflash mumkin emas – vazn va ko'lam bir-biriga o'xshash bo'lmagan alohida mezon va usullar bilan o'lchanadi. Mana shu mezon va usullar xarsang toshning turli qirralarini o'rganish metodlari. Masalan, vaznni belgilashning eng oddiy usuli – tarozi va toshlar, o'lchov birliklari hozirgi kunda jamiyatda obyektiv tabiatga ega va hamma – dunyoqarashidan qat'i nazar – ulardan bemalol foydalanadi. Tadqiq metodlari ham shunday – ulardan bir-biriga zid dunyoqarashlarda turgan, turli maqsadlarni ko'zlagan tadqiqotchilar amaliyotda bir xil foydalanishlari mumkin.

Til o'ta serqirra ijtimoiy-ruhiy-fiziologik hodisa. Uning minglab qirralari, rang-barang ijtimoiy, tabiiy (biologik, fizik, genetik va b.), ruhiy hodisalar bilan juda murakkab aloqa-munosabatlari bor. Til behad murakkab butunlik bo'lib, uning lisoniy va nutqiy tomonlari, ularning har birining fonetika, leksika, morfologiya, sintaksis, so'z yasalishi, stilistik qo'llanilish kabi tarkibiy qismlari bor. Tilshunoslikda ikki tushunchaning:

- a) tilshunoslik bo'limlari (sohalari);
- b) tilshunoslik yo'nalishlari (maktablari, oqimlari)ning farqlanishi bevosita shu bilan bogliq.

Tilshunoslik bo'limlari (sohalari, qismlari – ruscha – разделы, отрасли языкознания), deganda tilning qurilish (struktur) biliklari va ularning o'zaro munosabatlarini o'rganuvchi, tilshunoslik tarkibiga kiruvchi

- a) fonetika (fonologiya),
- b) morfologiya (morfemika),
- d) leksikologiya (semasiologiya, leksikografiya),
- e) frazeologiya (paremiologiya),
- f) sintaksis,
- g) so'z yasalishi (derivatsiya),
- h) stilistika (uslubiyat, uslubshunoslik, lingvopoetika)

kabi nisbatan mustaqil fanlar tushuniladi va ular bitta murakkab fanga – tilshunoslik (lingvistika) faniga birlashadi. Tilshunoslik bo'limlari til sathlari – yaruslari bilan uzviy bog'liq.

Tilshunoslik yo'nalishlari (oqimlari, maktablari, turlari – ruscha: направления школы, виды языкознания) deganda insoniy tilning ayrim qirralarini chuqurroq tadqiq qilishga (o'rganish va tavsiflashga) ixtisoslashgan, o'ziga xos tadqiq metodlariga ega bo'lgan tilshunoslik turlari tushuniladi.⁸⁶ Esdan chiqarmaslik lozimki, tilshunoslik yo'nalishlari hamisha ma'lum bir tadqiq metodi bilan bog'liq. Tadqiq metodi tilshunoslikning ma'lum bir yo'nalishini birlashtiruvchi eng asosiy omil. Shu asosda tilshunoslik yo'nalishlari shu yo'nalishda etakchi bo'lgan metod nomi bilan *tarixiy tilshunoslik, qiyosiy tilshunoslik, tipologik tilshunoslik va h. deb* yuritiladi.

Odatda, lingvistik tadqiq metodlari tilshunoslikning barcha bo'limlari uchun umumiydir, ya'ni ayni bir usul bilan tilning fonetik qurilishi ham, leksik va morfologik va b. tomonlari ham tadqiq qilinadi. Chunonchi, tarixiy tilshunoslikda tarixiy fonetika, tarixiy fonologiya, tarixiy morfemika, tarixiy sintaksis, tarixiy stilistika va b. bo'limlar mavjud. Shu bilan birga, tilning ayrim sath birliklarini (bo'limlari, sohalarini) o'rganishga ixtisoslashgan tadqiq usullari ham bor (chunonchi, eksperimental fonetika, semantik sintaksis, lingvistik semantika).

Tilshunoslikda lingvistik tadqiq metodlari juda ko'p. Tom ma'noda tilshunoslik tarixi – bu tilni tadqiq etish usullarining bosqichma-bosqich almashinib, yangilanib borish, bir-birini to'ldirib, til mohiyatiga chuqurlasha borish tarixidir; tilshunoslik tarixiga bag'ishlangan har qanday tadqiq va qo'llanma ayni zamonda tilning tadqiq metodlari

⁸⁶Shuni alohida ta'kidlash kerakki, tilshunoslik bo'limlari va tilshunoslik yo'nalishlari tushunchalari rus tilshunosligida ko'p hollarda aralashiriladi. Qap.: Ахманова О.С. Словарь лингвистических терминов. –М.: СЭ, 1966. –С. 217–218; Лингвистический энциклопедический словарь. –М.: СЭ, 1990. –С. 618–622.

masalalarini ham o'z ichiga oladi. Bu yo'nalishda XX asrning 80-yillarigacha qilingan ishlar haqida ma'lumotlarni

1) *Общее языкознание. Библиографический указатель литературы.* Отв. ред. Б.А.Серебрянников. –М.: Наука. 1965. 276 стр.;

2) Амирова Т.А., Ольховников Б.А., Рождественский Ю.В. *Очерки по истории лингвистики.* –М.: Наука. 1972. 560 стр.;

3) Звегинцев В.А. *История языкознания XIX–XX вв. в очерках и извлечениях. Части 1–2.* –М.: Просвещение. 1965–1966;

4) *Лингвистический энциклопедический словарь.* –М.: СЭ. 1990 (Қайта нашрлари: 1995, 1998, 2001);

5) *Виноградов В.В. История русских лингвистических учений.* – М.: Высшая школа. 1978.

6) Березин Ф.М. *Очерки по истории языкознания в России конца XIX – начала XX веков.* –М.: Наука. 1968.

7) *Кондрашов Н.А. История лингвистических учений.* –М.: Просвещение. 1970.

8) *История лингвистических учений.* Отв. ред. А.И.Десницкая, С.Д. Кацнельсон. 1- книга. *Древний мир.* –Л.: Наука. 1980. 2- книга. *Средневековый Восток.* –Л.: Наука. 1981. 3- книга. *Средневековая Европа.* –Л.: Наука. 1985.

9) Звегинцев В.А. *История арабского языкознания.* –М.: 1958.

10) *Основные направления структурализма.* Отв. ред. О.С.Ахманова. –М., 1965.

11) *Апресян Ю.Д. Идеи и методы современной структурной лингвистики.* –М., 1966.

kabi kitob va ma'lumotnomalardan, bundan keyingi davrlarga oid axborotni Internet tarmog'i Lingvistika veb-saytining "Tarix" va "Metodlar" fayllaridan topishingiz mumkin.

Tadqiq metodlari tilshunoslik yo'nalishini belgilashi va ilmiy maktab ko'p hollarda metod nomi bilan atalishi sababli "Qiyosiy-tarixiy tilshunoslik", "Naturalistik tilshunoslik", "Komparativistika", "Geneologik tilshunoslik", "Formal tilshunoslik", "Funksional tilshunoslik", "Areal tilshunoslik", "Struktur tilshunoslik", "Deskriptiv tilshunoslik", "Matematik tilshunoslik", "Kompyuter tilshunosligi", "Psixologik tilshunoslik" (psixolingvistika) va h. kabi yo'nalishlarga bag'ishlangan ish va faylu saytlarda shu yo'nalish uchun yetakchi bo'lgan tadqiq metodlari haqida ma'lumot olish mumkin.

Bundan tashqari lingvistik tadqiq metodlariga maxsus bag'ishlangan ishlar ham oz emas. Chunonchi, "Общее языкознание. Методы лингвистических исследований." –М.: Наука. 1973. Bunday ishlar o'zbek tilida ham bor. Jumladan, С.Усмонов. *Умумий тилшунослик.* – Т.: Ўқитувчи. 1972; Баскаков Н.А., Содиқов А., Абдуазизов А. *Умумий тилшунослик.* –Т.: Ўқитувчи. 1979. darslik va qo'llanmalarida bu masalaga maxsus boblar ajratilgan.

Yana shuni eslatib o'tish lozimki, ma'lum bir lingvistik tadqiq metodini o'zlashtirish tilshunoslikning ma'lum bir yo'nalishini mukammal o'zlashtirish bilan baravar. Oldingi mavzuda aytilganidek, Siz shunday yo'nalishlarning 5–6 tasi bilan maxsus shug'ullanasiz, ularning metodlari bilan chuqurroq tanishsiz. Tilshunoslik (masalan, ona tili, o'zbek tili grammatikasi) bo'yicha oz bo'lsa-da, bilimga ega bo'lgan kishi, albatta, uning bir turli tadqiq usulidan ham (uqilmagan holda bo'lsa ham) xabardor bo'ladi. Bu monografiya mavzulari Sizga metod va metodologiya masalalariga ongli munosabatda bo'lish, xilma-xil usul (metod)lar bilan qo'lga kiritilgan bilimlarni til hodisalari mohiyatini anglash va izohlash jarayonida birlashtira olish madaniyatini singdiradi. Olim, orif va tadqiqotchi uchun – xususan, ko'p fikrlik va demokratik munosabatlar to'laqonli amalga kirayotgan jamiyatda bu juda zarurdir: tadqiq manbaining bir qirrasini haqida bir tadqiqotchi tomonidan bayon etilgan fikr yoki xulosa shu manbaining boshqa qirrasini uchun haqqoniy bo'lmashligi mumkin. Olim va orif esa bu qarama-qarshi hukmlarni birlashtira olish, har bir hukm va xulosaning haqqoniylik va tatbiq chegarasini bilish madaniyatiga ega bo'lmog'i lozim. Shu bilan bog'liq ravishda diqqatingizni yana bir dafa "Lisonu-t-tayr"da keltirilgan ko'zi ojizlar tavsifida fil va bu tavsiflarning orif tomonidan qabul qilinishi haqidagi rivoyatga qaratamiz.

Tilshunoslik tarixi shuni ko'rsatib turibdiki, dialektik bilish tadqiq manbai mohiyatiga bosqichma-bosqich uzluksiz chuqurlasha borish, soddaroq (oddiyroq) mohiyatdan murakkabrog'iga qarab to'xtovsiz siljish demak. Shu asosda tadqiq metodlari ham fan tarixida bir birini almashtirib turadi. Bir metod asosida ochilgan qonuniyatlar boshqa bir metod bilan aniqlangan hukmlarni rad va inkor qilgan hollarda ham bunday inkorni to'g'ri – dialektik tushunmoq lozim – bu qat'iy, mutlaq inkor emas, balki nisbiy, dialektik inkor – inkorning inkori, narsa mohiyatiga chuqurlasha borishning bir bosqichidir, xolos. Buni bir oddiy hayotiy misol bilan tushuntirishga intilinadi. Tilning turli qirralari haqida turli usullar (metodlar) bilan hosil qilingan bilimlar va ochilgan qonuniyatlar bir katta binoning old, orqa, yon, ust tomonlaridan olingan suratlar bilan qiyoslanishi mumkin. Bu fotosuratlar bir-biriga mutlaq o'xshamasa-da, ularning barchasi bitta zotda – bir binoning shaklida birlashadi; bu fotosuratlar birini to'ldirib, bino shakli haqida bilimlarning mukammal bo'lishiga xizmat qiladi. Binoning to'rt tomonidan suratini chizgan olimlarning birortasi ham xato yoki noto'g'ri ish qilmagan. Xatoga binoning bir tomonidan olingan tasvirini (*resp.* tilning bir qirrasini haqida ma'lum bir metod bilan olinadigan qonuniyatni) binonig o'zi bilan tenglashtirishdadir – kim bunga yo'l qo'ygan bo'lsa, albatta, xato qilgan bo'ladi. Shuning uchun Alisher Navoiy "Lisonu-t-tayr"da:

*"O'z borur yo'lida har bir muftaxir,
Yo'lni aylab o'z yolig'a munhasir*

(Har bir yo'lovchi o'z yo'lini to'g'ri deb biladi va umuman yo'lni o'z yo'li bilan cheklaydi⁸⁷),” – deb yozadilar. Hazrat ta'birlaricha, oriflik bilan johillik farqi ham shundadir – orif o'zaro o'xshash bo'lmagan tasvirlar bir binoga mansub ekanligini tushunadi, johil esa zohiriy farq asosida ularning birligini rad etadi. Ko'p fikrlilik, tolerantlik (bag'ri kenglik), ustuvor demokratik tamoyillar ham har qanday qarashga – xususan, ilmiy talqinlarga – oriflik nuqtayi nazaridan yondashishni talab qiladi.⁸⁸ Shu bois istagan fanda tadqiq metodlarining almashinib turishi fanning uzluksiz taraqqiyoti belgisi sanalishi lozim. Ma'lum bir tadqiq uslini mutlaqlashtirish shak-shubhasiz fetishizmga olib keladi. Uning xunuk oqibatlari haqida yuqorida bahs yuritildi. Bugungi kunda bu o'ta dolzarb, ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy-madaniy rivojlanishda muhim ahamiyat kasb etuvchi masala bo'lganligi sababli uning ustida yana ham batafsilroq to'xtalishni ortiqcha deb bo'lmaydi.

Alisher Navoiy “Lisonu-t-tayr”ning “Ma'rifat vodiysining vasfi”ga bag'ishlangan 153–154- boblarida hikoyatda “ko'r”lar johil, dialektik metodologiya bilan qurollanmagan tadqiqotchilar timsoli. Orif esa dialektik (ma'rifiy) metodologiya bilan ish tutuvchi va hukm chiqaruvchi orif – komil biyno shaxs. U “ko'r”lar bir-birini inkor qilishga intilib munozara qilsalar-da (“Bir-birining so'ziga aylab xilof, gar jadal qildilar”), ularni kechiradi (“erdilar maof”), chunki “ko'r”lar narsani yaxlit, serqirra sifatida qabul qila olmas edilar (“Solmag'on erdi biri pil uzra ko'z”).

Bu hikoyat o'zgacha shaklda Jaloluddin Rumiyning “Masnaviyi ma'naviy”, undan oldinroq Fariduddin Attor, hatto Nizomiy Ganjaviy asarlarida keltiriladi va hamisha ma'rifatni (ayni zamonda tariqatni) va jaholatni (ayni zamonda shariatni) farqlash maqsadlarida ishlatiladi. Shariat va mafkuraviy hukmronlik o'z talqinlaridan o'zgacha fikrlashni kufr (ishonchsizlik, isyon) deb biladi va ularni ta'qib etadi. Bu haqda Ibn Sino bir ruboiylarida shunday yozadi⁸⁹:

O'zin dono bilgan uch-to'rtta nodon

Eshak tabiatin aylar namoyon.

Ular davrasida sen ham eshak bo'!

Bo'lmasa kofir deb qilurlar e'lon.

(Sh. Shomammedov tarjimasini)

Fan taraqqiyoti tarixida ham bunday hollar juda ko'p uchraydi. Ayniqsa, ijtimoiy-gumanitar fanlar sohalarida. Bu fanlar bo'yicha chiqarilgan xulosalar ko'p hollarda fahmiy usul bilan qabul qilinishi mumkin emas. Fan cho'qqisida turgan “daho”larning qarashlari esa oldingi taraqqiyot bosqichi asosida shakllangan va kamdan-kam hollarda

⁸⁷Masalan, Ka'baga dunyoning to'rt nuqtasidan to'rt yo'lovchi to'rt yo'ldan – biri shimoldan, ikkinchisi janubdan, uchinchisi sharqdan, to'rtinchisi g'arbdan boradi. Xiima-xil yo'nalishdagi bu yo'llar bir nuqruga, maqsadga olib keladi.

⁸⁸Shuning uchun Prezident Islom Karimov fikrga qarshi fikr, g'oyaga qarshi g'oya, lekin jaholatga qarshi ma'rifati qarshi qo'yish shiorini o'rtaga tashladilar.

⁸⁹ Bu ruboiy ba'zan Umar Xayyomga ham nisbat beriladi.

ular o'z qarashlari inkorini to'g'ri qabul qila oladilar. Ko'pincha esa bu "jo'jaxo'rozlar daholarga o'rgatmoqchi" qabilida ish tutib, taraqqiyotga to'sqinlik qiladilar. Dialektik metodologiya bilan qurollanib, yangi taraqqiyot yo'lidan borayotgan shijoatli tadqiqotchilar ularni (Alisher Navoiy hikoyatidagi orif singari) "maof tutish"lari va izlanishlaridan chekinmasliklari lozim. Fanda xilma-xil metod va talqinlarning mavjudligi uning rivojlanganlik belgisi va taraqqiyotining yagona usuli.

Lingvistik tadqiq metodlari rang-barang bo'lgani holda fanimizda ularning mukammal tasnifi haligacha berilmagan. Lingvistik tadqiq metodlarini odatda sixronik va diaxronik tadqiq usullar sifatida ikki guruhga ajratadilar. Sinxronik tadqiq va tahlilda tilning ma'lum bir davrdagi turg'un holati va uning hodisalari tadqiq manbayi sifatida olinadi. Bu davr hozirgi kunda ham, bundan bir necha asr muqaddam ham bo'lishi mumkin. Sinxronik tahlilda bir davrda yonma-yon turgan lisoniy hodisalar tavsiflanadi.

Diaxronik tadqiq va tahlilda bir lisoniy hodisa turli taraqqiyot davrlarida olib ko'riladi va unda hodisalar orasida birin-ketinlik (oldin-keyinlik) munosabatlari o'rganiladi. Chunonchi, "Hozirgi (yoki XII asr) o'zbek tilida unli fonemalar" tadqiq mavzusi sinxronik tahlilga aloqador bo'lsa, o'zbek tilida /a/ fonemasinig (yoki unli fonemalarning) taraqqiyoti" mavzusi diaxronik tadqiq va tahlilga mansub.

Ilmiy adabiyotlarda har bir davrda – xoh hozirgi kun bo'lsin, xoh bundan ikki yuz yil muqaddam – tahlil usullarini *an'anaviy* (oldingi, eski, avvalgi) va *yangi* (hozirgi, zamonaviy) sifatida ikkiga ajratib tasnif etishni juda ko'p uchratish mumkin. Bunday bo'linish mohiyatan noto'g'ri, lekin ilmiy adabiyotda keng tarqalgan. Hamma davrlarda *an'anaviy* deganda o'sha davrda keng ommalashgan, ta'lim muassasalarida ommaviy ravishda o'qitilayotgan tadqiq va tahlil usullari tushunilgan. *Yangi* (hozirgi, zamonaviy) atamasi bilan oldingi tadqiq va tahlil usullarining inkori sifatida shakllangan tadqiq usullari nomlangan XVIII asr uchun mantiqiy-grammatik (Por-Royal) tahlil usullari *an'anaviy*, komparativistik tadqiqotlar yangi bo'lgan bo'lsa, XIX asrda komparativistik tadqiqotlar *an'anaviy*, yosh grammatiklarning tadqiq usullari (neogrammatika) yangi mavqe egalladi. XX asr boshlarida neogrammatika *an'anaviy* nomi bilan, strukturalizmning turli oqimlari esa yangi deb ataldi.⁹⁰ Shu sababli *an'anaviy/zamonaviy* atamalariga juda ehtiyot bo'lish, ulardan foydalanmaslikka intilish lozim; har bir tadqiq usuli (metodi) o'z nomi (atamasi)ga ega va har bir narsani o'z nomi bilan atagan ma'qul.

Mana shunday umumiy mulohazalardan keyin navbatdagi mavzuda lingvistik tadqiq metodlaridan eng ommaviy (va bizga yaqin, tanish) turlaridan ayrimlarining asosiy tamoyillari, serqirra tilning qaysi tomonini chuqurroq o'rganishga xizmat qila olishi haqidagi suhbatga o'tiladi.

⁹⁰Hozirgi o'zbek tilshunosligida ham shu holat hukm surmoqda.

Lingvistik tadqiq metodlari haqida

Tayanch tushunchalar

komparativizm, naturalizm, qiyosiy-tarixiy metod, yosh grammatiklar, individual psixologizm, analogiya, semiotik sistema, transformatsiya, sema, integral sema, differensial sema, komponent tahlil, chastota, sinxronik formal-tavsifiy metod,

qiyosiy-chog'ishtirma tafsifiy usul, mantiqiy-grammatik usul, statistik tahlil usuli, qiyosiy-tarixiy metod, eksperimental (instrumental) fonetik tahlil usuli, tipologik umumiyliklar (lingvistik universalialar) tahlil usuli, struktural (sistemaviy) tahlil usullari, transformatsiyalash (aylantirish) usuli

1. **Sinxronik formal-tavsifiy metod.**⁹¹ XX asrning 40- yillaridan deyarli hozirgacha hozirgi o'zbek ta'limiy tilshunosligida (ya'ni "Ona tili" va "Hozirgi o'zbek adabiy tili" o'quv fanlari darslik va qo'llanmalarida) o'z aksini topgan tasvir usuli bo'lib, uning ildizlari XIX asrning oxirlari XX asrning boshlarida shakllangan Moskva (formal) lingvistik maktabiga (buyuk namoyandalari Filipp Fortunatov, Aleksey Shaxmatov, Aleksey Peshkovskiy, Viktor Vinogradov) borib taqaladi. Turkiyshunoslar Nikolay Dmitriyev, Nikolay Baskakov, Yevgeniy Polivanov, Aleksandr Borovkov, Andrey Kononovlar bu metodni o'zbek ilmiga olib kirdilar. Lekin ulardan ham oldinroq bu tavsif usulidan XIX o'rtalarida yozilgan "Oltoy tili grammatikasi" (bosh muallif ko'rsatilmagan bo'lsa-da, u Nikolay Ilminskiy (1822–1891) bo'lgan) mualliflari foydalanishgan.

O'zbek tilshunosligida bu tadqiq usulining yetuk namoyandalari Ayyub G'ulomov, Zokir Ma'rupov, Faxri Kamolov, Sobirjon Ibrohimov, G'anijon Abdurahmonov, Mazluma Asqarova, Mustaqim Mirzaev, Fattoh Abdullaev, Shonazar Shoabdurahmonov, Ergash Fozilov, Azimjon Hojiev⁹², ularning ko'p sonli shogird va izdoshlari.

Bu metodning asosiy tamoyillari:

- tilga ijtimoiy hodisa sifatida yondashish;
- til va nutq hodisalarini bir biridan farqlamay, birgalikda tavsiflash;
- tilning ma'lum bir davrdagi turg'un (statik) holatini tavsiflash;
- falsafiy tushunilgan shakl (moddiy, tashqi, zohiriy belgi, forma), chunonchi, so'z yoki qo'shimchaning shakli, tovushlarning talaffuz

⁹¹1. Bu yerda, asosan, tahlil tamoyillarini sanab o'tadigan metodlar haqida mufassal ma'lumot va bibliografiyani O.S.Axmanova, T.A.Amirova, V.A.Zveginsev, S.Usmonov, N.Baskakovlarning oldingi mavzuda eslatilgan ishlaridan va "Лингвистический энциклопедический словарь" dan olish mumkin.
2. Bu va boshqa o'zbek tilshunosligi oqim va yo'nalishlari masalalarini yoritishda quyidagi manbaga ham tayanildi: Йўлдошева Н. Ўзбек тили грамматик қурилишининг миллий талқини ва унда йиғик гап масаласи: филол.фан.номз.дисс. –Қарши. 2006. –Б. 9–39.

⁹²Turkiy va o'zbek tilshunoslari haqida ilk ma'lumotlarni va bibliografiyani "Ўзбекистон миллий энциклопедияси" jildlaridan, shuningdek, H.Uzodovning "Ўзбек тилшунослари" (–Т.: Ўқитувчи, 1972) hamda Sh.Shukurov va D.Bozorovanning "Ўзбекское советское языкознание" (–Т.: Фан, 1984) asarlaridan olish mumkin.

xususiyatlari – umuman, til birliklarining hissiy a'zolarga ta'sir etadigan tomonlariga tayangan holda ularning turli qurshovlardagi shakli, ma'noviy va vazifaviy xususiyatlarini tavsiflash, kuzatish natijasida qo'lga kiritilgan hodisalarni sistemalashtirish;

Bu metodning metodologik asosi fahmiy (empirik) – nominalistik-materialistik bo'lib, hodisalarni sistemalashtirish ratsional usullarda amalga oshiriladi.

Shu metod bilan hozirgi o'zbek adabiy tilining, o'zbek xalq sheva va lahjalari, XI–XIX asr yozma yodgorliklari, alohida adiblar tili va uslubi xususiyatlari tavsiflandi, alohida sathlar va davrlarning mukammal tavsifini beruvchi ulkan tadqiqotlar, turli murakkablikdagi grammatikalar, darsliklar, qo'llanmalar, lug'atlar, o'quv-tadrisiy adabiyotlar yaratildi, nazariy izlanishlar amalga oshirildi va keng ommalashtirildi. Yaqin kunlarga "Muosir (ma'nodoshlari – yangi / zamonaviy / hozirgi / XX asr / sovet va h.) o'zbek tilshunosligi" deganda, asosan, shu tadqiq usuli bilan amalga oshirilgan ilmiy izlanishlar va ularning mahsuli tushunilar edi. Buning sabablari, jumladan, sovet tilshunosligida hukm surgan va yuqorida qisman muhokama etilgan sovet fetishizmi bilan bog'liq.

Bu metod fanda statistik (matematik) va eksperimental (akustik va rentgenografik) tahlil usullari bilan murakkablashtirilgan ko'rinishlarda ham qo'llaniladi. Uning statistik tahlil ko'rinishi sohasida Bahrom Bafoev (Alisher Navoiy asarlari leksikasi), Xosiyat Nazarova (Bobur asarlari leksikasi), Sunnatilla Rizaev (turli xil matnlarda harflar, so'zlar chastotasi, bo'g'in turlari), I.A.Kissen (so'zlar chastotasi), Ziyodulla Hamidov, Nurmatulla Ahmatov, Rashid Zohidov, Noibaxon Mamadaliyeva (ayrim yozma yodgorliklar leksikasi), eksperimental fonetika sohasida Soraxon Otamirzaeva, Ahmadjon Mahmudov kabi tadqiqotchilar ancha ishlarni amalga oshirishdi.

II. Qiyosiy-chog'ishtirma tafsifiy usul. Tilshunoslik tarixidan ma'lumki, bu fanning rivoji qadimgi hindlarda ham, yunon va rimliklarda ham, arablarda ham qonunlashtirilgan (muqaddaslashtirilgan, ilohiy) asarlarni (yunonlarda Homer asarlari, hindlarda vedalar, islomiy o'lkalarda Qur'oni Karim) to'g'ri-diniy odat talab qiladigan shaklda o'qish-uyush bilan bog'liq. Bu esa me'yoriy imlo va talaffuz bilan, bir tomondan, sheva (jonli so'zlashuv) nutqi farqlarini aniqlash va tavsiflashni, ikkinchi tomondan, o'zga xalqlar bu dinni qabul qilgach, ularning tillarini o'rganib, ularga din rasmiy tilini o'rgatib ta'sirlarini o'tkazish maqsadlarida bu xalqlar tilini o'z (diniy) tillari bilan qiyoslash, lug'at va qo'llanmalar tuzish talab qilinar edi. Qadimgi hindlarda ham, yunon va arablarda ham qadimgi davrlarda (hindlarda eramizdan oldingi V–IV, yunonlarda e.o. IV–I, arablarda eramizning VIII–IX asrlarida) qiyosiy-tavsifiy usul rivojlanganligining sababi ham shunda. Bu usulning asosiy tamoyillari quyidagilardir:

– til ilohiy (g'ayritabiiy) hodisa bo'lib, uning yashash va rivojlanishi jamiyat ehtiyojlari bilan uzviy bog'liqdir;

– me'yoriy talaffuz akustik-artikulyatsion (har bir tovushning hosil bo'lish o'ri, usuli, ovoz va shovqinning, cho'ziq/qisqalikning miqdori, urg'u, ohang xususiyatlari), kombinator (tovushlarning bir-biriga ta'siri), pozitsion o'zgarishlar jihatlaridan mufassal (hozir oliy maktab darslik va qo'llanmalaridagidan ham mufassalroq) tavsiflash va sharhlash, har bir mustasno holatlarni va variantlilikni izohlash;

– so'zlarning turli-tuman qo'shimchalar bilan birikishlarini tavsiflash, so'z va qo'shimchalarni farqlash;

– sheva va o'zaro yaqin bo'lgan tillar orasida tovush almashinuvlari va mos kelishlarini tavsiflash;

– bir tilli (izohli) va tarjima lug'atlari tuzish;

Bu tadqiq va tavsif usulidan foydalanishda arab (islom) tilshunosligi VIII–IV asrlarda juda katta yutuqlarni qo'lga kiritib, Yevropa tilshunosligi lingvistik tahlilga XIX asrning o'rtalarida olib kirgan paradigma tushunchasini ochdi va arab tilining morfologik tavsifida undan juda keng foydalandi, arab tilining murakkab morfologik tizimi 5–6 ta fe'ning formalari siralari sifatida tavsiflandi. Arab tili morfologiyasini sodda va ixcham jadvallar sirasi sifatida berish an'anasi o'sha davrlarda shakllandi va hozirgacha arab tilshunosligida amalda. XX asrda shunday paradigmalarda asosida struktural tilshunoslikning eng asosiy tushunchalaridan biri – paradigma va paradigmatic munosabatlar rivojlantirildi. Arab tilshunosligida asosan shaklga ko'p e'tibor berilgan bo'lsa, struktural tadqiqotlarda asosiy diqqat, mazmun va vazifaga qaratildi.

Bu tadqiq usulining metodologik asosi fahmiy-nominalistik-materialistik bo'lib, paradigmalarni ajratish va tavsiflashda idrokiy bilimlardan keng foydalaniladi. Tilning kelib chiqishi masalalarida bu usul diniy-ruhoniylar nuqtayi nazarda turadi.

Arab tilshunosligi yutuqlari va an'alarida ta'lim olgan Mahmud Koshg'ariy, Mahmud Zamahshariy, Abu Hayyon, Ibn Muhanna kabi turkiyshunoslar ham asarlarida shu tahlil usulidan foydalanishgan, shu asosda turkiy tillar tavsiflari berilgan.⁹³

Quyida "Til va adabiyot ta'limi" jurnalidan ushbu metod asosida yozilgan maqoladan parcha beriladi.

"Qadimgi turkiy tilda *qishloq* oti *qish* otiga *-la* qo'shimchasi qo'shilib, *qishla* fe'li va unga *-g'a* qo'shimchasini qo'shib yasalgan. Keyinchalik o'zbek tilida bu so'z oxiridagi *g'* undoshi *q* undoshiga, *a* unlisi *o* unlisiga almashgan, *Ы* unlisining qattqlik belgisi yo'qolgan: (*qyish+la = qyishla-*) + *g' = qyishlag' > qyishlaq > qyishloq*. B.To'ychiyoyev fikricha, qishloq so'zi qishlov asosida paydo bo'lgan. Eski o'zbek tili yodgorliklari bu so'zni boshqacha izohlash mumkinligini ko'rsatadi. Qishloq so'zi ikki qismdan iborat: *qishloq+loq*. *Log'* = *-loq* so'zi qadimda joy ma'nosini anglatgan.

⁹³Ilmiy adabiyotlarda bu tilshunoslarning tadqiq usulini qiyosiy-tarixiy deb baholash keng tarqalganligini ko'ramiz. Lekin buday baholash noto'g'ri, zero keyingi usul oddiygina qiyoslashni emas, yana qator boshqa masalalarni ham o'rtaga qo'yadi.

Keyinchalik bu soʻz taraqqiyotida kichraytirish formasi *loq* (boʻtaloq) bilan omonimik holatga tushib qolgach, u affiks qatoriga oʻtishga majbur boʻlgan. Uning affiks qatoriga oʻtishi forscha *joy* soʻzining oʻzbek tiliga kirib kelishi bilan bogʻliq boʻlishi ham mumkin. *Loqning* XVII–XVIII asrlarda makon affiksi ekanligi Fatx Alixonning “Kitobi lugʻati atrokiya” asarida koʻrsatib oʻtilgan. Demak, *qishloq* soʻzi qadimda “qishlaydigan joy” maʼnosini anglatgan.”⁹⁴

III. Mantiqiy-grammatik usul. Tilni mantiq bilan bogʻlash, uning hodisalarini mantiq tushuncha va kategoriyalari asosida sharhlash falsafa, mantiq va tilshunoslik kabi qadimiy. F.Hegel ham tilshunoslik va mantiq fanlari mohiyatining oʻzaro yaqinligini koʻp marta taʼkidlaydi va bu fanlarni kamida ikki bosqichda oʻrganish zarurligini uqtiradi; avval bu fanlarga xos tahlil usullari va tushunchalarining oʻzini oʻzlashtirish zarur, undan keyin bu tushuncha va qonuniyatlar ostida nimalar yotganligi tahliliga oʻtilsa, bunday tadqiqotchi koʻz oldida tamoman yangi olam ochiladi.⁹⁵

Hozirgi zamon grammatik terminlarining kattagina qismi, ayniqsa Gʻarbiy Yevropa tillarida, mohiyatan mantiqiy terminlardir (Qiyos.: *subyekt, predikat, attribut, obyekt, kauzativ, aktiv, passiv, koordinatsiya, konyugatsiya* va h.) Mantiqiy va grammatik hodisalarni qorishtirish natijasida fanda qoʻpol mantiqiy xatolarga yoʻl qoʻyish hodisalari hozir ham uchrab turadi.⁹⁶ Mantiq va grammatikani qorishtirish fanning azaliy kamchiliklaridan biri ekanligini eʼtirof etish lozim. Lekin fanda mantiq va tilni oʻzaro uzviy bogʻlanishda oʻrganishni maqsad qilib qoʻygan tadqiq usuli kam boʻlgan va bu yoʻnalish **umumiy (universal)** yoki **mantiqiy (idrokiy) grammatika** atamasi bilan mashhur. Bu yoʻnalishni shakllantirgan va rasmiy ravishda ommalashtirgan asar sifatida Por-Royal monastiri obidlari Klod Lanselo va Arnolar tomonidan 1660- yilda tuzilgan “Грамммаире генерале ет раисоннее” (“Umumiy va idrokiy grammatika”) mashhur.

XVII–XVIII asrlarda keng ommalashgan koʻp tilli (yoki ayrim tushunchalarining juda koʻp tillarda muqobillarini beruvchi) lugʻatlar tuzish va ommalashtirish ham⁹⁷ shu usul hukmronligi bilan bogʻliq.

Bu tadqiq usulining asosiy tamoyillari:

- tilni tafakkurning shakli deb tushunish;
- soʻz va tushunchani tenglashtirish;

⁹⁴Умаров Э. *Қишлоқ сўзининг тарихи // Тил ва адабиёт таълими*, 2002. – № 6. –Б. 89–90.

⁹⁵Гегель Георг Вильгельм Фридрих. *Наука логики*. Том 1. –М.: Мысль, 1970. –С. 111–112.

⁹⁶1961- yildan beri oliygohlarda sintaksidan asosiy oʻquv qoʻllanmasi sifatida oʻqitib kelinayotgan A.Gʻulomov va M.Asqarovalarning darsliklarida *Mevalar terildi* kabi gaplar shaxsi nomaʼlum gap sifatida beriladi. Vaholanki, shaxsi nomaʼlum gap gapning sostaviga koʻra turlari tasnifida bir sostavli gapning bir koʻrinishi deb baholanadi. Keltirilgan misol (*Mevalar terildi gapi*) esa ikki sostavli gapdir, lekin bu gap m a n t i q a n haqiqatan ham shaxsi nomaʼlum gapdir, grammatik nuqtayi nazardan esa ikki sostavli gapdir.

⁹⁷Jumladan, Iohann Adelung tomonidan 1806–817- yillarda Berlinda 4 jild etti kitob shaklida eʼlon qilingan “Отче наш”ning 500 tilga tarjimasini oʻz ichiga olgan “Митридат ёки умумий грамматика”; P.Палласning “Сравнительные словари всех языков и наречий” (Санкт-Петербург, 1717) asarlari.

- hukm va gapni, gap bo'laklari va mantiqiy butunliklar tarkibiy qismlarini tenglashtirish;
- har bir tilning milliy xususiyatlarini bir ma'noda inkor etib, tillar orasidagi umumiyliklar tahliliga ko'proq e'tibor berish;
- tillarning sinxronik holati tavsifiga tayanish;
- grammatik shakl va kategoriyalarni mantiqiy kategoriyalar bilan tenglashtirish (chunonchi, mantiqiy va grammatik birlik va ko'plik, yoki shaxs va h.);
- sintaksis masalalariga ko'proq e'tibor berish.

Mantiqiy grammatikaning juda ko'p tamoyillari XX asrda "Tillararo umumiyliklar (lisoniy universalialar)", "Tushuncha/idrokiy kategoriyalar" nazariyalarining tarkibiy qismi va muhim tushunchalari sifatida yangi mazmun va mohiyat kasb etdi.

Mantiqiy grammatika tamoyillari asosida yaratilgan tadqiqotlardan parcha:

"Orttirma daraja formasi yasalishi bilan esa harakat bajaruvchisi (grammatik subyekt) emas, balki harakat obyekti ortadi, agar bunday obyekt yo'q bo'lsa, u yuzaga keladi: *kiydi – kiygizdi, keldi – keltirdi*.

Ayrim obyektli fe'llarga orttirma daraja yasovchi afiks qo'shilganda, harakatning obyekt va subyektga bo'lgan munosabatida o'zgarish bo'lmaydi.

O'zlik daraja formasi obyektli fe'lni obyektisiz fe'lga aylantirishini ko'rgan edik. O'zlik darajadan orttirma daraja yasalganda yana obyektli fe'l yuzaga keladi: *yuv – yuvin – yuvintir.*"⁹⁸

"Hukm subyekt va predikatning birikishidan tashkil topadi. Gap esa, odatda, ega va kesim munosabatidan hosil bo'ladi. Ikkinchi darajali bo'laklar ega va kesimni qaysidir jihatdan aniqlaydi.

Har qanday gap asosida voqelik yotadi. Gap o'z mundarijasini ana shu voqelikdan olib, uning xususiyatlarini o'zida predikativlik orqali aks ettiradi. Predikativ qo'shilma gapning materiali bo'lib xizmat qiladi. Predikativlik uch xil grammatik kategoriyani o'z ichiga oladi (shaxs-son, zamon, modallik)..."⁹⁹

"Gapda hukm qaratilgan, fikr o'zi haqida borayotgan, belgisi kesim tomonidan aniqlanadigan bosh kelishik shaklidagi mutlaq hokim bo'lak ega deyiladi. Ega ikki sostavli gapning hokim holatidagi bo'lagi. Ega o'ziga tobe bo'laklar bilan ega sostavini tashkil qiladi...

Kesimi fe'l ifodalangan gaplarda ega ko'pincha bajaruvchi shaxsni – mantiqiy subyektini ko'rsatadi. Ammo buning aksi ham uchraydi. Bu hodisa eganing aniq obrot (aktiv konstruksiya) va majhul obrot (passiv konstruksiya)da qo'llanishi bilan izohlanadi. Aniq obrotga gapning kesimi ko'pincha fe'lning aniqlik (ba'zan shart-istak) mayli formasida

⁹⁸ Ўзбек тили грамматикаси. Т. I. –Т.: Фан, 1975. –Б. 450–451.

⁹⁹ Абдурахмонов Ф., Сулаймонов А, Холиёров Х., Омонтурдиев Ж. Ҳозирги ўзбек адабий тили. Синтаксис. Олий ўқув юрларининг филология факультетлари сиртки бўлим студентлари учун қўлланма. –Т.: Ўқитувчи, 1979. –Б. 24.

bo'ladi. Ega harakatning bajaruvchisini ko'rsatadi: Karima xat yozdi. Majhul oborotda ega logik subyektni emas, logik obyektни ko'rsatadi: *Xat Karima tomonidan yozildi*. Bunda harakatning bajaruvchisi – logik subyekt – to'ldiruvchi, logik obyekt esa grammatik ega vazifasida keladi.”

100

IV. Qiyosiy-tarixiy metod. Tillar oilalari va katta guruhları orasidagi qarindoshlik, o'xshashlik, farqlarning kelib chiqish sabablarini o'rganishga ixtisoslashgan tadqiq usullari majmuasi bo'lib, tillarning qiyosiy-chog'ishtirma usul asosida qo'lga kiritilgan tavsiflardan yangi maqsad va vazifalarda foydalanishni ko'zlaydi. Tilshunoslikda F.Hegel obyektiv idealizmi, biologiya (naturalizm) taraqqiyoti va Charlz Darvin ta'limoti, Yevropada bozor iqtisodiyoti rivoji bilan uzviy bog'liq bo'lgan individual psixologizm ta'sirida XIX asrning boshlarida shakllangan. Buyuk namoyandalari Frans Bopp, Rasmus Rask, Yakob Grimm. R.Raskning ilk tadqiqotidan (1814- yil) XX asrning boshlarigacha bu metoddan asosiy tahlil usuli sifatida foydalangan tilshunoslik kamida uch taraqqiyot bosqichini bosib o'tdi va o'ziga xos yo'nalishlarni hosil qildi. Bular:

- 1) ilk komparativistik (F.Bopp, Y.Grimm, Xristofor Vostokov va b.);
- 2) naturalistik (Avgust Shleyxer, Moris Rapp, Maks Myuller va b.);
- 3) yosh grammatik – individual psixologik (Hermann Osthof, Karl Brugmann, Hermann Paul, Aleksandr Potebnya va b.).

Bu yo'nalishlarning har biri o'z oldiga alohida maqsadlarni qo'yishi, xususiy tadqiq usullariga hamda tayanch falsafiy-metodologik asoslarga ega bo'lishiga qaramay,¹⁰¹ ko'p jihatlardan – metod nuqtayi nazaridan o'xshash va fanda, odatda, qiyosiy-tarixiy tilshunoslikning ichki yo'nalishlari sifatida baholanadi.

Bu metodning asosiy tamoyillari:

- tilni tabiiy-ruhiy hodisa deb tushunish;
- tillar orasida oilaviy munosabatlarga o'xshash qarindoshlik aloqalari mavjud bo'lib, tillararo o'xshashlik shu qarindoshlik natijasidir;
- o'zaro qarindosh tillar, asosan, bir umumiy tilning (bobo tilning, ona tilining /прямаязыкнинг/) bo'linishi asosida shakllangan. Shuning uchun tillar Ona til (bobo til) va farzand tillar (bola tillar)ga bo'linadi; bola tillar mustaqil taraqqiyot natijasida va boshqa tillar ta'siriga uchrab, bobo tildan va boshqa bobo tillardan uzoqlashadi, mustaqillik kasb etadi;
- o'zaro qarindosh tillar orasida tovush mos kelishi qat'iy qonunlari mavjud bolib, bu qonundan har biri, albatta, sharhlanishi lozim;
- tillarning o'zaro qarindoshligi mana shu tovush mos kelish qonunlari va tillararo umumiy qadimiy o'zaklar asosida belgilanadi;

¹⁰⁰Абдурахмонов Ф., Сулаймонов А, Холиёров Х., Омонтурдиев Ж. Ҳозирги ўзбек адабий тили. Синтаксис. Олий ўқув юр்தларининг филология факультетлари сир்தки бўлим студентлари учун қўлланма. –Т.: Ўқитувчи, 1979. –Б. 45–46.

¹⁰¹Shu asosda ular juda hollarda tilshunoslikning alohida maktablari, yo'nalishlari sifatida berildi. Qar.: Лингвистический энциклопедический словарь. 233-, 405-, 414–485- va h. betlar.

– qarindosh tillar morfologik tipologiya jihatdan o'xshash bo'ladi va tillarning flektiv, agglyutinatív, amorf, polisintetik kabi morfologik tiplari ajratiladi;

– til biologik organizm sifatida tushuniladi va biologik organizm qonuniyatlari asosida yashaydi va rivojlanadi deb yondashiladi;

– o'lik va jonli tillar farqlanib, tilshunoslar diqqati, asosan, o'lik tillar tadqiqiga qaratiladi; fanning oliy maqsadi bobo til tizimini tiklash sanaladi; shuning uchun bu tilshunoslik maxsus rekonstruksiya (hech bir yodgorlikda qayd etilmagan shakl, so'z va qurilmalarni tiklash) qonuniyatlarini ishlab chiqqan va shu asosda bobo til shakllari va so'zlarini tiklagan. Shu bilan bog'liq ravishda bu tilshunoslik so'z va qo'shimchalarning kelib chiqishi (etimologiyasi) tadqiqiga juda ko'p e'tibor bergan;

– tadqiq jarayonida tillarning faktik materiallari hamisha qiyoslab o'rganiladi;

– bu usul bilan uzviy bog'liqlikda tilning har bir fonetik, morfologik, leksik birligi tarixi va o'zgarishlari alohida-alohida o'rganiladi.

Qiyosiy-tarixiy tilshunoslikning metodologik asosi, asosan, idrokiy–dialektik-ruhoniý.

Odatda **yosh grammatiklar** (Leypsig tilshunoslik maktabi namoyandalari – turkiyshunoslikda Vasily Radlov maktabi)ning ta'limoti ham qiyosiy-tarixiy metodga tayanganligi sababli shu tilshunoslik doirasida ko'riladi. Lekin yosh grammatiklarda bu metod tamoyillari ilk komparativistlar va naturalistlardan tamoman farq qiladi. Jumladan, yosh grammatiklar tilga individual-psixik (shaxsiy-ruhiy) hodisa deb qaraydilar va uning rivojlanishida analogiya (o'xshashlik, ergashish) va tejam, qulaylik hal qiluvchi omil deb sanaydilar. Ular jonli so'zlashuv tiliga ko'proq e'tibor berish, tahlil jarayonida xayoliy rekonstruksiyalarga emas, jonli til hodisalariga tayanish lozimligi, tillararo o'xshashlik faqat qarindoshlik asosidagina emas, o'zaro ta'sir zaminida ham yuzaga kela olishi, tillarning nafaqat bo'linish, balki qo'shilish natijasida ham vujudga kelishi kabi g'oyalarni ilgari surishgan.

O'zbek tilshunosligida XX asrda ommalashgan sinxronik formal tavsif usuli yosh grammatiklar tavsif usulining qiyosiy-tarixiylikdan sinxronik tavsifiy zaminga o'tkazish natijasida shakllangan. Quyida qiyosiy-tarixiy usulda bajarilgan tadqiqotdan namuna keltiriladi:

“Eng qadimgi til hisoblanmish oltoy tilining fonetik, leksik va grammatik belgilari hozirgi turkiy, mo'g'ul va tungus manchjur tillarida saqlanib qolgan.

Oltoy davri fanda na tarixiy, na lisoniy yodgorliklar bilan asoslangan. Mavjud, ma'lumotlar ham o'sha davrning til qonuniyatlari haqida aniq ma'lumot bermaydi. Oltoy tili xususiyatlari borasidagi barcha hukmlar taxminiy bo'lib, ular qadimgi o'lik tillarni hamda hozir iste'molda bo'lgan tillarni tarixiy-qiyosiy metod asosida chog'ishtirish bilan keltirib chiqarilgan. Bunday hukm va

xulosalar, bir tomondan, tungus-manchjur tillarini, ikkinchi tomondan, turk-mo'g'ul tillarining keyingi davrda yuzaga kelgan differensiyasi asosida paydo bo'lgan. Bu tillar differensial belgilarining eng qadimgi va xarakterlisi undoshlarning muvofiq kelishidir (hozirgi tillar misolida). Tungus tilidagi *t* manchjur tilidagi *s* turk va mo'g'ul tillarida *i* dan oldin qo'llanadigan *ch~sh* ga mos keladi. Ba'zi turkiy tillarda oltoy tilining qadimgi belgilari saqlanib qolgan. Masalan, yoqut, xakas (sag'ay va baltir shevalarida) va boshqird, tungus tillaridagi *t* manchjur tilidagi *s* undoshiga muvofiq keladi. Ya'ni tungus tilida *gutin* va manchjur tilida *gusin* so'zlari mo'g'ul tilidagi *guchin* so'ziga to'g'ri keladi; manchjur tilidagi *xusun* mo'g'ul tilida *kuchin*, hozirgi oltoy tilida *kuch* "kuch" (sila) so'ziga shaklan o'xshash, (qiyoslang xakas tilida *kys* yoqut tilida *kyys*, boshqird tilida *kos* (*kys*) "kuch". Bu ma'lumotlar yoqut, xakas va boshqird tillari bilan to'ngus-manchjur tillari orasida qadimdan genetik aloqa mavjudligidan dalolat beradi.

Shu bilan birga, Oltoy davri turkiy tillar taraqqiyotida, bir tomondan, turk, mo'g'ul, tungus-manchjur tillariga bo'lingan umumiy til bo'lganligi bilan, ikkinchi tomondan, bir umumiy tilning ikkiga: 1) turk mo'g'ul va 2) tungus-manchjur tillariga bo'linishi bilan xarakterlanadi. Bu tillar ajralish jarayonida o'ziga xos fonetik, leksik va grammatik belgilarga ega bo'lishdi."¹⁰²

V. Statistik tahlil usuli. Bu usul asosan har xil katta-kichiklikdagi matnlarda ayrim-ayrim lisoniy hodisalarning (tovush, harf, bo'g'in, so'z, olinma va o'zlashmalar, yangi va eskirayotgan so'z va qo'shimchalar, har xil qurilmalar va h.) qo'llanilish miqdorini aniqlash uchun qo'llaniladi. Bu usul tadqiqotchini qiziqtirgan hodisa, uning xillarining ma'lum bir turdagi matnda ishlatilish miqdorini sanash va mutanosiblik (proporsiya) asosida qo'llanilish chastotasini aniqlashga xizmat qiladi. Uning natijalari til ta'limida lisoniy birliklarning berish tartibini va bosqichlarini belgilashda, lug'at, qo'llanma va mashina tarjimai dasturlarini tuzishda juda ham foydali.

Bu usul fahmiy-nominalistik-materialistik metodologiyaga tayanadi.

O'zbek tilshunosligida statistik tahlil usullari bilan jiddiy shug'ullangan olimlar I.A.Kissen (adabiy nutqda faol so'zlar chastotasi), B.Bafoev (Alisher Navoiy asarlari leksikasi) va S.Rizaevlardir (harflar, tovushlar, so'zlar chastotasi). O'zbek tili tarixiy yodgorliklarining, ayrim adiblar asarlarining lisoniy xususiyatlari tavsifiga bag'ishlangan ko'pgina ishlarda statistik usuldan keng foydalaniladi.

VI. Eksperimental (instrumental) fonetik tahlil usuli. XIX asrning oxiri XX asr boshlarida shakllangan va fizikaning akustika, rentgenologiya bo'limlari inkishofi tovushning baland-pastligi, cho'ziq-

¹⁰²Жумаев Т. Туркий тилларнинг қиёсий-тарихий таҳлили. Ўқув қўлланмаси. –Қарши, 2005. – Б. 46.

qisqaligini o'Ichaydigan osillograf, og'iz bo'shlig'idagi nutq organlari harakatining aksini beradigan palatograf va rentgenograflarning ixtirosi bilan uzviy bog'liq. Bu asboblarning yordamida nutq tovushlari, urg'u va ohangning turli o'rinlarda tallaffuz xususiyatlari haqida aniq ma'lumotlar fizikaviy birliklarda olinadi. Bunday tadqiqotlar mohiyatan fizikaning tegishli bo'lim va uslublari asosida ish tutadi.

Bu usul fahmiy-nominalistik-materialistik metodologiyaga tayanadi.

Tilshunoslikda instrumental fonetika bilan, asosan, Ahmadjon Mahmudov va Soraxon Otamirzaevlar shug'ullanishgan.

VII. Struktural (sistemaviy) tahlil usullari mohiyatan xilma-xil bo'lib, kamida uning to'rt ko'rinishi tilshunoslikning mustaqil yo'nalishlari sifatida e'tirof etiladi. Bular:

- 1) deskriptiv tahlil usuli va tilshunosligi;
- 2) glossematik tahlil usuli va tilshunosligi;
- 3) funksional tahlil usuli va tilshunosligi;
- 4) generativ tahlil usuli va tilshunosligi.

Bir-biridan tubdan farq qiluvchi, turli maqsadlarni ko'zlovchi bu tahlil usullarining birlashtiruvchi tamoyillari quyidagilardir:

- tilga ijtimoiy-ruhiy hodisa sifatida yondashish;
- til, lison va nutqni izchil farqlash;
- lisonni semiotik, ya'ni shartli belgilar (ishoralar, ramzlar) sistemasi sifatida tushunish;
- lisoniy birliklar mohiyatini birliklarning o'zidan emas, balki ularning paradigmatic, sintagmatic va ierarxik munosabatlari orqali aniqlash, shu bilan uzviy bog'liqlikda lisoniy tizimda oppozitivlik va paradigmalar tahlil va tavsifiga asosiy e'tibor qaratish;
- lisoniy birlik va hodisalarning material-moddiy tomoniga kam e'tibor berib, asosiy diqqatni semantik-funksional tomoniga qaratish.

Shular bilan bu yo'nalishlar orasidagi asosiy umumiyliklar tugaydi. Lekin shuni alohida ta'kidlash joizki, yuqorida sanab o'tilgan umumiyliklar ham har bir yo'nalishda har xil tushuniladi. Chunonchi, lison va nutq deskriptiv lingvistikada (Amerika strukturalizmida) ham, glossematikada (Kopengagen/Daniya tilshunosligida) ham farqlanadi. Biroq bu ikki yo'nalishda ular butunlay boshqa-boshqa tushuniladi va ularni ko'p holatlarda hatto qiyoslash, solishtirish mumkin emas. Shu bois tilga semiotik sistema sifatida yondashib, insoniy nutqiy faoliyatda UMIS sifatida tushuniladigan lison va AHVO sifatida qaraladigan nutq hodisalarini izchil farqlovchi struktural tilshunoslik (lingvistik strukturalizm) o'z ichida o'nlab tahlil va tadqiq usullariga va yo'nalishlarga ega bo'lib, bu haqda talay tadqiqotlar va tavsivlar yaratilgan, ulardan bir qismi bu qo'llanmada ham eslatilgan.

Struktural tahlil usulida (va uning bilan aloqador bo'lgan tipologik, komponent, kontekstual va b. lison va nutq hodisalarini farqlash bilan bog'liq tahlil usullarining barchasida) idrokdiy-dialektik-idealistik

metodologiya yetakchilik qiladi va nominalistik-materialistik unsurlaridan ham xoli emas.

Bu tahlil usuli bilan Sergey Ivanov, Shavkat Rahmatullaev, Iristoy Qo'chqorto'ev, Abduhamid Nurmonov, Nizomiddin Mahmudov, Odiljon Bozorov, Ra'no Sayfullaeva, Baxtiyor Mengliev, Muhabbat Qurbonova kabi olimlar, ularning ko'p sonli shogird va izdoshlari shug'ullanishgan. Quyida struktural (sistemaviy) tahlil usuli asosida bajarilgan tadqiqotdan parcha keltiriladi.

“Grammatik kategoriya. *Kategoriya* atamasi tilshunoslikka falsafadan kirib kelgan termin. U falsafada “obuyektiv borliq va bilishdagi mohiyatan ko'proq qonuniy aloqa va munosabatlarni aks ettiruvchi umumiy tushuncha” tarzida ta'riflanadi. Falsafada ham, tilshunoslikda ham kategoriya bir xil narsani ataydi, ya'ni kategoriya uchun juftlik va yakkalik xos bo'lishi shart. Falsafada juftlikni sabab-natija, mohiyat-hodisa, butun qism, yakkalikni borliq, miqdor, makon tashkil etsa, tilshunoslikda *kategoriya* atamasi ostida zidlangan ikkilik (son kategoriyasi) yoki ko'plik (kelishik kategoriyasi) tushuniladi.

Bugungi tilshunoslikda *grammatik kategoriya* atamasi ostida, asosan, morfologik kategoriyalarni tan olish ustuvorlik qiladi. Umuman, sintaktik kategoriyalar ham grammatik kategoriya sifatida qaralsa-da, xususiylashmada, ya'ni sintaktik tekshirishlarda *kategoriya* tushunchasi e'tiborga molik ahamiyat kasb etmaydi. Bunga qo'shilib bo'lmaydi.

Butun uchun qismlar va ular orasidagi munosabat, sistema uchun element va ularni birlashtiruvchi aloqalar shart va zarur bo'lganligi kabi grammatik kategoriya (qisq.GK) uchun ham (ayni paytda morfologik hodisalar haqida so'z yuritilayotganligi tufayli *grammatik kategoriya* atamasi ostida morfologik kategoriyalar nazarda tutiladi) aloqa va aloqada turuvchi birliklar zarur. Muayyan substansial ma'no umumiyliigi ostida birlashgan va o'zaro substansial ma'noning parchalanishi, xususiylashuvi asosida zidlanadigan shakllar sistemasi GK hisoblanadi. GK grammatik shakllarning oddiy arifmetik yig'indisi emas, balki ma'lum bir turdagi shakllarning substansial ma'no asosidagi barqaror munosabatlari tizmasidan iborat bo'lgan yangi bir butunlik. Bunda umumiylik va farqlar substansial ma'no asosida bo'lishi lozim. Buni yorqin idrok etish uchun kelishik kategoriyasi va ravishdoshlarni *grammatik kategoriya* tushunchasiga munosabat nuqtayi nazaridan kuzatish yetarli.

Ma'lumki, kelishiklarning substansial mohiyati “oldingi mustaqil so'zni keyingi mustaqil so'zga tobelab bog'lash”. Bu substansial mohiyat faqat ana shu morfologik ko'rsatkichlar tizimiga xos. Har bir kelishik ushbu substansial ma'noni o'ziga xos tarzda xususiylashtirib, bu xususiylashmasi bilan bir-biriga zidlanadi. Masalan, qaratqich kelishigi “oldingi ismni keyingi ismga”, tushum kelishigi “oldingi ismni keyingi fe'lga” xususiylashmasiga ega. Bu xususiylashmalar substansial ma'noning parchalanishlari bo'lish bilan birga mazkur kelishiklarning

farqlovchi belgilari ham. Demak, har bir kelishikka xos “parcha” kelishik substansial mohiyatining xususiylashmasi, zidlanish esa ana shu parchalar asosida. Ravishdosh shakllari esa “fe’lni fe’lga bog’lash” ma’nosiga ega. Biroq ravishdosh shakllariaro farqlar o’zga kategoriyalar ma’nolarining ushbu shakllardagi tajallilari evaziga. Masalan, *-gani* ravishdosh shaklidagi “maqsad” ma’nosi mayl kategoriyasining ushbu shakldagi tajallisidir, yoki *-gach* shaklidagi “payt” ma’nosi zamon kategoriyasi ma’nosining mazkur ko’rsatkichdagi tajallisi. Agar shakllari “fe’lni fe’lga bog’lash” ma’nosining parchalanishi asosida zidlansa edi, ravishdoshni alohida kategoriya sifatida baholash lozim bo’lur edi.

Shuni alohida ta’kidlash lozimki, grammatik kategoriya va unga mansub grammatik shakl o’zaro pog’onali, butun-bo’lak munosabatlarida bo’ladi. Bu esa biror grammatik shaklning qaysidir grammatik kategoriyaga mansub bo’lmasligi mumkin emasligini ko’rsatadi. To’g’ri, ayrim kategoriyalarda moddiy ifodali grammatik shakl bitta bo’ladi. Moddiy ko’rsatkichi bitta bo’lgan kategoriyalarda muayyan morfologik formani yasovchi asosning o’zi nol ko’rsatkichli bo’lib, ikkinchi morfologik shaklni tashkil qiladi. Masalan, otning son kategoriyasida shunday holni ko’rish mumkin. Bunda birlik son nol shaklli grammatik ko’rsatkich bo’lib, u ushbu shakliy va shunga muvofiq ma’noviy mohiyati bilan *-lar* shakliga ziddiyatda turadi. Sifatlardagi oddiy va qiyosiy daraja shakllari ham fikrimiz dalili.

Darsliklar va akademgrammatikalarda *-niki*, *-dagi*, *-dek*, *-gacha* birliklarini goh nokategorial shakl yasovchi, goh so’z yasovchi sifatida qarash hollari uchrab turadi. Agar ular grammatik shakl bo’lsa, ularning ziddi ham nol shaklli birliklar bo’lib, birgalikda grammatik kategoriyalarni tashkil etadi. Bu tilshunoslikda nol shakl bilan bog’liq o’rganilishi lozim bo’lgan muammo.

Demak, nokategorial grammatik shakl bo’lishi mumkin emas. Shuning uchun grammatik shakllarni kategorial va nokategorial kabi turlarga ajratish va zid qo’yish ilmiy asosli emas. Shunday qilib grammatik kategoriyaga quyidagicha ta’rif berish mumkin. Bir umumiy grammatik ma’no tagida birlashuvchi, shu asosda bir-birini taqozo va bu umumiy ma’noning parchalanishi asosida inkor qiluvchi shakllar tizimi grammatik kategoriya deyiladi.”¹⁰³ Ko’rinadiki, bunda sistem tilshunoslikning asosiy tushunchalari bo’lgan *zot* va *tajalli*, *lison* va *nutq*, *umumiylik* va *xususiylilik*, *butun-bo’lak*, *sistema* va *element*, *munosabat* kabi tayanch tushunchalaridan foydalanilgan holda lisoniy hodisalarga ilmiy munosabat bildirilgan.

VIII. Substansial tahlil metodi. Hozirgi o’zbek substansial tilshunosligi¹⁰⁴ (O’S’T)ning rivojlanishi Buxoroda bir necha yil ishlagan leningradlik turkolog profeccor Cergey Ivanov (1922–1999) nomi bilan

¹⁰³Менглиев Б.,Абузалова М. Ҳозирги ўзбек адабий тили. Ўқув қўлланмаси. –Қарши: Насаф, 2005. –Б.47.

¹⁰⁴O’zbek fanida bu yo’nalish formal-funksional, zotiy, dialektik tilshunoslik deb ham nomlanadi.

bog'liq. O'zbek fanida bu yo'nalishdagi ilk tadqiqot C.Ivanovning 1959- yilda Leningrad universiteti nashriyoti e'lon qilgan 158 betli "Очерки по синтаксису узбекского языка (форма на *-ган* и ее производные)" asari. Keyingi yillarda olim bu ishida boshlagan tadqiqotlarini o'zining bir qator maqolalarida chuqurlashtirdi va doktorlik diccertatsiyasida umumlashtirdi¹⁰⁵. O'STning keyingi taraqqiyoti va hozirgi kunda O'zbekistonda ommalashishi C.Ivanovning shogirdi 1961–77- yillarda Leningrad tilshunosligi ta'limini ko'rgan buxorolik olim Hamid Ne'matov va u yaratgan lingvistik maktab bilan bog'liq¹⁰⁶. O'zbekiston mustaqilligigacha (1991) O'ST fandagi bir oqim bo'lib qoldi va uning keng ommalashishiga imkoniyat yo'q edi, chunki SSSRda ta'lim tizimining yagonaligi butun Ittifoq bo'yicha ilmiy talqinlarning bir xilligini talab qilardi; grammatik talqinlar rus va milliy tillardagi ta'limgohlarda bir xil edi. O'STning talqinlari esa rasmiy rus tilshunosligidan keskin farq qiladi, shuning uchun u davrda ta'lim tizimiga tatbiq etilishi mumkin emas edi.

1991- yildan keyin o'zbek tilshunosligi, jumladan, o'zbek tilini ona tili sifatida maktab va oliygohlarda o'qitish mustaqil taraqqiyot yo'liga o'tdi; o'zbek tili bo'yicha maktab va oliygoh programmalari O'ST talqinlari asosida tuzildi¹⁰⁷ va bu yo'nalishning ommalashishiga asos bo'ldi.

O'STning o'zagini Praga strukturalizmdagi (funktional lingvistikadagi) **licon-nutq, liconiy birlik-nutqiy birlik** tushunchalarini dialektikaning *umumiylik, mohiyat, imkoniyat, sabab* (UMIC) va *alohidalik, hodisa, voqelik, oqibat* (AHVO) kategoriyalari mazmuniga muvofiq talqin qilish tashkil qiladi. Shu sababli O'STning bosh tamoyili lingvistik tadqiq jarayonida (lisoniy birlik tabiatini ochish va talqin etishda) dialektik tahlil usullaridan ongillik va izchillik bilan foydalanishdan iborat. Dialektika shakl va mazmun aloqadorligini tan olgan holda mazmunga ko'proq e'tibor qaratgani sababli O'STda fonetika-fonologiyada N.Trubetskoy-R.Yakobson-A.Reformatskiy tadqiq tamoyillari asosan saqlanib, tilning mazmun bilan bog'liq sathlari – leksika, morfologiya va sintaksis tadqiqi yetakchilik qiladi.

O'STda tilshunoslikning eng asosiy tushunchalari *til ~ licon ~ meyor ~ nutq* quyidagicha tushuniladi:

Til – sof insoniy qobiliyat va imkoniyat..U tafakkurni shakllantirishga (kodlashtirishga), xotirada qat'iy sistemaga tizib saqlashga, axbotrotni uzatish va qabul qilishga imkoniyat beruvchi eng nuhim (birlamchi) insoniy ijtimoiy-ruhiy bevosita va bilvosita kommunikatsiya vositasi. **Til licon ~ me'yor ~ nutq** ning dialektik butunligidan iborat. Unda bosh ichki ziddiyat atash (nominativ) va ifodalash (ekspressiv) vazifalarning dialektik birligida.

¹⁰⁵Иванов С.Н. Родословное древо тюрк Абул-Гази-Хана. Грамматический очерк. Имя и глагол. –Ташкент: Фан, 1969. –С.200.

¹⁰⁶

¹⁰⁷Умумий ўрта таълим давлат таълим стандартлари ва ўқув дастурлари. Она тили. Ўзбек тили // "Таълим тараққиёти" ахборотномаси. 1999. 1- махсус сон. –Б. 55–105; Ҳозирги ўзбек адабий тили. 5220.100. Ўзбек филологияси йўналиши учун дастур. Тузувчилар Ҳ.Неъматов, Н.Маҳмудов, А.Нурмонов, Р.Сайфуллаева. –Т., 2002.

Lison UMIC tabiatli lisoniy birliklarning serqirra, ko'p qavatli sathlaridan tashkil topgan barqaror, tashqi muhit ta'siriga o'ta sezgir, o'zgarish, rivojlanish va moslashish immanent qobiliyatini o'z ichida mujassamlashtirgan murakkab qurilishli ierarxik sistemasi.

Me'yor lisonning ichki qurilish tizimiga nisbatan tashqi omil bo'lib lisoniy imkoniyatlardan – sinonimik qatorlardan, lisoniy birliklarning dublet, allovariant va variantlari, sohaviy birliklaridan har birining voqelanish o'rinlari va xususiyatlarini belgilaydi.

Nutq lisonning me'yor elagidan o'tgan muayyan moddiy (yozma, og'zaki, tasviriy / imo-ishora, signal v.h. / shakllaridan birida) voqelanishi.

Lisoniy birliklar dialektik tabiatini ochish va ularni tavsiflashda O'ST substansiallik, ichki ziddiyatlik, ko'p qatorlik, oraliq uchinchi asosiy tamoyilariga tayanadi. Bu tamoyillar O'STning metodologik asosini tashkil etganligi sababli ularning har biri alohida ko'rib o'tiladi:

1. **Substansiallik.** Lisoniy birlik nutqda voqelantiruvchi barcha ma'no va vazifalarini o'zida ontologik mujassamlashtirgan, yashirgan deb olinadi. Nutqda hech bir narsa yaratilmaydi, balki lisoniy birlikdagi imkoniyat faqat yuzaga chiqariladi, xolos. Shuning uchun tilshunoslik oldida lisoniy birlik voqelanishidagi nutqiy alohidaliklarni umumiy lisoniy ma'noga birlashtirish va lisoniy imkoniyat sifatida ongda va lisoniy tizimda mavjud bo'lgan bu ma'noni nutqda muayyan ko'rinishlarda voqelantirish yo'llarini o'rganish vazifasi turadi.

2. **Ichki ziddiyatlik.** Lisoniy birlikning umumiy lisoniy ma'nosi ontologik ziddiyatli, qarama-qarshilikli – turli tabiatli tomonlarning birlashidan iborat bo'lgan dialektik butunlik. U hamisha serqirra.

3. **Ko'p qatorlilik.** Lisoniy birlik ontologik ziddiyatli tabiati bilan boshqa lisoniy birliklar bilan bir necha oppozitiv qatorga (munocabatlarga) – har bir qirrasini bilan alohida-alohida siralarga – paradigmalarga kiradi. Shuning uchun uning umumiy lisoniy ma'nosi bir necha oppozitiv siralardagi (paradigmalardagi) differensial belgilarining yig'indisi, mohiyatiga ega bo'ladi.

4. **Oraliq uchinchi.** Lisoniy birliklardagi qarama-qarshi ma'no va vazifalar, paradigmalardagi bir-birini inkor etuvchi birliklar zid tomonlarni o'z ontologik tabiatida birlashtiruvchi hodisa (birlik)da birlashadi va ikki qarama-qarshilik orasida birlashtiruvchi vosita – oraliq uchinchi mavqeida bo'ladi. Tabiatan istagan lisoniy birlik oraliq uchinchi mohiyatiga ega.

O'STda lisoniy tizim yaxlitlikda partonimik (butun-bo'lak) munosabatlarga, lekin lisoniy yaruslar izchil gipero-giponimik (jins-tur) aloqalariga asoslanishi g'oyasi ilgari suriladi. Unda an'anaviy sinonimiya, antonimiya kabi munosabatlar doirasi ancha cheklangan bo'lib, graduonimiya, giponimiyaga keng o'rin berilgan.

Lisoniy birlikning asosiy turlari sifatida fonema, morfema, leksema va qolip (model) ajratilib, modellarning morfologik (lug'aviy shakllar yasash, sintaktik shakllar yasash), derivatsion (sodda va qo'shma so'z yasash),

sintaktik (nominativ birliklar – soʻz birikmalari hosil qilish modellari, kommunikativ birliklar – gap hosil qilish modellari) turlari farqlanadi. Morfologik-derivatsion-sintaktik modellar oʻzaro ierarxik munosabatlarda turgan sanaladi. Bu modellar hosilalarining lisoniy birliklarga oʻtishi va lison xazinasini muttasil toʻldirib borishida ixtososlashish-soddalanish-tublanish bosqichlari ajratiladi.

OʻSTning leksikologiya, morfologiya, sintksis, qiyosiy tipologiya sohalarida amalga oshirgan ishlari M.Qurbonova va H.Neʼmatovlarning maxsus ishlarida tahlil etilgan va umumlashtirilgan.

IX. Tipologik umumiyliklar (lingvistik universalialar) tahlil usuli.

Bir-biri bilan yaqin (qarindosh) yoki uzoq, oʻzaro aloqalarda boʻlgan va boʻlmagan tillarning qurilishi, u yoki bu turdagi maʼno va vazifalarni ifodalashdagi umumiylik (oʻxshashlik) va farqlarni (xususiyliklarni) qiyoslab oʻrganish usuli boʻlib, oʻz ildizlari bilan qiyosiy-chogʻishtirma, mantiqiy grammatika, qiyosiy-tarixiy usul va glossematika tushunchalari bilan aloqador. Eng asosiy tushunchalari tilustilik (metatil, метаязык) va lingvistik umumiyliklar. Lingvistik umumiyliklar boshqa yoʻnalishlarning ong (tafakkur) kategoriyalariga qisman toʻgʻri keladi. Tilustilik (metatil) deganda tabiiy tildan yuqori turgan va nutq ijtimoiy faoliyatida ifodalanishi zarur boʻlgan tushuncha, aloda-munosabat va vazifalar majmuasi tushuniladi. Bu tushuncha, aloda-munosabat va vazifalarnig har biri alohida olinganda lingvistik umumiylik sanaladi.

Tipologik tadqiqotlarda qiyoslanadigan haqqoniy (real) til (obyekt – til)larda shu umumiylikning ifodalanish vosita, usul, shakl, koʻrinishlari va vazifalari qiyoslanib, har bir qiyoslanayotgan tilning qurilish xususiyatlari haqida tegishli xulosalar chiqariladi.

Bu tahlil usuli bilan tilshunoslikda Abduzuhur Abduazizov, Jamoliddin Boʻronov, Neʼmat Turniyozov, Shahriyor Safarov, Sano Saidov, Mohira Saidova, Muhammadjon Fayzullaev kabi, asosan, rus va Gʻarbiy Yevropa tillari boʻyicha mutaxassislar shugʻullanishgan.

X. Komponent tahlil usuli. Mohiyatan, kimyo fanida moddalarni tashkil etuvchi kimyoviy unsurlarga ajratish bilan oʻxshash boʻlib, tilshunoslikda, asosan, deskriptiv va funksional lingvistika ichida shakllangan tahlil usuli. Bu usul maʼnoli lisoniy birliklar (morfema va leksemalar)ning maʼnolarini tarkibiy qismlarga (semalarga) ajratib, bu birliklar maʼlum lisoniy paradigmalarda qaysi tarkibiy qismi (semasi) bilan kirishi va qaysi semasi bilan farqlanishining tahlil va tavsifini beradi. Maʼlum paradigmani tuzuvchi, birlashtiruvchi semalar integral (birlashtiruvchi, umumiy), paradigmalarda har bir birlikni ajratuvchi semalar esa differensial (farqlovchilari) sema deyiladi. Chunonchi,

*ota – ona,
bobo – buvi,
oʻgil – qiz.*

siralari “qon-qarindoshlik” maʼnoli boʻlagi (semasi) asosida birlashib, “erkak/ayol” jinsiga mansublik semasi bilan farqlanadi.

Bir lisoniy birlik turli semalari asosida turli-tuman paradigmalardan o'rin egallashi sababli (chunonchi, *ona – xola, ona – buvi, ona – qiz, ona – opa* va h.) bu lisoniy birlikning turli paradigmalardagi differensial semalari uning umumiy lisoniy ma'nosida birlashtiriladi (komponent sintez) va *kontekstual tahlil usuli* vositasida har bir semaning kuchayish va zaiflashish o'rinlari (relevant va irrelevant pozitsiya va holatlari), minimal, qulay va noqulay kontekstlari (voqealanish sharoitlari) aniqlanadi.

O'zbek tilshunosligida bu tahlil usuli bilan G'anijon Zikrillaev, Baxtiyor Mengliyev, Sharifa Iskandarova, Malika Narzieva, Salohiddin G'iyosov, Halima Hojjeva, Nigora Nishonova, Gulnoz Ne'matova, Feruz Safarov kabilar shug'ullanishgan. Quyida ushbu metod asosida bajarilgan tadqiqotlardan ma'noni komponentlarga ajratish misolida namuna beriladi:

“Hurmat maydoni vositalarining struktur-funksional-semantik xususiyatini bayon qilishda uzvli (komponent) va matniy (kontekstual) tahlildan foydalanish yaxshi natija beradi.

Uzvli tahlilga asosan lisoniy vositaning invarianti (umumiy ma'nosi, paradigmatic xususiyati, semantik mazmuni) variant (xususiy ma'no, semantik belgi, sema)ga bo'lib o'rganiladi. Ishimizda bularning birinchisini mazmun, ikkinchisini ma'no deb ataymiz. Matniy tahlil tilni muayyan vazifa (funksiya) bajaruvchi tizim (sistema)dan iborat hodisa deb qaraydigan, nazariya, ta'limot bilan bog'liq. Bu ta'limotga ko'ra, til vositalarining paradigmatic xususiyati, umumiy ma'nosi ularning muayyan vazifa bajarishi bilan bog'liq bo'lganidan matniy tahlilga ehtiyoj seziladi. Negaki, til vositasi nutq (gap, matn)da muayyan vazifa bajaradi. Shunga ko'ra matniy tahlil funksional usul ham deyiladi. Matnda til vositalarining lisoniy va nutqiy xususiyati, ya'ni tizimdagi boshqa vositalar bilan munosabati yaqqol namoyon bo'ladi.

Mazkur usullar hozirgi o'zbek tilida hurmat ifodalovchi lisoniy va nolisoniy vosita borligini ko'rsatadi. Lisoniy vositalar tilning turli bo'limiga mansub. Bular fe'lining hurmatga daxldor shakli (shaxs, son va hurmat qo'shimchasi), fe'ning o'zak-negizi, otning egalik shakli (shaxs, son va hurmat qo'shimchasi), otning o'zak-negizi, otlashgan so'z (shaxs-son va hurmat qo'shimchasi bilan), olmosh, son (otning o'rnida qo'llanuvchi so'z), sifat, ikki otning o'zaro birikuvi, ot bilan olmoshning birikuvi, ohang.

Hurmatga daxldor vositalarning maydonda tutgan o'rnini aniqlash ularning struktur-funksional-semantik xususiyatini tadqiq qilishdan iborat bo'lib, har qaysi vositani alohida olib qarashni taqozo qiladi. Bunda tahlil maydon yadrosini hosil qiluvchi vositadan boshlanib, markazga kiruvchi vositaga o'tiladi; undan so'ng maydon markaziga kirmaydigan vositalar olib qaraladi. Shu yo'l bilan har qaysi vositaning o'ziga xos (lisoniy) xususiyati, ya'ni uning maydondagi boshqa vositalar bilan o'xshash va farqli jihati aniqlanadi.

Maydon markazidan tashqarida joylashgan vositalar aksar alohida qo'llana olmaydi. Shu sababli nutqiy maqsadu vazifaga qarab hurmat maydoni vositalaridan ikki yoki bir nechta birgalikda ham ishlatiladi. Bunda mazkur vositalar o'zaro mazmuniy aloqa-munosabatga kirishib, biri ikkinchisining ma'nosini oydinlashtiradi, kuchaytiradi, ta'kidlaydi, ajratib ko'rsatadi, kuchsizlantiradi, zaiflashtiradi yoki o'zgartiradi. Oxirgi holda vosita o'ziga xos bo'lmagan ma'no ifodalash uchun xizmat qiladi. Bu hodisa lug'aviy vosita, ko'chish (transpozitsiya) va assimilyasiya ta'sirida ro'y beradi. Natijada hurmat mikromaydoni vositalari o'zaro boshqa mikro- va makromaydon vositasi bilan mazmunan yaqinlashib, matniy ma'nodoshlik hosil qiladi. Bunda ta'sirga uchraydigan vositaning lisoniy xususiyati qisman yoki to'liq o'zgaradi. Matndan tashqarida bunda vositalar orasida ma'nodoshlik mavjud bo'lmaydi..."¹⁰⁸

"O'zbek tilining izohli lug'atida [bola] leksemasining 5 ma'nosi farqlanadi:

1. Yangi tug'ilgan, hali ko'krakdan, ona bag'ridan ajratilmagan go'dak. *Bola yig'lamasa, onasi sut bermaydi.*

2. Farzand, o'g'il, zurriyot. Ota o'z o'ylari bilan, bola esa, otasi chehrasidagi g'amginlik sabablarini qidirish bilan mashg'ul edi.

3. Yoshi ulg'aygan, ammo go'daklarcha mulohaza yurgizadigan odam haqida. *Nega ko'nglimga olay, men yosh bolamanmi?*

4. (ko'pincha I shaxs egalik affiksi bilan) Keksalarning yoshlarga murojaat formasi. – *Qayerliksan, bolam, rusga o'xshamaysan, – kampir ko'z yoshlarini artib, unga yaqinlashdi, – Ota-onang bormi?*

5. Yangi tug'ilgan, tuxumdan chiqqan, hali voyaga yetmagan yosh hayvon yoki parranda. *Qo'ng'iz bolasini oppog'im der, kirpi bolasini yumshog'im der.*

[bola] leksemasining ma'noviy qo'llanishlarini dastlabki bosqichda ikki umumiylikka birlashtirish mumkin. Birinchi guruh XLM (xususiy lug'aviy ma'no)lar [bola + emmoq / bo'lmoq / yig'lamoq / tug'ilmoq / asramoq] qurshovi hosilasi bo'lib, leksema ular orqali o'zining voyaga yetmagan kishi (inson) sememasini namoyon qiladi. Birikuvchi fe'llar bolaning xos xususiyatlari bo'lgan harakatlarni ifodalaydi. O'TILda leksemaning bosh sememasi sifatida "yangi tug'ilgan, hali ko'krakdan ajralmagan" ma'noviy ko'rinishi belgilanadi. Biroq o'zbek tilida insonning bu yoshdagi holatini tasvirlovchi umumiste'mol qo'llanishga xos [go'dak], [chaqaloq] leksemalari bor. Chunki bu leksemalar ma'noviy tarkibidagi "yangi tug'ilganlik" semasi ularning farqlovchi, daxldor semasi sanaladi. Bu sema [bola] leksemasida belgilanmagan. Zero, u insonning ilk tug'ilgan kundan to voyaga yetguncha bo'lgan davri (ya'ni o'smirlik)ni ham qamrab oladi. [bola], [go'dak], [chaqaloq] leksemalarining o'zaro paradigmatic munosabati quyidagi ko'rinishga ega. "Yangi tug'ilganlik"

¹⁰⁸Хожиева Х.Я. Ўзбек тилида хурмат майдони ва унинг тузилиши // Истиклол ва она тили курилиши талқини ҳамда таълими. Тўплам. –Бухоро: НС, –Б. 104–105.

belgisi asosidagi oppozitiv munosabatida [go'dak], [chaqaloq] birliklari aniq va [bola] leksemasi mo'tadil belgiga ega. O'z o'rnida [go'dak], [chaqaloq] leksemalari "uslubiy betaraf" belgisi asosida [chaqaloq] leksemasi belgili va [go'dak] leksemasi belgisiz birlik." [go'dak], [chaqaloq] leksemalarining denotativ semalari muvofiq bo'lib, ifoda semalari bilangina o'zaro ziddiyatda bo'ladi, xolos.

[bola] leksemasi ushbu mememasi orqali [norasida] leksemasi bilan ham paradigmatik qurshov hosil qiladi. Ularning denotativ semalari muvofiqdek tuyulsa-da, biroq vazifa va ifoda semalari muvofiqligiga ega emas."¹⁰⁹

XI. Transformatsiyalash (aylantirish) usuli distributiv tahlil usuli doirasida shakllangan bo'lib, oddiy sintaktik qurilmalardan murakkabroqlarini, bir turdagi sintaktik qurilmadan boshqa turdagisini ma'lum qoidalar asosida hosil qilish yo'llari va vositalarini tadqiq va tahlil etishga mo'ljallangan. Bu tahlil usulida markaziy (asosiy, ilk sodda) birlik (odatda aniqlik mayli umumiy zamon umumiy shaxs va son shakl va ma'nolaridagi gap yoki, masalan, aniq nisbatli qurilma va h.) tanlanib, shu qurilmadan boshqa ma'noli va vazifali qurilmalarning hosil qilish chizmalari (chunonchi, ko'chirma gapli qurilmalardan o'zlashtirma gapli qurilmalar hosil qilish) aniq belgilanadi, kodlashtilib, modellashtiriladi. Samarali avtomatik (mashina, kompyuter) vositasida ma'lum bir dastur asosida bir qurilmadan ikkikinichisini to'g'ri hosil qila olish bilan belgilanadi.

Bu tahlil usuli mashina tarjimasida, matnlarning avtomatik tahlili jarayonlarida keng qo'llaniladi, ko'p hollarda injener (kompyuter) lingvistikasi va matematik lingvistika bilan qorishib ketadi.

Bu tahlil usuli bilan qisman S.Muhammedov (injener lingvistikasi yo'nalishida) va S.Mahmatqulovlar shug'ullanishgan. Quyida professor S.Mahmatqulovning ushbu tahlil usuli asosida bajarilgan ishidan parcha beriladi: "Predikativ sintagma odatda gap bo'lib (gapning predikativ asosi bo'lib) keladi. Bunday sintagma gap tarkibida to'g'ridan-to'g'ri biror sintaktik bo'lak vazifasida kelishi uchun predikativ sintagmada ma'lum grammatik o'zgarish voqe bo'lishi lozim. Bunday grammatik o'zgarishlar predikativ sintagma qaysi bo'lak vazifasida kelishiga bog'liq holda turlicha voqe bo'ladi. Quyida kesimi sifat bilan ifodalangan predikativ sintagmaning sifatlovchi vazifasida kelishi haqida to'xtalinadi.

Predikativ sintagma gap tarkibida bajarishi mumkin bo'lgan vazifalardan biri – sifatlovchi bo'lib kelishi. Bunday vazifada kelish uchun eng mos predikativ sintagma kesimi sifat bilan ifodalangan sintagma bo'lib, uning ega bo'lagi, odatda, ot so'zshakli bilan yoki ot birikma bilan ifodalanadi: 1. *Omborchining mavqei unikidan baland. – Mavqei unikidan*

¹⁰⁹Менглиев Б.Р. Лисоний тизим яхлитлиги ва унда сатҳлараро муносабатлар: Филол. фанлари доктори дисс. ...автореф. –Т., 2002. – Б. 20–21.

baland omborchi... 2. Odamning qarashlari o'tkir va tez. – ...qarashlari o'tkir va tez, yoshi qirqqa borgan bir odam edi...

Predikativ sintagma sifatlovchi bo'lib kelishi uchun bunday sintagma predikativ shakldan atributiv shaklga o'tishi lozim. Asli bunday o'zgarish sintagmada yaxlitligicha sodir bo'ladi, lekin amalda kesim bo'lakning o'zi o'zgaradi. Shu sababli asosiy e'tibor kesimga qaratiladi.

Kesimi sifat so'zshakl bilan ifodalangan predikativ sintagma sifatlovchi bo'lib kelganda faqat bir o'zgarish sodir bo'ladi (bu yerda sifat bilan ifodalangan sodda kesim nazarda tutilayotir): tuslovchi tashlanadi. Natijada predikativ sintagma atributiv shaklga aylanadi, sifat so'zshaklga tengalashadi."¹¹⁰

Bunda faqat o'zbek tilshunosligida keng qo'llanilgan va qo'llanilayotgan asosiy o'nta tadqiq va tahlil usuli sanab o'tildi. Aytib o'tilganidek, tilni turli jihatlardan tadqiq etish usul va yo'llari juda ko'p. Hozirgi kunda ikki yo'nalishdagi kompyuter lingvistikasida: 1) kompyuter yordamida til ta'limi; 2) kompyuter vositasida matnlarni tadqiq qilish va mashina tarjimai yo'nalishlarida) katta ishlar amalga oshirilmoqda, yangi-yangi tadqiq usul va vositalari ochilmoqda. Bular haqida ma'lumotlarni Internet tizimidan olish mumkin. Bu usullar bilan tanishish va ulardan foydalanish esa zamonaviy dasturlash tizimini chuqur bilishni talab qiladi. Bu bugungi katta avlodning emas, balki kelajak avlod oldida turgan vazifa.

¹¹⁰Кулмаматов Д.С., Н.П.Панжиев, Махматкулов С. Проблемы языковых контактов и трансформационного анализа. – Т.: БИ, 2001, –С. 65–66.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Каримов И. Юсак маънавият – енгилмас куч. –Т.: Маънавият, 2007.
2. Абдуазизов А. Ўзбек тилининг фонологияси ва морфонологияси. –Т.: Ўқитувчи, 1989.
3. Аҳмад С. Йўқотганларим ва топганларим. –Т.: Шарқ, 1998.
4. Абдураҳмонов Ғ., Сулаймонов А, Холиёров Х., Омонтурдиев Ж. Ҳозирги ўзбек адабий тили. Синтаксис. Олий ўқув юртларининг филология факультетлари сиртки бўлим студентлари учун қўлланма. –Т.: Ўқитувчи, 1979.
5. Асмус В. Г. Иммануил Кант. –М.: Наука, 1983.
6. Ахманова О.С. Словарь лингвистических терминов. –М.: СЭ, 1966.
7. Бертельс Е.Э. Суфизм ва суфийская литература. –М.: ИВЛ, 1953.
8. Библер В.С. От науковедения к логике культуры. Два философических введения в двадцать первый век. –М.: ИПЛ, 1991.
9. Библер В.. Мышление как творчество. –М.: Мысль, 1995.
10. Вопросы теории языка в современной зарубежной лингвистики. –М.: Изд АН, 1961.
11. Воҳидов Р., Неъматов Х, Сўз бағридаги маърифат. –Т.: Ёзувчи, 2001.
12. Диалектика и логика. Законы мышления. –М.: Наука, 1962.
13. Диалектика и логика. Формы мышления. –М.: Наука, 1962.
14. Диалектика теории познания. Об элементах диалектики. Под общей редакцией Б.М. Кедрова. –М.: Наука, 1965.
15. Динаршаев М. Машшоия // Энциклопедияи совети тоҷик. 4-жилд. –Душанбе, 1983.
16. Жумаев Т. Туркий тилларнинг қиёсий-тарихий таҳлили: Ўқув қўлланмаси. –Қарши: НС, 2005.
17. Журавлёв А., Павлик Н. Язык и компьютер. –М.: Просвещение, 1989.
18. Закон исключенного третьего и его антипод // Диалектика и логика. Законы мышления. Под. Ред. Б.М.Кедрова. –М., 1962.
19. Звегинцев В.А. История языкознания XIX–XX вв. в очерках и извлечениях. Часть II. –М.: Учпедгиз, 1965.
20. Зикриллаев Ғ. Назария – қуруқ оғоч // Истиқлол ва она тили қурилиши, талқини ҳамда таълими. –Т., 2000.
21. Иванов С.Н. Родословное древо тюрк Абул-Ғази-Хана. Грамматический очерк (Имя и глагол). –Т.: Фан, 1969.
22. Ивин В. Введение в философию истории. –М., 1999.
23. История лингвистических учений. Средневековый Восток. Отв. ред. А. В. Десницкая. –Л.: Наука. 1983.

24. Йўлдошева Н. Йиғиқ гап формал-функционал талқинда: Филол.фанлари номзоди дисс.... –Қарши, 2006.
25. Копнин П.В. Диалектика как логика и теория познания. –М.: Наука, 1973.
26. Карцевский С. Об ассимметрическом дуализме лингвистического знака // Звегинцев В.А. История языкознания XIX–XX вв. в очерках и извлечениях. Часть II. –М., 1965.
27. Кедров Б.М. Единство диалектика, логики и теории познания. –М.: Наука, 1963.
28. Комилов Н. Насафлик буюк мутафаккир // Тафаккур, 1995. – № 3–4.
29. Комилов Н. Тасаввуф I китоб. –Т.: Ёзувчи, 1996; II китоб –Т.: Ўзбекистон, 1999.
30. Конрад Н. И. Запад и Восток. Статьи. –М., 1972.
31. Косериу Э. Синхрония, диахрония и история // Новое в лингвистике. Вып. III. –М., 1963. –С. 198–232.
32. Кузнецов Б.Г. Эйнштейн. –М.: Изд.АН СССР, 1962.
33. Кулмаматов Д.С., Н.П.Панжиев, Махматкулов С. Проблемы языковых контактов и трансформационного анализа. –Т.: БИ, 2001.
34. Курбонова М. Ҳозирги замон ўзбек тили. Содда гап синтаксиси учун материаллар. –Т.: Университет, 2002.
35. Лингвистический энциклопедический словарь. –М.: СЭ, 1990.
36. Маҳмудов Н. Тил. –Т.: Ёзувчи, 1998.
37. Маҳмудов Н., Миртожиев М. Тил ва маданият. –Т.: Ёзувчи, 1992.
38. Маҳмудов Н., Нурмонов А. Ўзбек тилининг назарий грамматикаси. –Т.: Ўқитувчи, 1995.
39. Мельников Д, Черния А. Преступник № 1. Нацистский режим и его фюрер. –М., АПН, 1982.
40. Менглиев Б.,Абузалова М. Ҳозирги ўзбек адабий тили. Ўқув қўлланмаси. –Қарши: Насаф, 2005.
41. Менглиев Б. Лисоний тизим яхлитлиги ва унда сатҳлараро муносабатлар: Филол.фанлари доктори... дисс.автореф. –Т., 2002.
42. Менглиев Б. Фалсафа нечанчи ўринда туради? // Маърифат, 2004 йил 10 март.
43. Мирзаев М. Ўзбек тилининг бухоро группа шевалари. –Т.: Фан, 1968.
44. Муҳаммадходжаев А. Мирозрение Фаридуддина Аттора. – Душанбе, 1974;
45. Навоий А. Лисону-т-тайр. –Т.: Фафур Ғулум номидаги Нашриёт-матбаа бирлашмаси, 1991.
46. Насафий Шайх Азизиддин. Зубдат ул ҳақойиқ // Тафаккур, 1995, – № 3–4.
47. Неъматов Ҳ., Бозоров О. Тил ва нутқ. –Т.: Ўқитувчи, 1993.

48. Неъматов Ҳ., Расулов Р. Ўзбек тили систем лексикологияси асослари. –Т.: Ўқитувчи, 1995.
49. Неъматов Ҳ., Расулов Р. Ўзбек тили систем лексикологияси. –Т.: Ўқитувчи, 1995.
50. Нигматов Х.Г. Включенное третье в морфологической системе тюркских языков // Советская тюркология, – № 3, 1976.
51. Нормативные материалы по оформлению диссертации и автореферата. –Т.: 2003.
52. Нурмонов А. Ўзбек тилшунослиги тарихи. –Т.: Шарқ, 2002.
53. Нурмонов А., Шаҳобиддинова Ш. в. б. Ўзбек тилининг назарий грамматикаси. Морфология. –Т.: Янги аср авлоди, 2000.
54. Нюрнбергский процесс над главными военными преступниками. тт. 1–7. –М., 1957–61.
55. Общее языкознание. Отв. ред. Б.А.Серебренников. Формы существования, функции, история языка. –М.: Наука, 1970.
56. Одинаев Я.К. Коран. Философское, этическое, эстетическое учение. –Душанбе: Маориф, 1991.
57. Паллас П. Сравнительные словари всех языков и наречий. СПб, 1717.
58. Познер А. Р. Истины и парадоксы. –М.: ИПЛ, 1977.
59. Поливанов Е.Д. Статьи по общему языкознанию. –М.: ИВЛ, 1968.
60. Против вульгаризации и извращения марксизма в языкознании. Сборник статей. Под. ред. В. В. Виноградова, Б.А.Серебренникова. Часть I. –М.: Изд. АН СССР, 1951; Часть II. –М.: Изд. АН СССР, 1952.
61. Пражский лингвистический кружок. –М.: Прогресс, 1967.
62. Раҳматуллаев Ш. Тил қурилишининг асосий бирликлари. –Т.: Университет. 2002.
63. Розенталь М.М. Принципы диалектической логики. –М.: Наука, 1960.
64. С.Усмонов. Умумий тилшунослик. –Т.: Ўқитувчи, 1972.
65. Сайфуллаева Р.Р. Ҳозирги ўзбек тилида қўшма гапларнинг формал-функционал талқини. –Т.: Фан, 1994.
66. Саидова М.Р. Сравнительно-типологическое исследование односоставных предложений в русском и узбекском языках: Автореф. дисс...канд.филол.наук. –Т., 1996.
67. Скаличка В. Ассиметрический дуализм языковых единиц // Пражский лингвистический кружок. –М.: Прогресс, 1967.
68. Словарь иностранных слов. –М.: Изд. СЭ, 1967.
69. Совет даври ўзбек адабий тилининг тараққиёти. Уч томлик. 1- т. Морфология. –Т.: Фан, 1988; Синтаксис. –Т.: Фан, 1989; 3- т. Сўз ясаши ва лексика. –Т.: Фан, 1991.
70. Степанянц М.Т. Философские аспекты суфизма. –М.: Наука, 1987.

71. Тилшунослик ва методика масалалари. –Тошкент – Бухоро: НС, 2002.
72. Турар У. Тасаввуф тарихи. –Т.: Истиқлол, 1999.
73. Узбекская ССР. –Т.: Глав. ред. Уз. СЭ, 1981.
74. Умаров Э. *Қишлоқ сўзининг тарихи // Тил ва адабиёт таълими*, 2002. – № 6.
75. Умутов У. “Вақт”нинг туғилиш жараёни // Фафур Ғулом ва давримиз. –Қарши: Насаф, 2003.
76. Узоқов Ҳ. Ўзбек тилшунослари. –Т.: Ўқитувчи, 1972.
77. Философический словарь. –М.: Изд. ПЛ, 1968.
78. Философия. Наука. Методология. –М.: Наука, 1980.
79. Фиш Р. Жалолиддин Румий. –Т.: Ғ.Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1986.
80. Хайруллаев М., Ҳақбердиев М. Мантиқ. –Т.: Ўқитувчи, 1993. – Б. 92-95.
81. Ўзбек тили бўйича ДТСларни жорий этиш масалалари. Республика илмий-амалий конференцияси материаллари. –Қўқон: НС, 2003.
82. Ўзбек тили грамматикаси. 1-2- том. –Т.: Фан, 1975-76.
83. Қодиров З. Ўзбек тили грамматик категорияларини систем тадиқ этиш. (Келишик категорияси): Филол.фанлари номзоди дисс.автореф. –Самарқанд, 1993.
84. Ҳазратқулов М. Тасаввуф. –Душанбе: Маориф, 1988.
85. Ҳегель Г.Ф. Наука логики. Том I. –М.: Мысль, 1970.
86. Чаҳор китоб. –Душанбе: Адиб, 1990. –Б. 29.
87. Шаҳобиддинова Ш. Умумийлик ва хусусийлик диалектикаси ҳамда унинг ўзбек тили морфологиясида акс этиши: Филол.фанлари доктори... дисс.автореф. –Т., 2001.
88. Шукуров Ш., Бозорова Д. Узбекское советское языкознание. – Т.: Фан, 1984.
89. Ҳожиева Ҳ.Я. Ўзбек тилида хурмат майдони ва унинг тузилиши // Истиқлол ва она тили қурилиши талқини ҳамда таълими. Тўплам. –Бухоро: НС, 2001. –Б.104-105.

Mundarija

SO'ZBOSHI.....	3
Tavsiya etiladigan zaruriy adabiyotlar	6
<i>Kirish</i>	
ILMIY TADQIQ JARAYONI	
Ilmiy tadqiq jarayoni va uning tarkibiy qismlari. Ilmiy tadqiq jarayoni	12
Ilmiy tadqiqotda qisqartma, havola va bibliografik ma'lumotlarni berish.....	30
<i>Birinchi bob</i>	
METODOLOGIYA	
Ilmiy tadqiq metodologiyasi	39
Til birliklarini fahmiy o'rganish, uning maqsad, usul va vositalari	45
Til va uning birliklarini idrokiiy o'rganish, uning maqsad, usul va vositalari.....	49
Idrokiiy va fahmiy bilimlarning o'zaro munosabati	54
Til tadqiqiga yondashish usullari.....	60
Tilni ilmiy o'rganishda tadqiqotchining tayanch nuqtayi nazari turlari	64
Ilmiy tadqiq metodologiyasi tarkibiy qismlari orasidagi munosabat. Fetishizm haqida	69
Ilmiy dialektik tadqiq metodologiyasining amaliy tatbiqi masalasi ...	73
<i>Ikkinchi bob</i>	
LINGVISTIK TADQIQ METODLARI	
Tadqiq metodi haqida	83
Lingvistik tadqiq metodlari haqida	89
Foydalanilgan adabiyotlar	107

FOR AUTHOR USE ONLY

**More
Books!**



yes
I want morebooks!

Buy your books fast and straightforward online - at one of world's fastest growing online book stores! Environmentally sound due to Print-on-Demand technologies.

Buy your books online at
www.morebooks.shop

Kaufen Sie Ihre Bücher schnell und unkompliziert online – auf einer der am schnellsten wachsenden Buchhandelsplattformen weltweit! Dank Print-On-Demand umwelt- und ressourcenschonend produziert.

Bücher schneller online kaufen
www.morebooks.shop

KS OmniScriptum Publishing
Brivibas gatve 197
LV-1039 Riga, Latvia
Telefax: +371 686 204 55

info@omniscryptum.com
www.omniscryptum.com

OMNIScriptum



FOR AUTHOR USE ONLY

FOR AUTHOR USE ONLY

FOR AUTHOR USE ONLY